

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

Tarix fakulteti

Arxeologiya kafedrası

Alimov Mansur Norboyevich

**SELUNG`UR VA OBIRAHMAT G`OR MAKONLARINING
TARIXIMIZNI O`RGANISHDAGI O`RNI**

**5220200 – Tarix bakalavriat ta`lim yo`nalishi
Malakaviy bitiruv ish**

**Ilmiy rahbar
Rasmiy taqrizchi**

**prof Djo`raqulov M. D
t.f.n Djo`raqulova D.M**

Malakaviy bitiruv ishi arxeologiya kafedrası 2012 – yil ____ – maydagi
majlisida mu hokama qilingan va YADAKga himoya uchun tavsiya etilgan (
№ – son bayonnoma).

Kefedra mudiri:

t.f.n Djo`raqulova D.M

Malakaviy bitiruv ishi YADAKning 2012 – yil ____ iyundagi majlisida
himoya qilingan va ____ ball bilan baholangan (№____ - son bayonnoma)

YADAK raisi

A`zolar

Mavzu; Selung`ur va Obirahmat g`or makonlarining tariximizni o`rganishdagi tutgan o`rni.

Kirish_____3 - 10

I.Bob.Toshkent va Farg`ona vodiylari paleolit yodgorliklari tarixi___11 -28

II. Bob. Selung`ur g`or makonning mamlakatimiz ilk tarixini o`rganishdagi ahamiyati_____29 - 55

III. Bob. Obirahmat makonining o`rganilishi tarixi va O`zbekiston arxeologiyasining o`rganilishdagi o`rni_____56 - 71

Xulosa_____72 - 77

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati._____78 – 84

Ilova (Illitiratsiya)_____85 - 95

Kirish

O'zbekiston diyori o'zining kulay geografik o'mi, fusunkor tabiati, boy xayvonot olami, anvoyi yyer osti boyliklari tufayli bundan million yil ilgariyoq odamlarni o'ziga jalb qila boshlagan. Qadimiy dehqonchilik madaniyati, barkurib rivojlangan shaharsozlik, yuksak moddiy va ma'naviy madaniyatli tamaddun shakllangan bu o'lkada Baktriya, Sug'd, Xorazm va Farg'ona singari shaharlashgan tarixiy-madaniy mintaqalar ravnaq topgan. Toshkent vohasi ana shunday mintaqalar sirasiga kiradi, kadimgi Choch davlati aynan shu vohada joylashgan.

Toshkent vohasining tarixi va madaniyati qazib ochilgan yodgorliklarda, arxeologik obidalarda o'z aksini topgap. Voxa arxeologiyasn XIX asrning ikkinchi yarmidan o'rganila boshlangan. Natijada, arxeologlar ko'plab xilma-xil matyeriallar to'plashga muvaffak bo'ldilarki, bu matyeriallar mintaqaning kadimgi davrdan XV asrgacha bo'lgan tarixi va madaniyatini kayta tiklash imkonini byerdi.

Chirchiq va Ohangaron daryo vodiylarini o'z ichiga oluvchi Toshkent vohasi shimoli-shark va shark tomondan Chotqol va Qurama tog'lari, janubi-g'arb tomondan buyuk ko'chmanchilar dashti bilan chegaralangan. Mintaqaning qulay tabiiy-iqlimiy sharoitlari bundan bir necha yuz ming yil mukaddam ibtidoiy odamni o'ziga jalb etdi. Bu yerdagi paleolit davri yodgorliklari nafakat Toshkent mintaqasi yoki Markaziy Osiyo, balki butun Evroosiyoning antropogenez tarixi hamda Paleolit davri madaniyatlarining rivojlanishini o'zida aks ettiradi.

Toshkent vohasi xududida kuyi bronza, ilk temir, antik davr va o'rta asrlarga oid sakkiz yuzdan ziyod yodgorlik mavjud. Quyi bronza davrida voha hududida «Andronov madaniy jamoasi» chorvador kabilalari joylashib olgan. Miloddan avvalgi ikkinchi ming yillikning oxirlariga kelib, bu yerda Burg'uluk dexqonchilik madaniyati vujudga keldi. Ilk temir asrining quyi boskichida -

arxaik davrda, Toshkent vohasida antik davr mualliflarining ma'lumotlariga ko'ra, Iskandar Zulqarnayn yurishi davrida davlat tuzilmasiga birlashgan sak kabilalari joylashgan. Bu davr shaharlashish jarayonining rivojlana boshlashi bilan xarakterlanadi - «kal'alar» vujudga kela boshlaydi va ilk shaharlar shakllanadi. Miloddan avvalgi birinchi ming yillik oxirlarida Toshkent voxasi xududi qudratli Kang' konfedyerativ davlati tarkibiga kiradi va uning poytaxt mintaqasi bo'lib qoladi. Kang' davlatining gullab-yashnashi miloddan oldingi II asr - milodiy I asrlarga to'g'ri keladi. Bu davrda Oks - Amudaryo va YAKsart - Sirdaryo oralig'idagi deyarli barcha yerlar Kang' davlati tarkibiga kirgan. Bu yerga miloddan avvalgi, taxminan, 128 yillarda tashrif buyurgan xitoy diplomati Chjan Szyan o'z xotiralarida shunday yozgan edi: «Kangyuy - mag'rur va dadil. U noiblar nomidan yuboriladigan amaldorlarni usun elchilaridan pastrokka o'tqazishadi».

Ko'pgina tadqiqotchilarning fikricha, mazkur davlatning poytaxti - Bityan shahri Toshkent vohasining kadimiy shahar markazi - ko'hna Qanka shaxrining o'rnida bo'lgan. Bu davrda mintaqada shaharlashish jarayonlari, moddiy va ma'naviy madaniyat jadal rivojlangan. Unlab shaharlar, qasabalar barpo bo'ladi, haydaladigan yerlar maydoni kengaya boradi, hunarmandchilikning turli soxalari rivojlanadi.

Milodiy birinchi ming yillik o'rtalarida voha O'rta Osiyoning boshqa mintaqalari kabi dastlab eftalitlar davlati tarkibiga, keyinrok Turk xokonligi tarkibiga kiradi. Uning hududida ikkita mustakil o'lka yuzaga keladi: markazi Toshkent bo'lgan Choch hamda markazi Tunkat bo'lgan (Ohangaron daryo havzasi) Ilok. Bu davrda shaharlar maydoni kichrayadi, lekin boy dexqon qo'rg'onlari soni keskin ortadi, vaqt o'tishi bilan bular negizida yangi shaharlar vujudga keladi. Mintaqa iqtisodiyotida oltin, kumush va mis qazish, metallsozlik va mstall ishlash katta ahamiyat kasb eta boshlaydi. Bu yerda tanga zarb etish yo'lga ko'yiladi.

O'rta Osiyoning arablar tomonidan fath etilishi davrida mintaqa hayoti tanazzulga uchraydi. Lekin o'z iqtisodiy imkoniyatlari tufayli shahar va qishloqlar tez orada o'z xo'jalik hayotini izga soladi va Somoniylar (IX-X asrlar), Qoraxoniylar (XI-XII asrlar) va Xorazmshoxlar (XIII asr boshlari) davlatlari tarkibida alohida rol o'ynay boshlaydi. Arab-fors mualliflari (IX-X asrlar) bu davrda Toshkent vohasida kariyb 40 ta yashnayotgan shaharlar bo'lganini qayd etadilar. Bu yerda kulolchilik ishlab chiqarishi, shishasozlik, to'kimachilik, ko'nchilik va konchilik rivojlangan. Al-Mukaddasiyning ta'kidlashicha, islom olamida Shosh sopol buyumlariga teng keladigani bo'lmagan. Shosh shaharlari orasida uning poytaxti Binkat alohida o'rin egallagan bo'lib, vohaning yuragi edi, u orkali Movarounnaxr shaharlarini ko'chmanchilar dashti bilan bog'lovchi savdo yo'llari o'tgan. Buyuk ipak yo'lining savdo yo'nalishlari ham Binkatda kesishgan.

Toshkent vohasini 1219 yilda Chingizxon qo'shini bosib olgan. Okibatda, vohaning shaharlari, sug'orish tarmoklari xarob bo'ldi, tog'larda kon qazish kiskardi. Mintaqa Amir Temur va Temuriylar davlati tarkibiga qo'shilgan XIV asr o'rtalaridagina bu yerda hayot kayta jonlandi. Ko'pgina shaharlar tiklandi. Bu davrda Binkat va Shoxruhiya eng yirik shaharlar bo'lib, ular mintaqaning siyosiy, iqtisodiy va madaniy markazlari xisoblangan.

O'zbekiston Respublikasining hududida, jumladan, Farg'ona vodiysida yashagan qadimiy ajdodlarimizning ilk tarixi qadimgi tosh davridan boshlanadi. Arxeologik qazish ishlari shuni ko'rsatadiki, nafaqat O'zbekistonda balki butun O'rta Osiyo hududida ajdodlarimiz tarixining boshlanganiga 1-1,2 million yil bo'lgan. Ma'lumki, sinfiy jamiyatning boshlangani esa 2,5-2,7 ming yil bilan belgilanadi. Demak, bu mintaqada xam insoniyat tarixining 99,75 foizini ibtidoiy tizim tarixi tashkil etadi. Faqat 0,25 foizigina qolgan ijtimoiy-iqtisodiy tsivilizatsiyalarga tegishlidir, xolos.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, ana shunday qadimiy tarixni o'z boshlaridan o'tkazgan ajdodlarimiz haqida Yaqin yillarga qadar, nafaqat bizning

xalqimiz, balkiular orasidan etishib chiqqan zielilarimiz xam, oddiy bo'lsa-da tasavvurga xam ega emasedilar. Chunki, bizning qadimiy go'zal va nafis tariximizni yorituvchi milliy arxeolog olimlarimiz XX asrning ikkinchi yarmiga qadar yo`q darajada edi. Shuning uchun ham nafaqat bizning O'zbekistonimiz, balki O'rta Osiyo mintaqasining ibtidoiy tuzum tarixi haqida ma'lumotlar yo`qdir. Bunday bo'lishining asosiy sababi, O'rta Osiyoni bosib olgan chor Rossiyasining, o'zlarini adolatparvar qilib ko'rsatishga harakat qilgan impyeriyalashgan ideologiyasi milliy madaniyatimizning yuksak darajada bo'lganligini ko'rsatishga mutlaqo qarshi ekanligndan edi.

Bunday holatdan qutulishning yo'li bitta edi. U ham bo'lsa milliy kadrlardan mutaxassis arxeolog olimlarni tayyorlash vazifasini hal qilish edi. Nafaqat o'zbek arxeologlarining, balki O'rta Osiyo qadimshunoslarining fan olamida Yo`qorida darajasiga ko'tarilgan YA.G'. G'ulomov ning tinimsiz sa'y - harakatlari tufayli o'tgan asrimizning 60 yillarida birin-ketin o'zbek arxeologlaridan fan nomzodlari chiqa boshladi. Natijada, 1970 yilning 1 oktyabriga kelib, katta tashkilotchi o'z xalqining fidoyisi, O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining sobiq vitse prezidenti I.M. Mo'minov homiyligida O'zR FA si tarkibida asosiy o'zagini o'zbek olimlari tashkil qilgan arxeologiya instituti tashkil etildi.

Ana shu ilmiy tekshirish instituti bazasida 10 dan ortiq fan doktorlari va 50 dai ortiq fan nomzodlari tayyorlanib, ular tomonidan ibtidoiy jamoa tuzumini barcha jabhalarini yorituvchi o'nlab yirik monografiyalar va yuzlab muhim muammolar echimiga oid ilmiy maqolalar yuzaga keldi Bunday ilmiy izlanishlarni yakuni ajdodlarimizni ibtidoiy jamoa tuzumini barcha qirralarini yoritish uchun poydevor yaratgan bo'lsa, 1991 yilning 1 sentyabrida jonajon O'zbekistonimizning mustaqillikka yerishuvi barcha fanlar qatori, arxeologiya fani va uni mutaxassis olimlari uchun ulkan maqsadlarni amalga oshirishlariga juda katta imkoniyatlarni yaratib byerdi.

Muhtaram Prezidentimiz Islom Abdugʻanievich Karimov aytganlaridek: «Mustaqillik yillari oʻz oʻtmishimizni, oʻz madaniyatimizni xolisona bilib olish davridir. Bu jahon hamjamiyati, tarix oldidagi vazifamizni anglab olish davridir... Bu davr maʼnaviy uygʻonish va milliy oʻzligini anglashning oʻsish davridir» (I.A.Karimov. 1995.)

Shunday ekan, shu kunning talabi mustaqil Oʻzbekistonimizdagi xar bir oriyati, vijdoni pok insonning kim boʻlishidan, qaysi kasbga mansub boʻlishidan qatʼiy nazar, imkon qadar mustakilligimizni mustahkamlash yoʻlida fidoiylik qilmogʻi lozim. Bu borada tarixchi va arxeolog olimlarimizning maʼsuliyati yanada kuchliroq boʻlishi kerak deb oʻylaymiz. Chunki tariximizni bor boʻyi - basti bilan oqilona koʻrsatishimiz uchun hech qachon va hech bir zamonda hozirgidek sharoit yaratilmagan edi. Shuning uchun ham, hozirgi kunda arxeolog olimlarimiz tomonidan mustaqil Oʻzbekistonimizni erksevar fuqarosi, oʻzligini anglashga va maʼnaviyatini yanada yuksaltirishga hissa qoʻshish maqsadida, juda keng miqyosda ilmiy izlanishar olib borilmoqda. Bu borada ibtidoiy tuzum tarixini ilk davri haqida keyingi yillarda juda katta arxeologik ishlar olib borildi. Maʼlumki, Yuqorida taʼkidlaganimizdek, XX asrning ikkinchi choragiga qadar nafaqat bizning Oʻzbekistonimiz balki, Oʻrta Osiyo hududi boʻyicha ibtidoiy tuzumni ilk va oʻrta davri haqida maʼlumot byeruvchi birorta ham arxeologik yodgorlik topilmagan va oʻrganilmagan edi. Shuning uchun ham XX asrning 30 - yillarini boshlarida fashistlar Gyermaniyasining hokimiyati tepasiga kelgan A.G.Gitlyer va uning tarafdorlari tomonidan gʻayri ilmiy nuqtai nazar yaratilib, bizga koʻra yer yuzidagi barcha xalqlar Neandertal odamlardan tarqalgan.

Faqat fashistlargina toza qondan yaralgan odamlar boʻlib, ularning kelib chiqish joylari Oʻrta Osiyo boʻlgan deb daʼvo qilib chiqdilar. Ularning kelib chiqish joylarining Oʻrta Osiyo deb koʻrsatishlarini sababi, 1938 yilga qadar Oʻrta Osiyo hududidan oʻrat paleolit, yaʼni muste davrida yashagan neandertal odamlarini makonlarini topilmagani edi. Aniqrogʻi, Oʻrta Osiyodagi Rossiyaga

qaram bo'lgan respublikalarning birontasida ham arxeolog olimlarni umuman bo'lmaganligi sababli, bu region mutlaqo o'rganilmagan edi. Shuning uchunham A.P.Okladnikov tomonidan Teshiktosh g'orini, ya'ni neandertal odamlarini yashagan makonini topilishi o'z vaqtida juda katta voqea bo'lib, yuqoridagi kabi g'ayri ilmiy uydirmalarga barham berishga sabab bo'lgan. O'sha vaqtlarda ham arxeologiya fanidan yaxshi tanilmagan, endigina aspiranturaning 2 kursida o'qiyotgan aspirant A.P. Okladnikov davlat mukofotining sovrindori bo'lgan edi.

Shuni aytish kerakki, o'tgan asrimizning 2 yarmidan boshlab, ayniqsa, uning oxirgi choragida O'rta Osiyodagi respublikalarning milliy kadrlardan tashkil topgan mutaxassislarni ilmiy izlanishlari natijasida O'rta Osiyo hududlarida 300 dan ortiq, o'rta polialitga, ya'ni muste davriga mansub neandertal odamlarni mehnat qurollari va makonlari borligi aniqlandi. Bu borada O'zbekiston Respublikasida Arxeologiya institutining tashkil topgani va unda mutaxassis arxeolog olimlarni jamlangani tufayli, u bosh rolni o'ynadi. Faqat Toshkent vohasining o'zidagina 30 dan ortiq muste yodgorliklari topildi va mukammal ravishda o'rganildi. Ammo, O'rta Osiyodagi 300 dan ortiq muste yodgorliklari orasida Teshiktosh g'orida yashagan neandertal odamlarning makoni o'zining kadimiyligi va arxeologik matyeriallarini boyligi bilan hamon o'z hukmronligini davom ettirib kelmoqda. Haqiqatdan ham Teshiktosh G'oridan topilgan arxeologik topilmalar hozirgacha juda katta ahamiyatga ega bo'lib kelmoqda. Faqat toshdan yasalgan mahnat qurollarining soni 339 ta bo'lib, ularning chiqindilari 3000 taga etadi. Teshiktoshdan topilgan mehnat qurollarini aksariyati qirquvchi va tarashlovchi vazifalarni bajarganlar. Bu mehnat qurollari orasida o'rta paleolitni neandertal odamlariga xos bo'lgan rapydasimon nukleuslar (o'zaklar) bir nechta nusxada bo'lib, o'larning diametri 10-15 sm bo'lgan. Bu kabi o'zaklardan neandertal odamlari ot-boynik (vazni 300 gr 0,5 kg bo'lgan qayroq toshlar) yordamida uchburchaksimon uchirindilar uchirib olingan. Uchirib olingan uchirindilar o'tkir qirralarga ega bo'lib, ulardan

tyerilarga ishlov byerish, yog'ochlarni kesish, randalash kabi ishlarda foydalanganlar. Muste madaniyatiga ya'ni, neandertallarga xos bo'lgan bo'lgan bunday mehnat qurollari Teshiktoshdan boshqa hech qayerda hozirgacha bunchalik ko'p topilmagan. Teshik-toshda topilgan topilmalarning eng qimmatlisi bu Teshiktosh neandertal odamining suyak qoldiqlaridir.

Bular asosan, kalla suyagi, elka va o'ng son suyagining parchalari, yo'g'on boldir suyagi va deyarli saqlanib qolgan ikkala kichik boldir suyagi, diafizi hamda umurtqa pog'onasining ba'zi bo'laklaridir. A.P.Okladnikov tomonidan topilgan va mukammal ravishda o'rganilgan Teshiktosh yodg'orligini muhim ahamiyatlaridan yana biri shundaki, neandertal bolani ko'milgan qabrini o'rab, sanchilgan tog' echkisi shoxlarining topilganligidir. A.P.Okladnikovning xulosasiga ko'ra, ajdodlarimizda ko'mish marosimini o'rta paleolit ya'ni, neandertallar zamoniga kelib paydo bo'lganini tasdiqlaydi. Ko'mish marosimidan dalolat byeruvchi bu kabi yodgorliklar jahonning boshqa joylarida ham topilgan bo'lsada, qabrlarni echki shoxlari bilan o'rab qo'yish ya'ni, nimagadir ishonish, e'tiqod qilishni aks ettiradigan neandertallarga xos yodgorliklar bizning O'zbekistonimizdan boshqa jahonning hech bir yerida topilgani yo'q. Shuning uchun yer yuzida e'tiqod qilish, birinchi bo'lib bizning ajdodlarimizda paydo bo'lgan desak bo'lavyeradi.

Teshiktosh g'oridan topilgan odamning suyak qoldiqlari antropologlarda o'z vaqtida juda katta qiziqish uyg'otgan. Antropolog xulosalariga ko'ra neandertal bolaning bosh suyagini hajmi 1490 3 sm bo'lib, uni qopqog'i pitekontrop va sinantropnikidan ancha balandroq bo'lgan. (Debets 1940), (Gremyatsiy 1949). Teshiktosh G'orining neandertal odamining suyak qoldiqlarini o'rganishga qiziqish antropologlar tomonidan 1970 yillarda ham davom etdi. Taniqli antropolog olim akademik V.A. Alekseevni antropologiya fanini keyingi yutuqlariga tayangan holda Teshiktosh odamini takroriy o'rganipshing natijalari, bu neandertal odamini suyak qoldiqlari, ilgari aytilganidek 8 yashar o'g'il bolani suyak qoldiqlari bo'lmay balki, ayol

kishiniki bo'lib, uni inson evolyutsiyasining neandertal vazifasiga mansub va Evropa yoki Old Osiyo guruhiga kirishini ko'rsatdi. (Alekseev, 1973.)

Yuqoridagi aytilgan fikrlarga xulosa qilib, Shuni aytish joizki, yer sharida yashovchi barcha xalqlar o'zlarining tarixiy taraqqiyot yo'llarida neandertal odamni bosqichini o'z boshidan kechirib o'tganlar. Hech qanday oliy irq yoki past irq bo'lmagan. Dunyoning ko'p joylarida bo'lgani kabi O'rta Osiyoda ham neandertal yashaganlar. 1938 yilda A.P.Okladnikov tomonidan Teshiktosh odamini topilishining buyuk ahamiyatlaridan yana biri shu bo'ldiki, O'rta Osiyoda insoniyatning qadimdan, ya'ni 80-100 ming yillardan byeri yashab kelganliklarini isbotlab byerdi. Ilgari bizga ma'lum bo'lmagan ajdodlarimizni o'rta paleolit tarixining sahifalari har tomonlama dalilli ashyolarga suyanilgan holda yoritildi va ilmiy jihatdan asoslab byerildi. Bunday holat nafaqat O'zbekiston, balki butun O'rta Osiyo xalqlarining qalblarini faxr-iftixor va g'ururga to'ldirdi. Shunday bo'lishi tabiiy edi.

I BOB. Toshkent va Farg`ona vodiylari paleolit yodgorliklari tarixi.

Toshkent shahrining sharqiy-shimoli-sharqiy tomonidan 100 km uzoqlikda joylashgan Bo'stonlik tumanining Burchmulla qishlog'i yaqinida topilgan Obi-Rahmat paleolit davri manzilgohi A.R.Muhammadjonov tomonidan 1962 yilda ochilgan bo'lib, uning birlamchi qazish ishlari M.M.Gyerasimov va X.K.Nasriddinovlar rahbarligida olib borilgan, 1964-1965 yillardan boshlab esa mazkur faoliyatga R.H.Sulaymonov rahbarlik qilgan. 1998 yildan boshlab, manzilgoh Uz FA Arxeologiya instituti hamda Rossiya FA Sibir bo'limining Arxeologiya va etnografiya institutlari ko'shma ekspeditsiyasi tomonidan akademiklar U.I.Islomov va A.P.Dyerevyankolar umumiy rahbarligida tadqiq etib kelinmoqda.

Markaziy Osiyoning tosh davri tarixiga tegishli bo'lgan joylari ichida, ayniksa, uning o'rta paleolit davri oxiri va yukori paleolit davri boshiga taalluqli yodgorliklari ichida Obi-Rahmat g'ori nosbligi bilan o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Ko'p qatlamli kalinlikdagi paleolit davrining madaniy qoldiklari hamda yukori darajada boyitilgan yer katamlarining mavjudligi kadimgi odamga xos moddiy madaniyat taraqqiyoti doirasida kechgan evolyutsion o'zgarishlarni bir necha o'n mingyilliklar davomida kuzatish imkoniyagini yaratadi. Olib borilgan tadqiqot ishlari natijasida g'orning stratigrafik ketma-ketligining davomiy bir jinsli ekanligi tasdiqlandi, uning asosida esa so'nggi o'rta paleolit davrining plastiksimon texnologiyasi bilan birgalikda uncha ko'p miqdorda bo'lmagan levalluan texnikasining korishmasi mavjudligi aniqlandi. Obi-Rahmat yodgorligiga tegishli bo'lgan ishlab chiqarishning o'ziga xos xususiyati uning barcha qatlamlarida namoyon bo'lgan yuqori paleolit davriga taalluqli xarakteristikalarining ham texnologik, ham tipologik darajada mavjudligi hisoblanadi. Davrlashtirishning rang-barang absolyut metodlari ko'llanilishi

Obi-Rahmat kompleksining faoliyat olib borgan davri xududlarini 60 m.y.i.(minimum) -40 m.y.i. interval orasida belgilash imkoniyatini yaratdi. Shunday qilib, Obi-Rahmat yodg'orligining kelib chiqishi yangi madaniyatning ilk shakllanish davrlariga borib taqaladi.

2003 yilning yoz mavsumida yodgorlikning kariyb 60 m.y.i. yoshga oid katlamida kadimgi odamning suyak qoldiklari topildi. Buning natijasida o'tish davri industriyasini anik belgilangan jismoniy odam tipi bilan solishtirish va bog'lash mumkin bo'ldi, Chunki bugungi kunda dunyo miqyosida mazkur o'tish davriga xos bo'lgan kadimgi odamga tegishli qoldiklar borasida bir necha tarkoq ma'lumotlarga saqlangan xolos. Shunday qilib, Obi-Rahmat yodg'orligida topilgan odam ko'rinishi neandertal tipidagi odam va zamonaviy odamlar tashqi kiyofasining qorishma-aralashma tipini namoyon qiladi. Obi-Rahmat odami kiyofasining ko'pchilik parametrlari esa bugungi kundagi mavjud paleantropologik ma'lumotlar ichida o'xshashi yo'q va takrorlanmas hisoblanadi. SHu bilan birga, bugungi kunda bunday o'ziga xoslik va takrorlanmaslik, mavjud xususiyatlarning korishmaligi nimalar asosida vujudga kelgani va nimalarga asoslanishini xam aniq izohlashning imkoniyati mavjud emas. Mazkur holat, bir tomondan, zamonaviy kiyofadagi odamning mustaqil ravishda multiregional shakllanganligini namoyon qilsa, ikkinchi tomondan, neandertal odam bilan zamonaviy odam gibridlashuvining dalili topilganini namoyon etadi, Chunki bugungi kungacha ilmda mana shunday metizatsiya jarayonining kelib chiqishi.

Obirahmat yodg'orligi atrofida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar mazkur xudud tosh davrida ibtidoiy odamlar tomonidan faol ravishda o'zlashtirilganligini ko'rsatdi. 2005 yildan Paltau daryosining yukori okimida ko'pkatlamli Dodakatim paleolit davri yodg'orligi o'rganilmoqda. Mazkur yodgorlik O'zbekiston kadimgi tarixining eng kam o'rganilgan davriga alokador bo'lib, yukori paleolitning o'rta boskichiga tegishlidir. Arxeologik kolleksiyaning dastlabki o'rganilishi natijalari, Shuningdek, uning absolyut

yoshini aniklash bo'yicha olingan natijalar (21-23 m.y.i.) Markaziy Osiyoda mikrolitik an'analar belgilanganidan ancha oldinroq paydo bo'lganligini, Shuningdek, O'zbekiston xududida mezolit madaniyati shakllanishiga doir ilk o'choqlarning mavjudligini ilmiy tasdiklaydi. Bu esa O'zbekiston hududida eng kadimiy madaniyatlar genezisining regional o'chog'i mavjud bo'lganligini ilmiy asoslash uchun imkoniyat yaratadi.

Markaziy Osiyo hududida madaniyatlar getsezesi jarayonini rekonstruktsiya qilish uchun Markaziy Osiyoning betakror yodgorligi bo'lgan Ko'lbulok manzilgoxini o'rganish juda katta ahamiyat kasb etadi. Mazkur paleolit davri manzilgoxi Chotqol tog' tizmalarining janubi-sharqiy pastligida Qizil-olma soyining kuyi oqimi chap soxilida, Angren shahri yaqinida joylashgan. Yodgorlik 1962 yilda O.M.Rostovtsev tomonidan ochilgan. 1963 yildan 1993 yillargacha statsionar qazishma ishlari O'z FA Arxeologiya institutining Oxangaron paleolit guruxi tomonidan olib borilgan. 2007 yilda UzFA AI, Rossiya FA SB AEI hamda Belgiyaning San'at va tarix Qirollik muzeyining o'zaro hamkorligi asosida Ko'lbulok manzilgoxini o'rganishda yangi izlanishlar davri boshlandi. Yodgorlikni ilmiy o'rganish ishlarining boshlanishi natijasida shimoli-g'arbiy Tyan-SHan xududlarida tosh davri ishlab chikarishi (industriyasi), ya'ni ashel davridan boshlab to yukori paleolit davrigacha bo'lgan ishlab chikarish tarakkiyoti dinamikasi jarayonlarini qayta shakllantirish uchun barcha zarur sharoitlar yaratildi. Bugungi kungacha tadqiq etilayotgan tarixiy davr bo'yicha axborotlar etishmovchiligi, eng avvalo, yodgorliklarning aniq statistik ma'lumotlar jarayoniga tortilmaganligi, Shuningdek, arxeologik matyeriallarning sifatli nashr qilinmaganligida sezilar edi. Ohangaron daryosi vodiysi, eng avvalo Ko'lbulok manzilgoxida tashkil etilgan yangi ish jarayonlari mana shu etishmovchiliklarni bartaraf etishga xizmat kildi.

Umuman olganda, Ko'lbulok manzilgoxida olib borilgan dala ishlari jarayonida 19 m.dan iborat to'rtlamchi qatlamlari ochilgan bo'lib, qazishma

ishlarining umumiy xajmi 600 kv.m.ni tashkil qilgan. Yodgorlikning kuyi, ashel davriga oid qatlamlari chegaralangan xajmda ochilgan (3 kv.m.). SHu bilan birga, qazishma ishlarini olib borish jarayonida texnik sabablar (yerosti suvlarining chikishi) ga ko'ra, mavjud madaniy katamlarning barchasi o'tilmagan. Quyi paleolit davriga oid qatlamlar (22 qatlam), o'rta paleolit katamlari (24 katlam) va yukori paleolit qatlamlari (3 katlam) ochilgan. Shunday kilib, yodgorlikning madaniy va stratigrafik o'rganilishi O'zbekiston hududida, Shuningdek, Markaziy Osiyo hududida ham ibtidoiy qadimgi odamning joylashganligini tasdiklaydi va uning mazkur xududni o'zlashtirish faoliyatini boshkarganligining barcha davrlarini o'zida namoyon etadi.

Toshkent vohasi geografik o'rni, ajoyib tabiati sababli qadimgi ovchi, tyermachi va chorvadorlar uchun eng qulay joylardan biri bo'lgan. Buning isboti sifatida vohadan topilgan qadimiy arxeologik yodgorliklarni ko'rsatish mumkin. Bularning orasida qoyatosh rasmlari edg'orliklari o'zining salohiyati bilan ajralib turadi. Bugungi kunda ularning umumiy soni 10000 nusxadan ortiqdir. Bu ajoyib qadimgi san'at asarlari juda jonli va harakatchan holda, bir necha uslubda aks ettirilgan. Ular qadim zamonlardan to keyingi davrlargacha urib cho'kichlangan. Toshkent vohasidagi ba'zi bir qoyatosh rasmlari alohida ahamiyatga ega bo'lib, ular Markaziy Osiyodagi shu xildagi yodgorliklar orasida alohida o'rin tutadi. Vohadan qandaydir xususiyatlari bilan ajralib turuvchi bir necha qoyatosh rasmlar markazlari topilgan va o'rganilgan. Ana shunday qoyatosh rasmlari yodgorliklari qatoriga Xo'jakent, Qoraqiyasoy, Boshkizilsoy, Chotqol, Parakandasoy, Ohangaron va boshqalarni kiritish mumkin (Xo'janazarov, 1995, 7 -b.).

Xo'jakent qoyatosh rasmlari yodg'orligi Toshkent shahridan 70 km shimoli-sharkda, Chotqol tog'larining g'arbiy yonbag'rida va Chirchiq daryosining chap qirg'og'ida joylashgan. Bu yerdagi rasmlar, balandligi 12,5 metr, uzunligi 18 metr bo'lgan, tik ohaktoshli qoyaga urib cho'kichlangan. Qoyaning sirti Chirchiq daryosi yoki shimoli-g'arb tomon yuzlangan. Rasmlar

asosan qoyaning pastki, ya'ni odam bo'yi balandligidagi qismida joylashgan. Qoyaning sirti, shu jumladan, rasmlar ham tabiatning har xil ofatlaridan shikastlangan. Aftidan, bu qoyada qadimda juda ko'p rasm va chizmalar bo'lgan. Chunki qoyadagi rasmlar bir-birlariga nisbatan juda zich joylashgan, undan tashqari bir necha joylarda ular bir-birlari ustiga urib cho'kichlangan. Ko'zga yaqqol ko'rinib turgan rasmlar bilan bir qatorda juda yomon saqlanganlari ham ko'pchilikni tashkil qiladi. Bundan xulosa qilish mumkinki, bu rasmlar turli tarixiy davrlarda chizilgan. Bizning o'rganishlarimiz natijasida Xo'jakent qoya toshlarida 90 dan ortiq alohida va kompozitsion holdagi har xil rasmlar borligi aniqlangan. Qoya sirtiga asosan tog' echkilari, arxarlar, kiyiklar, otlar, itlar, buqa va tushunarsiz rasmlar chizilgan. Bulardan tashqari, Xo'jakent qoyalarida odamlarning rasmlarini ham uchratish mumkin. Rasmlar soya, kontur va oddiy chizikli uslublarda aks ettirilgan.

Xo'jakent rasmlarining deyarli hammasi bir xil urilish texnikasida ishlangan. Avval rasmning shakli, undan keyin butun qismi urib cho'kichlangan. Rasmlarning asosiy kismi tosh, qolganlari esa metall qurollarda ishlangan, lekin ularning usti silliqlangan. Shundan bo'lsa kerakki, ba'zi bir adabiyotlarda bu rasmlar ilohiy mazmunga ega bo'lgani uchun bu yerga kelgan har bir kishi ularning ustini qo'llari bilan silaganlar va natijada ko'p ming yillar davomida ularning', usti silliqlanib ketgan, degan fikrni ilgari surganlar (SHatskiy, 1973, 101 -b.). Lekin biz rasmlarning urilish texnikasini o'rganib chiqqanimizdan keyin, boshqacha fikrga keldik, ya'ni qadimda rasmlar urib cho'kichlangandan keyin, ularning ustini silliklaydigan boshqa qurollardan ham foydalanishgan. Bundan tashqari, rasmlar usti tabiat hodisalari (kuchli yomg'ir va shamol, yerigan qor suvlari) orqali ham silliqlanishi mumkin. Shunday toshlarni o'rgangan olim V.I. Markovinning fikriga qaraganda mayda, zarratoshli ohaktosh tarkibida kum bo'lib, u ancha mustahkam. Bu toshlar muhim silliqlanishga va fizikaviy, kimyoviy o'zgarishlarga egadir (Markovin, 1969).

Demak, aytish mumkinki, silliqlash texnikasining o'zi alohida uslub sifatida ham qo'llanilgan. Bu uslubga tabiat hodisalari yordamchi vosita sifatida ta'sir o'tkazgan. Bunday fikrga kelishimizga sabab — usti silliklangan rasmlar bilan bir qatorda silliqlanmaganlari ham uchraydi. Ularning ko'pchiligi tabiat hodisalaridan kisman bo'lsada yashiringan, ya'ni ular kichik tosh bo'laklari ostida kolgan, Shuning uchun ham yomg'ir yoki shamol juda kuchli ta'sir qilmagan.

Xo'jakent rasmlari turli mavzularga bag'ishlangan bo'lib, kadimgi odamlarning turmushi va diniy tushunchalarini kamrab olgan. Bu rasmlar kadimgi ajdodlarimizning nafis san'ati namunalari bo'lib, tasviriy san'atning ajralmasismi xisoblanadi.

Bu rasmlarning tarixiy ahamiyatga ega bo'lganligi sabablaridan biri — ularning davrlanishi bir necha ming yilliklarni kamrab olganligiga ham bog'lik. eng kddimiy katlam rasmlari miloddan oldingi to'rtinchi va uchinchi ming yilliklar, ya'ni ensolit, davriga tegishlidir. Ularning davrini arxeologiya qazishmalari topilmalari va xudtsi shunga o'xshash boshka joylardan topilgan kadimgi davr rasmlariga solishtirish bilan ham aniklash mumkin. Qoyadagi ba'zi bir rasmlar bronza davrida (miloddan av. II ming yil) urib cho'kichlangan. Lekin ko'pchilik rasmlar sak-skif davrida (miloddan av. I ming yil) chizilgan. YUkorida keltirilgan rasmlarning ko'pchiligi ustiga kadimgi turk va o'rta asr davri rasmlari urib cho'kichlangan.

Xo'jakent rasmlari eneolit, bronza va sak-skif davri odamlarining diniy udumlari, irim-sirimlari sirlarini saklab kelmokda. Fikrimizcha, kadimgi kishilar ma'lum vaktlarda bu mukaddas dargohdagi rasmlari koyalar yonida ibodat kilib, diniy udumlar, irim-sirimlarni bajo keltirgan bo'lishlari kerak. Bunday ma'lumotlarni koyalardagi rasmlarning ma'nosini tahlil kilish davomida kuzatish mumkin. Ba'zi bir rasmlarning diniy ma'nosi bizning kunlargacha o'z mavkeini yo'qotmagan. Xo'jakentlik kekxa kishilarning ganlariga karaganda, bu yerga yakin davrlargacha bolasiz yoki kasalmand ayol va yerkaklar kelishib,

baʼzi bir urf-odatlarini bajarishgan. Bu yerga sigʻinib, jonlik soʻyib kurbonlik qilishgan. Bu xolni mollar kasal boʻlganda xam takrorlashgan. Bunday marosimlardan kolgan irimlarni shu yerdagi daraxtlar shoxiga bogʻlab ketilgan mato parchalari ham isbotlab turibdi. etnografik maʼlumotlarga qaraganda, bunday odat oʻzbek, qirgʻiz, qozok xalklari orasida Yaqin-Yaqinlargacha davom etib kelgan (Abramzon, 1971, 303 -b.). Odamlar rasmlar solingan qoyalar yoniga kelib sigʻinganlar va ularning tushunchasicha bu rasmlarni inson chizmagan (kirgʻizlarda koʻprok, Valixonov, 1961, 477-478 -b.), ular juda kadim zamonlarda chizilgan va ularni dunyoni yaratgan buyuklar koldirishgan.

Shunday kilib aytish mumkinki, Toshksnt vohasida ming yillar davomida qadimgi sanʼat turi boʻlgan koyatosh rasmlari ajdodlarimiz tomonidan majusiylik, sehrgarlik va yana kandaydir diniy tushunchalar maksadida va oʻsha davr kishilarining turmushi, mashgʻulotibilan bogʻlik boʻlgan hayotiy voqealarni aks ettirib kelgan. Bu rasmlar fak atgina kadimgi xalklardan qolgan buyuk sanʼat asarlari sifatidagina emas, balki dunyo xalklari va shu jumladan, Oʻzbekiston tarixi uchun qimmatli arxeologik yodgorlik va tarixiy manba sifatida toshga bitilgan ajoyib yilnoma, yirik arxiv matyeriallari xisoblanadi.

Gominidlarning eng qadimgilari - Avstralopiteklar «insoniyatning beshigi», deb ataladigan Afrika qitʼasida paydo boʻlgan. Yaqin kunlargacha ularning vatani Sharqiy Afrika hisoblanardi. Biroq CHad hududlaridan topilgan va 7 mln. yillar bilan sanalangan yangi topilmalar qadimgi Avstralopitekklarning dastlab Markaziy Afrika hududlaridan kelib chiqqanligini koʻrsatmoqda¹. Avstralopitekklarning baʼzi turlari yer. av. 1 mln. yillargacha yashaganlar.²

Gominidlarning navbatdagi tipi – xomo xabilislar ham Afrikada bundan 2,5 mln. yillar muqaddam paydo boʻlgan. Aynan ular dastlabki mehnat

¹ Wood Bernard 2002. Hominid revelations from Chad. News and views. Journal: Nature Publishing Group, p. 133.

² Lumley H. de et al., 1984. Origine et Évolution de l' Homme. Paris, p. 93.

qurollarini yasagan odamning o'tmishdoshlari hisoblanadi³. Yo`qorida tilga olingan dastlabki gominidlarning har ikkala tiplari ham Afrika qit'asini tark etmaganlar.

Mutaxassislarning fikricha, bundan 2 mln. yillar ilgari, yana o'sha eski dunyoda gominidlarning yangi fizik tipi – xomo yergastyerlar paydo bo'lib, ushbu tip birinchi marta Yaqin Sharq orqali Evroosiyo matyerigiga ilk qadam qo'ygan o'tmishdoshimiz hisoblanadi. Uning qoldiqlari Gruziyaning Dmanissi degan joyidan topilgan va uning davriy sanasi 1,81 mln. yillar bilan sanalangan. Bu hozirgacha Evrosiyo matyerigida ma'lum bo'lgan eng qadimgi topilmadir⁴.

Bundan 1,5 mln. yillar muqaddam gominidlarning yana bir yangi fizik tipi – xomo yerektuslar Afrika va Evroosiyoda keng tarqalgan. Evrosiyoda ularning eng qadimgi qoldiqlari 1 mln. yillar atrofida sanalanib, to 100 000 yillargacha yashab kelgan⁵. Xomo yerektuslar qoldiqlarining fanda eng mashhurlariga Xitoyda Sinantrop, YAva orolida Pitekanthrop, Ozarbayjondagi Azix g'ori topilmalari, Frantsiyadagi Tutavel odami qoldiqlari, Ispaniyadagi Atapurka, Italiyadagi Izyerniya, Gretsiyadagi Petralona matyeriallari va hakovzolari kiritish mumkin.

Farg'ona vodiysidagi Selung'ur g'oridan topilgan manbaviy ashyolar⁶ ham Yo`qorida ta'kidlangan bebaho yodgorliklar jumlasidandir va bu yerda aniqlangan Fyergantrop, ya'ni Farg'ona odami ahamiyati jihatidan ulardan qolishmaydi. Shunday qilib, O'rta Osiyo shu jumladan, O'zbekiston hududlari ham ibtidoiy odam shakllangan va taraqqiy qilgan insoniyat beshiklaridan biridir. YUrtimiz ilk paleolit davrining boshlaridanoq odamning eng qadimgi fizik tiplaridan bo'lgan xomo yerektuslar tomonidan o'zlashtirilganligini 1,5 mln. yillar bilan sanalangan Farg'ona vodiysidagi Selung'ur va 550 ming yillar

³ Leakey R. E., 1981. La naissance de l' Homme. Ed. du Fanal, p. 255.

⁴ Lordkipanidze D., Gagnepain J., 2003. La Géorgie berceau des Européens. Musée de Préhistoire de Gorges du Verdon Route de Montmeyan 04500 Quinson, p. 26.

⁵ Vandermeersch B., 1988. Dictionnaire de la Préhistoire. Universitaires de France, Paris, p. 61 et 516.

⁶ Исломов Ў.И. Крахмал К.А. 1995. Палеэкология и следы древнейшего человека в Центральной Азии. Тошкент «ФАН»,с3-320

bilan sanalangan Toshkent vohasidagi Ko'lbuloqning quyi qatlamlari yorqin misol bo'la oladi.

Selung'ur g'orining 3-madaniy qatlamida oltita alohida tish (3 ta yo`qori qoziq tish va 3 ta pastki jag' tish) topilgan bo'lib, bu tishlar bir nechta turli jinsdagi individlarga mansub bo'lishi mumkin. Shuningdek, Teshiktosh bolasiga Yaqinroq yosh bolaning o'ng elka suyagi topilgan. A. A. Zubovning ta'kidlashicha, Selung'ir odami jag' tishlarning morfologiyasi qator arxaik belgilarini saqlab qolgan, shu bilan birga evolyutsion tarqqiyotda anchayin ilgari ketgan va zamonaviy odamga eltuvchi asosiy magistraldan chetlashgan mavjudot ekanligini ko'rsatadi. Elka suyagi esa, antropologlarning fikricha, Teshiktoshdagi bilan taqqoslanganda ancha arxaik ko'rinishga ega⁷. Shuningdek, Selung'urda ensa suyagining bo'lagi ham topilgan, biroq uning ilmiy talqini nashr qilinmagan.

O'rta paleolit davriga oid Teshiktoshni dunyoga mashhur qilgan narsa bu g'ordan neandertal bola qabrining topilishi bo'ldi. Birinchi madaniy qatlamning tubida yer sathidan 25 sm chuqurlikda ezilgan va deyarli tuproqqa qorishib ketgan bosh chanog'i topildi. Bu bo'laklar deyarli tabiiy ketma-ketlikni saqlagan holatda bir xil sathda yotardi. Keyinchalik 1 madaniy qatlamning tagidagi sof qatlamdan ham odamning parchalangan suyak qoldiqlari: umurtqa, qovurg'a, naysimon suyaklar, kurak suyagi, o'mrov suyagi va pastki jag' bo'laklari topilgan. A.P. Okladnikovning fikricha, odam suyagi qoldiqlari 5-6 ta echki suyaklari bilan o'ralgan holatda yotadi va bu hol unga Teshiktoshda atayin ko'mish udumlari hukm surgan, deyishiga asos bo'ladi. Ushbu qabr Teshiktoshda 1-madaniy qatlamda hayot hukm surgan davrga oid deb topilgan⁸.

⁷ Исламов У.И., Зубов А.А., Харитонов В.М. Палеолитическая стоянка Селунгур в Ферганской долине \\\ BA, вып. 80. 1988, с. 45;

⁸ Okladnikov A.I. Исследование мустьерской стоянки и погребения неандертальца в гроте Тешик-Таш. Южный Узбекистан. (Средняя Азия). Тешик-Таш. Палеолитический человек \\\ МГУ. 1949а, с. 32-42;

Teshiktosh odami o'zining taksonomik holatiga ko'ra qator munozaralarga sabab bo'ldi⁹. Ayrim antropologlar topilmani G'arbiy Evropaning klassik neandertallari bilan Yaqinligini ta'kidlasalar (Debets, Gremyatskiy, Xauelsls va boshqalar), boshqalari Old Osiyo yoki "progressiv" evropa neandertallari bilan taqqoslaydilar (Veydenreyx, YAkimov, Klark, Xauell, Alekseev va boshqalar). Topilmaning yosh bolaga tegishli ekanligi masalaning echimini yanada qiyinlashtiradi. Topilmaning jinsi dastavval u 9-10 yoshlardagi o'g'il bolaga¹⁰, so'ngra shu yoshdagi qiz bolaga tegishli deb etirof etilgan¹¹. Teshiktosh bolasi suyaklari maxsus tekshirishlar natijasida tosh qurollar yordamida ko'mishdan oldin etdan tozalangan¹².

1980-yili Sazag'on 2 makonida 1,2 m chuqurlikdagi madaniy qatlamdan 12-14 yoshlardagi bolaning qabri topildi.

Qabr toshlar bilan yotqizilgan bo'lib, uning Yaqinidan tosh va sopol buyumlar aniqlangan¹³. Marhum janubiy-sharqqa qaratilib, o'ng yonboshi bilan yuzi yerga qaratib qo'yilgan. 1981 yilda bu qabrdan 10 m shimolroqda, o'sha chuqurlikda katta yoshdagi yerkak kishining qabri topildi. Qabrning hajmi 180x100 sm. Marhumning boshi janubiy- g'arbga qaratib qo'yilgan va bu joyda o'raning pastki qismi 160 sm gacha kengayadi. Ushbu kengaytirilgan qismining devori toshlar bilan tyerilgan. Bunday yirik tosh tyerma yer sathidan 70-100 sm chuqurlikdan boshlab amalga oshirilgan. Qabrning umumiy chuqurligi esa, 1,2 m. Qabr bosh qismining 50-70 sm chuqurligida toshlar to'planiganligi aniqlangan. Qabr ustida tosh tyermasining qoldiqlari borligi qayd etilgan.

⁹ Алексеев В.П. Положения Тешик-Ташской находки в системе гоминид // Антропологическая реконструкция и проблемы палеоэтнографии. М.: 1973, с. 56;

¹⁰ Алексеев В.П. Человек. Эволюция и таксономия М.: 1985, с. 5-22.

¹¹ Окладников А.П. Исследование мустьерской стоянки и погребения неандертальца в гроте Тешик-Таш. Южный Узбекистан. (Средняя Азия). Тешик-Таш. Палеолитический человек // МГУ. 1949а, с. 34-43;

¹² Ульрих Г. Искусственные повреждения на ископаемых человеческих костях // XI Конгресс ИНКВА. ТД. Т. 3. М.: 1982, с. 173;

Marhum yuzi yerga qaratib, biroz bukilgan holatda qo'yilgan. Qabrning ustki qatlamidan ko'mir va kul qoldiqlari, pastki qatlamidan oxra va tosh buyumlar topilgan. Bosh chanog'ining antropologik xususiyatlari T. X. Xodjaev tomonidan o'rganilgan. Suyaklar yaxshi saqlanmagan. Bosh chanog'i 35-40 yoshlardagi yerkak kishiga tegishli bo'lgan¹⁴. Uning ayrim xususiyatlari (dolixokraniyasi, uzunchoq va nisbatan kichik yuzi) uni evropoid irqining janubiy shakllariga xosligini ko'rsatadi. Bu topilma avvalambor, Janubiy Tojikiston va Janubi-G'arbiy Turkmanistondagi matyeriallar bilan genetik jihatdan bog'liq. Bu bosh chanog'i Kaltaminor madaniyatiga oid Tumekkichijik qabri bosh suyagidan farq qiladi¹⁵.

Sazag'on 2 dan tozalangan qabr qurilmasi yerlik aholining diniy tasavvurlari haqida fikr yuritish imkonini byeradi. Bu yerdagi qabrning 0,8-1,5 m chuqurligidan yirik ishlov byerilmagan toshlardan tyerilgan doira shaklidagi qurilma topilgan. 3 diametrdagi bu chuqurlikda doiraning ichidan qo'y yoki echkilarning suyak qoldiqlari aniqlangan. O'raning janubiy-g'arbiy qismida, o'sha chuqurlikda qo'y yoki echkinning bosh va oyoq suyaklari topilgan. Ularning joylashuv xususiyatlari bu joyda marosimlar uyushtirilganligi haqida guvohlik byeradi. O'rada mayda ko'mir bo'laklari va oxra qoldiqlari ham bor.

Ushbu madaniyatga oid dastlabki qabr, yoki odam qoldiqlari 1972-yili SHimoliy Turkmanistonning SHohsanam qal'asi Yaqinidan topilgan. U fanda Tumekkichijik qabri nomi bilan mashhurdir. Oradan to'rt yil o'tgandan keyin 1976 -yilda Tolstov neolit makonini o'rganish jarayonida yana ikkita neolit davri qabri borligini aniqlanadi. Ular Tolstov makoni uchinchi uyi hamda Jonbos 4 makoni oralig'idagi taqirda joylashgan. Birinchi qabrning ustki qismi deflyatsiya ta'sirida buzilgan va qum yuzasida chig'anoqdan ishlangan munchoqlar va chaqmoqtosh buyumlar sochilib yotganligi kuzatilgan. Bu topilmalarning chuqurligi 10-12 sm. ni tashkil qiladi. Odam skletining mayda

¹⁵ Джуракулов М.Д., Ходжаев Т.К. Культура и населения неолитической стоянки Сазаган \\\ Вопросы этнографии и археологии (на узб. языке). Самарканд, 1984, с. 27-34;

bo'laklari, chaqmoqtosh buyumlar va chig'anoqlardan ishlangan taqinchoqlar tartibsiz (140x180 sm) xolatda yotganligi aniqlandi¹⁶. Suyaklarning ayrim bo'laklarining joylashuvi marhumning egilgan holatda va shimol-sharq janub-g'arb yo'nalishida ko'milganligi haqida taxmin qilish imkonini byeradi. Odam suyaklari bilan birga yuzga Yaqin chig'anoq munchoqlar, tosh buyumlar va chaplama sopol idishlar siniqlari topilgan¹⁷.

Ikkinchi qabr birinchisidan quyiyoqda va sharqyoqda joylashgan. Ikkala qabr 5-6 sm. li qum qatlam bilan ajratilgan. Sharqdan g'arbga qaragan suyak bo'laklari dog'lari hajmi 160x110 sm. bo'lgan. Bu yerdan topilgan buyumlar uncha ko'p bo'lmasada, birinchi qabrdagi bilan bir xil. Uning topilmalari, jumladan, 150 tacha chaplama sopol idishlar siniqlari (ularning bir qismi chizilgan va o'yma naqshli) va mayda oxra bo'laklari qabr joylashgan yerning g'arbiy qismida joylashgan. Topilgan barcha buyumlar Kaltaminor madaniyatiga xos va Yaqin oradagi Tolstov matyeriallariga o'xshashdir. Jonbos 4 makoni Tolstov makonining tarkibiga kirganligi uchun bu yerda biz makonning hududiga ko'mish holatini ko'rishimiz mumkin¹⁸.

Neolit davriga oid Kaltaminor madaniyatining qabri Ustyurtda ham topilgan¹⁹. Ustyurtning sharqidagi Kaskajol qo'rg'oni qabrini qazishda matyerikdan o'yilgan ikkita o'ra topildi. Ulardan eng qadimgisi (asosiy qo'rg'on osti qabri yer. av. IV-II ming yilliklar bilan sanalangan) qo'rg'on-gacha bo'lgan davrga oid qadimgi o'radir. Bu qabr qo'rg'on qurilishi davrida va keyinchalik qo'rg'on osti qabrini o'g'irlash oqibatida qattiq buzib yuborilgan. Shunday qilib, qadimgi hamda keyingi davr qabrlar matyeriallari aralashib ketgan va ular tadqiqotchilar tomonidan ikkiga ajratilgan. Qadimgi guruhga- kvartsitdan bifasial ishlov byerilgan poynaklar, tsilindr shaklidagi

¹⁶ Виноградов А.В. Охотники и рыболовы Среднеазиатского междуречья. М.: 1981, с. 88-89

¹⁷ Виноградов А.В., Итина М.А., Яблонский Л.Т. Древнейшее населения низовий Аму-Дарьи. Археолого-палеантропологическое исследование. М.: "Наука", 1986, с. 70;

¹⁹ Ягодин В.Н. Памятники кочевых племен древности и средневековья. – в кн.: Древняя и средневековая культура юго-восточного Устюрта. Ташкент. 1978, с. 148-151; Бижанов Е.Б. Первое неолитическое погребение на Устюрте. Ташкент. 1978, с. 250-252.

chig'anoqlar tizimi va taxminan, chaplama sopol idishlarning mayda bo'laklari; ikkinchi guruhga: bronza buyumlarning mayda bo'laklari va qizil loyli sopol idishlarning mayda qoldiqlari kiritilgan. Neolit davri qabrining saqlanib qolgan hajmi tor va uzun (2 m) chuqurligi 20 sm. U shimoliy sharq va janubiy g'arb bo'ylab (35⁰ da) joylashgan. Bu qabrdan topilgan buyumlar O'rta Osiyo neoliti uchun ancha o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Bu to'g'ri yoki o'rtasi o'yilgan shaklli bargsimon poynaklarning ilk bor (7 dona) ko'p uchrashidir. Ushbu qabrning sanasi so'nggi neolit davri bilan belgilanishi mumkin²⁰. Demak, Yo'qoridagi topilmalarning guvohlik byerishicha, neolit davriga oid Kaltaminor madaniyati aholisida ham marhumlarni yerga qo'yishning maxsus marosimlar bilan amalga oshiriladigan ma'lum tizimi mavjud bo'lgan. Qabrlarning janubiy sharq tomonga qaraganligi, ularga xo'jalik va estetik (oxra) buyumlarning qo'shib ko'milganligi shundan dalolat byeradi.

Shunday qilib, O'zbekiston hududlari xomo yerektuslar tomonidan ilk bor o'zlashtirilgan. So'ngra yurtimizga G'arbiy Evropada paydo bo'lgan neandertallar kirib kelganlar. Ma'lumki, neandertal tipidagi odamlar G'arbiy Evropa xomo yerektuslaridan paydo bo'lganlar va keyinchalik butun dunyoga tarqalganlar. Adabiyotlarda bu tipdagi gominidlar bundan 100 ming yillar muqaddam paydo bo'lgan va O'rta Osiyo hududlarini bundan 50-60 ming yillar burun egallaganlar²¹. Teshiktosh bolasining Evropa neandertallari qatoriga kiritilishi buning yorqin misoli bo'la oladi. Demak, O'zbekiston hududlari so'nggi neandertallar tomonidan egallangan. Shuning uchun biz mamlakatimizdagi o'rta paleolit davriga oid matyeriallarni kuzatar ekanmiz, ularda so'nggi muste davriga xos elementlardan: plastinalar va ba'zan mikroplastinalar, mikroqirg'ichchalar va hakoza belgilarni kuzatamiz. Shuni ta'kidlash joizki, Yaqin vaqtlargacha neandertallarni zamonaviy odamning ajdodlari, deb kelgan tadqiqotchilar mavjud edi. Lekin keyingi yillarda Evropa

²⁰ Виноградов А.В., Итина М.А., Яблонский Л.Т. Древнейшее населения низовый Аму-Дарьи. Археолого-палеантропологическое исследование. М.: "Наука", 1986, с. 70;

²¹ Jobere J. Mousterienne en Euroup. Paris. 2001 p. 36;

olimlari olib borgan tadqiqotlarda bu tipdagi gominidlar insoniyat taraqqiyotidagi chetlashgan shaxobcha bo'lib, ular bizning ajdodlarimiz emasligi aniqlandi²². Odamning to'g'ridan -to'g'ri o'tmishdoshi hisoblangan arxaik tipdagi xomo sapienslar esa Yaqin Sharqda bundan 100-80 ming yillar muqaddam yashaganligi aniqlangan. Biroq, yurtimizda ularning izlari hanuz topilganicha yo'q. Lekin ular, albatta, sharqni g'arb bilan va janubni shimol bilan bog'lovchi tranzit yo'l ustida joylashgan hozirgi O'zbekiston hududlarini chetlab o'tganliklariga ishonish qiyin. Keyingi arxeologik tadqiqotlar bunday bo'shliqni to'ldiradi deb umid qilish mumkin.

So'nggi paleolit davri Evropada bundan 35 ming yillar muqaddam, zamonaviy tipdagi odam, ya'ni xomo sapiens sapiensning paydo bo'lishi bilan belgilanadi (orinyak yodgorliklari). O'zbekiston hududlarida paleolitning so'nggi bosqichiga oid yodgorliklar ko'plab topilgan. Ammo, ularning sanasi yo'qori paleolit davrining ikkinchi yarmi va oxirlari bilan belgilanadi.

Mezolit davriga oid paleoantropologik topilmalar yurtimiz yodgorliklarida uchramagan. Biroq neolit davriga oid Kaltaminor va Sazag'on madaniyati makonlaridan topilgan qabrlardagi topilmalar evropoid irqiga mansub. Olingan barcha ma'lumotlar, ibtidoiy davrlarda O'zbekiston hududlarida o'zining kelib chiqishiga ko'ra evropoid irqiga mansub odamlar yashaganligidan dalolat byeradi.

Bu masala ibtidoiy davr arxeologiyasining eng dolzarb, shu bilan birga o'ta munozorali sohalaridan biridir. O'zbekiston hududidagi eng qadimgi yodg'orligimiz Farg'ona vodiysidagi Selung'ir g'ori qatlamlari Toshkentdagi kimyo laboratoriyasida kaliy argon usuli bilan 1,5 mln. yillar bilan sanalangan. Biroq, bir guruh xorijlik tadqiqotchilar hech qanday yetarlicha asossiz ravishda uning qadimiyligiga shubha bilan qarashmoqdalar²³. Ularning fikricha,

²² Vandermeersch B., 1988. Dictionnaire de la Préhistoire. Universitaires de France, Paris, p. 61 et 516.

²³ Ranov V. A., 1988. Dictionnaire de la Préhistoire. Universitaires de France, Paris, p. 1001.; 2. Ranov V. A., 1993. Découverte des civilisations d'Asie Centrale. Les dossiers d'Archeologie №185 /Septembre 1993/. Paris,

Selungo`ning sanasi 250-300 ming yildan oshmaydi. Ular yoshartirilgan ushbu xronologiyaga sabab qilib yodgorlik industriyasi tip-varaqalarining to`liq tasnifi ishlab chiqilmaganligini ko`rsatadilar. Toshkentdagi Ko`lbuloq manzilgohining №3 qazishmasidagi 19 m chuqurlikkacha aniqlangan quyi 22 ta madaniy qatlamlari shubhasiz ilk paleolit davriga oiddir. Biroq ushbu qatlamlardan olingan tosh buyumlarning tip-varaqalari ishlab chiqilmagan hamda qatlamlari bo`yicha absolyut sanalar amalga oshirilmagan. Bu matyeriallar taxminan 550 ming yillar bilan belgilangan. Ammo, ularning geologik holati masalasida munozoralar mavjud<sup>24</sup>. Ko`lbuloqning quyi qatlamlari matyeriallari ilk paleolitga xosligi shubha uyg`otmaydi. Bundan tashqari faqat tipologik jihatdan ilk paleolit davri industriyalari ko`rinishiga ega CHashma, Sox²⁵, Bo`kantog`, Orolbo`yi va boshqa yig`ma matyeriallar ham aniqlangan.

O`rta paleolit davriga oid yurtimizdagi yodgorliklarning katta qismi ochiq tipda bo`lib, pleystotsen davrining iqlim sharoitlari ta`sirida madaniy qatlamlari aralashib ketgan va shu sababli muayyan absolyut sanalash ishlarini amalga oshirishning iloji yo`q. Bunday komplekslar faqatgina texnik-tipologik usullar yordamida nisbiy sanalanishi mumkin. Bunday yodgorliklardan Zarafshon vodiysidagi Qo`tirbuloq manzilgohi o`rta pleystotsenning o`rtalari bilan davrlashtirilgan edi<sup>26</sup>. Biroq 1990 -yilda yodgorlikning madaniy g`orizontlaridan olingan uran uslubiga oid tahlillar uning sanasini 32 ming

p. 6.; 3. Ranov V. A., 1993. Decouverte des civilisations d'Asie Centrale. Les dossiers d'Archeologie №185 /Septembre 1993. Paris, p. 6.

²⁴ Касымов М.Р. Палеолит Средней Азии и Южного Казахстана // Автореф. Дисс. Док. Ист. Наук. Новосибирск. 1990, с. 31; Ранов В.А., Несмеянов С.А. Палеолит и стратиграфия антропогена Средней Азии. Душанбе. 1973, с. 71

²⁵ Исламов У.И. Итоги и перспективы изучения пещерной стоянки Сель- Унгур // Проблемы взаимосвязи общества в каменном веке Средней Азии. Ташкент. 1988, с. ; Исламов У.И., Крахмаль К.А. Комплексные исследования древнепалеолитического пещерной стоянки Сель-Унгур // Раннепалеолитические комплексы Евразии. Новосибирск. 1992, с. 50.

²⁶ Ташкенбаев Н.Х., Сулейманов Р.Х. Древнекаменный век долины реки Зарафшана. Ташкент. 1980, с. 16.

yillar bilan belgiladi²⁷. Ushbu dalilga albatta, ishonish qiyin va bu Qo'tirbuloq qatlamlarining aralashib ketganligini yana bir bor tasdiqlaydi. Bundan tashqari, qatlamlarning aralashib ketganligini to'plamda mayda tosh payraxalarning kamligi, tosh buyumlarning tabiiy ta'sirlar tufayli emirilganligi va o'yib-kyertib ishlangan qurollarning ko'pligi kabi ma'lumotlarham isbotlaydi²⁸. Shunga o'xshash manzaralarni O'zbekistonning o'rta paleolitga oid boshqa ochiq tipdagi manzilgohlarida ham kuzatish mumkin. O'zbekistondagi o'rta paleolitga oid g'or manzilgohlari, nisbatan yaxshi o'rganilgan bo'lishiga qaramasdan, ularning aksariyat qismida absolyut sanalash ishlari amalga oshirilmagan, faqatgina geologik jihatdangina davrlashtirilgan. Masalan, Teshiktosh g'ori qatlamlari o'rta pleystotsenga yoki bo'lmasa, o'rta paleolit davriga oid, deb talqin qilingan. Ammo, o'rta paleolit davri yoki o'rta pleystotsen geologik bosqichi bir necha o'n ming yilliklarni o'z ichiga oladi. Bu hol tosh asri arxeologiya yodgorliklarini aniq davrlashtirishda, ibtidoiy tarixni yozishda va talqin qilishda qator muammolarni keltirib chiqaradi. Toshkent viloyatidagi Obi Raxmat g'ori nisbatan yaxshi o'rganilgan va uning qatlamlaridan bir nechta absolyut sanalar olingan. Bu ma'lumotlar yodgorlikning eng qadimgi sanasi 87 ming yil bilan quyi sanasi esa 36 ming yillar bilan davrlanadi²⁹. Bu makonning yoshi o'rtacha 50 ming qilib belgilangan. Shuning uchun, biz ushbu ilmiy ishda yurtimizda o'rta paleolit davrining boshlanishini, shu paytgacha ta'kidlab kelinganiga qarshi o'laroq, so'nggi neandertallar bilan bog'liq ravishda 60-50 ming yillar muqaddam

²⁷ Shimchak K. et al. Kuterbulak Revisited. A middle Paleolithic Site in Zeravshan River valley, Uzbekistan. *Central Asia - Prohistoric Studies*, Poznan, 2000, vol. 1, p. 135.

²⁸ Сайфуллаев Б.К. Бифасы палеолита Узбекистана // АО 2007 г. Ташкент. 20008, с. 9-12.

²⁹ Деревянко А.П., Исламов У.И., Петрин В.Т., Сулейманов Р.Х., Алимов К., Крвошапкин А.И., Анойкин А.А., Милютин К.И., Сайфуллаев Б.К. Исследования грота Оби Ракмат (Республика Узбекистан) в 1999 г. // Проблемы археологии, этнографии, антропологии Сибири и сопредельных территорий. Новосибирск. ИАЭТ СО РАН, 1999, с. 44; Деревянко А.П., Исламов У.И., Петрин В.Т., Сулейманов Р.Х., Крвошапкин А.И., Анойкин А.А., Милютин К.И., Сайфуллаев Б.К. Ранний верхний палеолит Узбекистана: Индустрия грота Оби Ракмат (по материалам слоев 2-14) // Археология, этнография и антропология Евразии. 4. (8). Новосибирск. 2001, с. 76; Деревянко А.П., Исламов У.И., Петрин В.Т., Сулейманов Р.Х., Алимов К., Крвошапкин А.И., Анойкин А.А., Милютин К.И., Сайфуллаев Б.К. Новые данные о палеолитических индустриях пещеры Пальтау (Республика Узбекистан) // Проблемы каменного века Средней и Центральной Азии. Новосибирск. ИАЭТ СО РАН, 2002, с. 25;

boshlangan, degan talqinni ilgari suramiz. Negaki, O'zbekistondagi o'rta paleolit davriga oid yodgorliklardan, asosan, neandertal tipidagi odamlarning topilishi va ularning G'arbiy Evropa hududlaridan Osiyo chegaralariga bundan 60 ming yillar muqaddam etib kelganliklari haqidagi faktik ma'lumotlarshundan dalolat byeradi³⁰. O'tgan asrning oxirgi o'n yilliklarigacha O'zbekiston hududlarida so'nggi paleolitga oid sanoqligina yodgorliklar mavjud deb hisoblanardi. Bular Samarqand so'nggi paleolit davri madaniyati yodgorliklari hamda Ko'lbuloqning yo'qori uchta madaniy g'orizontlari matyeriallari edi. Keyingi yillarda olib borilgan tadqiqotlar natijasida bu davr yodgorliklarining talaygina ekanligi aniqlandi. Natijada, Angillak³¹, Dodekadim³², punkt №23³³ va Ko'kayoz³⁴ 1, 2, 3 kabi so'nggi paleolitga oid yangi yodgorliklar ochildi. Zarafshon vodiysidagi muste davriga xos deb kelingan Zirabuloq manzilgohi qaytadan o'rganilib, uning to'liq yo'qori paleolitga tegishliligi isbotlandi³⁵. Ta'kidlash kerakki, O'zbekistondagi so'nggi paleolit yodgorliklar dastavval shu davrning boshlari bilan sanalangan edi. Masalan, Samarqand makoni qatlamlari radiokarbon uslub bilan 38 ming yillar bilan sanalangan va bu D.N. Lev tomonidan yodgorlik matyeriallarini 40 ming yil bilan, ya'ni so'nggi paleolitning boshlariga oid, degan fikriga to'liq mos kelardi³⁶. Biroq, bu sana o'sha davrda to'liq asoslanmagan. Keyingi tadqiqotlar makonning sanasini 20-15 ming yillar, ya'ni yo'qori paleolitning ikkinchi yarmi doirasida belgiladi³⁷. Toshkent viloyatidagi Ko'lbuloqning yo'qori (I-III)

³⁰ Jobere J. Mousterienne en Euroup. Paris. 2001 p. 36;

³¹ Сулейманов Р.Х., Майкл Г. Грот Ангиллак на территории Кашкадарьинской области \ \ АО 2002 г Ташкент. 2003, с. 17-23;

³² Деревянко А.П., Исламов У.И., Кривошапкин А.И. Местонахождения Додекатым на Чирчике.

³³ Бруне Ф., Хужаназаров М.М., Сайфуллаев Б.К. Палеолитические находки из Букантау \ \ Отчет о работе Узбекско-французского археологического отряда за 2004 г. 2005, 28-42;

³⁴ Сайфуллаев Б.К., Курбонбоев И.М. Қизилқумдаги палеолит даври устaxonаларини ўрганишга доир (Есен 2, Қорақудук, Шахпахти, Қўкаёз 1, 2 ва 3 материаллари асосида). ИМКУ. № 36. 2008, с. 33;

³⁵ Сайфуллаев Б.К. Палеолит долины реки Зарафшана и Северо-восточных Кызылкумов \ \ Автореф. Дисс. Канд. Ист. Наук. Самарканд. 2003, с. 62;

³⁶ Лев Д.Н. Некоторые итоги археологических исследований СамГУ в 1965 г. \ \ Труды СамГУ новая серия. Вып. 166. Самарканд. 1967, с. 97.

³⁷ Ранов В.А. Памир и проблема заселения высокогорной Азии человеком каменного века \ \ Страны и народы Востока. № 16. 1975, с.; Коробкова Г.Ф. Трасологические исследования каменного инвентаря Самаркандской стоянки (по материалам 1958-1960) \ \ МИА 185. 1972, с. 176;

qatlamlari matyeriallari ham so'nggi paleolitning boshlariga tegishli va u uzluksiz ravishda quyidagi muste davri qatlamlaridan o'sib chiqqan, degan fikr ilgari surilgan edi³⁸. Lekin, keyingi tadqiqotlar bu matyeriallarning so'nggi paleolitning oxirlariga oid ekanligini ko'rsatdi³⁹. Qashqadaryodagi Angillak hamda Toshkent viloyatidagi Dodekadim makonlarining industriyasi ham so'nggi paleolitning so'nggi bosqichlariga xos belgilarga ega.

Shunday qilib, O'zbekistondagi paleolit davri yodgorliklaridan olingan matyerillar va ular haqidagi mavjud adabiyotlarni tahliliy tadqiq qilish natijasida ushbu davr xronologiyasi haqida quyidagi xulosaga kelish mumkin. O'zbekiston hududida ilk paleolit 1,5 mln. yillar muqaddam boshlangan bo'lib, juda uzoq davom etadi. Biroq o'rta paleolit davri hozirgi ma'lumotlarga ko'ra bundan o'rtacha 70-50 ming yillar muqaddam yurtimizga neandertal tipidagi gominidlarning kirib kelishi bilan boshlangan. Odamning navbatdagi tipi - xomo sapiens sapiens esa vatanimiz hududlarini so'nggi paleolit davrida uzlashtirib, shu davrning ikkinchi yarmida keng taraqqiy topgan va aftidan, keyingi mezolit davri madaniyatlarining shakllanishi va taraqqiy qilishi uchun zamin hozirlaganlar⁴⁰.

Mezolit davri yodgorliklari moddiy madaniyat namunalarining guvohlik byerishicha, bu davr O'zbekistonda yer. av. XI-VII ming yilliklarni qamrab oladi. Ammo dunyo tasnifida o'rta tosh asri yeramizdan avvalgi 12 ming yilliklardan boshlanadi. Quyida biz O'zbekiston mezolit davri yodgorliklarining madaniy davriy jadvalini tuzib chiqdik (jadval №2). Unga ko'ra aytish mumkinki, O'zbekiston hududlari ilk mezolit davridanoq ibtidoiy qabilalar tomonidan o'zlashtirilgan. eng avvalo yurtimizning shimoliy- sharqiy hududlari, ya'ni Farg'ona (Obishir madaniyati) hamda Toshkent vohalarini (Qo'shilish) o'zlashtirilgan. Keyinchalik, mezolit davrining o'rtalaridan boshlab, Zarafshon

³⁸ Джуракулов М.Д. Каменный век долины реки Зарафшана \\\ автореф. Дисс. Докт. Ист. Наук. \\\ Самарканд. 1990, с. 30;

⁴⁰ Kabirov Dj. Naskalnie izobrajeniya Karatau. AO, 1970 g. M.: izd-vo "Nauka". 1971.

daryosi vodiysi Chorbaqti makonlari (Sazag'on 1) va Surxondaryo (Ayrtom, eski Tyermiz, Machay), Ustyurt va Qizilqum hududlari o'zlashtirilgan.

II.bob. Selung'ur g'or makonning mamlakatimiz ilk tarixini o'rganishdagi ahamiyati.

O'rta Osiyo xalqlari tarixini ming asrga teng ekanligini isbotlangan edi. Ammo, bu holi ona xalqimizni ilk tarixi haqidagi oxirgi so'z emas edi. Oradan yillar o'tib, o'z milliy kadrlarimizdan etishib chiqqan mutaxassis arxeolog olimlarimizni tinimsiz izlanishlari va ularni Ona- Vatanimiz tarixiga alohida mehr-muhabbat tuyg'ulari bilan qarashlari tufayli ajdodlarimiz tarixi arxeologik ma'lumotlarga suyanan holda 100 ming yildan 1 mln yilga etkazildi.

Bunday ulkan yutuq O'zbekiston Fanlar Akademiyasining akademigi, tarix fanlari doktori arxeolog olim O'.Islomovning Farg'ona vodiysining Selung'ur G'oridan topilgan eng qadimgi ajdodlarimizning makonida uzoq yillar davomida arxeologik qazish ishlarini olib borishi natijasida qo'lga kiritildi. O'zining arxeologik topilmalari tufayli juda katta tarixiy ahamiyatga molik bo'lgan bu yodgorlikda O'.Islomovning ustози bo'lgan akademik AP.Okldadnikov uch marotaba ya'ni, 1955,1960, 1964 yillarda bo'lib, shu Selung'ur G'orini o'ng tomonida bu makonni qaysi davrga mansub ekanligini aniqlash maqsadida tekshiruv shurfini solgan edi.

Natijada, birinchi marotaba bu g'orda bir necha uchirindilar topilib, ular paleolitni so'nggi davri hisoblangan.

Yo`qori paleolitga mansub deb topilgan edi. (Okldadnikov, Leonov, 1961.) A.P.Okldadnikovdan so'ng Haydarxon atroflarida qadimgi ajdodlarimizni ilk bor o'rnatishganliklari tarixi bilan YA.G'.G'ulomov boshchiligidagi Farg'ona paleolit otryadi katta ishlarni qildi.

1960 yillarda bu otryad tomonidan mezolit davriga oid Obishir I va V topildi. Bulardan tashqari 28 ta g'or ko'rib chiqildi. 1980 yillardan boshlab, O'.Islomov boshchiligidagi O'zR FA ga qarashli arxeologiya institutining

poleolit otryadi Selung`ur G`orida qazish ishlarini olib bordi, faqat O'zbekistonimiz uchun balki, butun O'rta Osiyo respublikalari uchun ulkan tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan qator yangiliklar yaratildi.

Shuni aytish joizki, so'nggi yillarda jahondagi ko'zga ko'ringantaniqli arxeolog olimlarimizning ko'pchiligi odamni paydo bo'lishi va uni tarqalishidek g'oyat muhim va yuksak ahamiyatga molik bo'lgan muammoni hal qilishga astoydil kirishdilar. Garchi, bu masala bilan XX asrning 60 yillarida nazariy jihatdan yondoshilgan bo'lsa ham hozirgi kunlardagidek, amaliy jihatdan tahlil etilmagan edi.

Shuning uchun ham 1970 yillarga qadar barcha darsliklarda va ilmiy risolalarda yer yuzida odamning paydo bo'lishi bir 1 million yilga teng degan fikr to'la hukmron bo'lib kelgan edi. Bunday fikrni yuzaga kelishiga asosiy sabab, Frantsiyani Shell va ashell manzilgohlari eni topilgan insoniyatning qadimgi ajdodlari hisoblangan arxantrop-larni (arxantrop-lar deyilganda quyi paleolit davrida yashab o'tgan odam zotini ajdodlari tuShuniladi) mehnat qurollarini ko'plab topilishi bo'lgan edi. Bunday mehnat qurollarini arxeologiya fanida « Ruchnoe rubilo» (qo'l chopqisi) deyilgan. Bu hildagi qo'l chopqilarini arxeologlar bodom va yurak shakliga qiyoslab, syertsevidnoe, mindalevidnoe orudiya deb ataganlar. Chunki, ularning tashqi ko'rinishlari haqiqatdan ham bodomsifat va yuraksifat bo'lgan.

1960 yillarga qadar arxeologlar bu qo'l chopqilarini xronologik jihatdan ikki davrga: Shell va ashell davriga bo'lganlar. Shell davriga oid qo'l chopqilarini 800 - ming yildan 500 ming yilgacha, Ashellga oidlarini 500 mingdan 80-100 ming yilgacha ya'ni mustegacha bo'lgan davr bilan belgilaganlar. Bu xildagi qadimiy mehnat qurollarini davrlarga bo'lganlarida arxeologlar ko'proq ularning vazniga e'tibor byerganlar. Shell qurollarining vaznlari 0,5 kg dan 1 kg gacha bo'lsa, Ashell qurollarining vazni 0,5 kg dan 300 gr gacha bo'lgan. Ammo ularning yasaliş texnikalari asosan bir xil bo'lgan. Bu borada juda uzoq yillar davomida tajriba ishlarini olib borganlar.

S.A.Semenov (Semenov, 1964) ning fik-riga ko'ra ibtidoiy odamlar Shell va Ashell xildagi qo'l chopqilarini yasashlaridan oldin, ana shu qurollarini yasalishi uchun qulay shaklga ega bo'lgan tosh parchalarini tanlaganlar. Bunday tosh parchalari ko'p holatlarda yapaloqroq qiyofaga ega bo'lganlar. Chunki bu xildagi xom ashyolarning yon tomonlaridan tosh boltalar yordamida urib, uchirib ishlov byerish ancha qulay bo'lgan (tosh bolg'a deganda og'irligi 0,5 kg dan oshmagan oddiy qayroq tosh tushuniladi).

Rus tilida bu tosh bolg'alar otboyniklar deyiladi. Bu xildagi otboyniklar yordamida nafaqat qo'l chopqilarini yasashda balki, tosh o'zaklaridan zarb bilan urush natijasida turli hajmdagi uchirindilarni olishda ham keng miqyosda foydalanganlar. Shell va Ashell davrida paydo bo'lgan mexnat qurollarini qo'l chopqilari deyishlariga sabab ana pgu mehnat qurollarini bir tomoni bodomnikigao'xshab, to'mtoq ammo qo'l bilan ushlash uchun qulay bo'lgan. Ikkinchi, qarama-qarshi tomoni esa, o'tkir uchli bo'lib, bu tomoni kesish, chopish, kovlash kabi vazifalarni bajargan. Bu mehnat qurollardan kundalik ishlarini bajarilishida, odamning qo'li dasta rolini ham bajargan.

Shuning uchun ham arxeologlar ularni qo'l chopqilari deb atashgan. Bu qo'l chopqilarining paydo bo'lishi 800 ming yil bilan belgilangan bo'lsada, ularni bir million yil deb fanga kiritilishining sababi, yana bulardan ko'ra qadimiyroq davrga ega bo'lgan yodgorlik topilib qolishi mumkin, degan mulohaza bo'lgan. Bunday xulosalarga kelingan o'sha davrda ham Afrika qitasi mukammal darajada o'rganilmagan edi. Shuning uchun ham butun yer sharida inson tarixi bir million yil bilan belgilangan edi. Ammo, so'nggi yillardagi angliyalik arxeolog olimlar tomonidan Afrikaqitasini aniqrog'i, efiopiya mamlakatining Vest-Gona yodg'orligini o'rganilishi bu makon arxantropolarining suyak qoldiqlari hamda mehnat qurollari tarixini ya'ni, inson tarixini uch million yil bilan belgiladi. Bizning O'rta Osiyo hududimizda Teshiktosh G'oridan so'ng uzoq yillar davomida undan ko'ra qadimiyroq arxeologik yodgorlik topilmagani tufayli inson tarixi 80-100 ming yildan nariga o'tmay

qolavyerdi. Ammo Teshiktosh G`ori topilganidan so`ng 50 yil o`tgandan so`ng O`.Islomov tomonidan Selung`ur G`orini mukammal darajada o`rganilishi nafaqat O`zbekistonimiz, balki butun O`rta Osiyo xalqlari uchun jahonshumul tarixiy ahamiyatga ega bo`ldi. Bu regionda inson tarixi 80-100 ming yildan 1-1,2 millionga uzaytirildi. Teshiktosh g`oridan ko`ra, qadimiyroq yodgorlikni uzoq yillar davomida topilmagani sababli, O`rta Osiyodagi muste davri odamlarini kelib chiqishlarini ko`proq Old Osiyoga bog`lovchilar paydo bo`la boshladi. Bu borada Shuni alohida takidlash joizki, tadqiqotchilarning ko`pchiligi, ayniqsa, O`rta Osiyo hududida arxeologik ishlarni olib borgan rus arxeologlari har qanday madaniyatni o`rganar ekanlar, albatgauni uzluksiz ravishda rivojlanib borishiga shubha bilan qarab, u yoki, bu madaniyatni chetdan ko`pincha Old Osiyodan kelishganini isbotlashga urinadilar. O`.Islomovning 1980 yiddan 1988 yilgacha Selung`ur G`orida olib borgan arxeologik ishlarini eng qimmatli tomonlaridan biri shundaki, hozirgi kunda O`rta Osiyo hududida yashab kelayotgan xalqlarimiz tarixni qadimiy iddizlarini umumiyligini, uzluksiz ravishda taraqqiy etib kelganlar, Tepshktosh odamlari Old Osiyodan kelib qolgan kelgindilarning avlodlari emasligini balki, azaldan shu O`rta Osiyo regionida paydo bo`lgan arxantropalar, aniqrog`i, Fyergantropalar avlodlari ekanliklarini arxeologik ashyolar asosida isbotlab byerilishi bo`ldi.

Selung`ur g`ori Farg`ona shahridan taxminan janubi-g`arbda haydarkonining g`arbiy chekkasida joylashgan bo`lib, bu ulkan g`orning ichkari tomon uzunligi 120 , enining kengligi 34, ba-landdigi esa 25 metrni tashkil etidi. G`arbda O`.Islomov tomonidan o`rtacha kalinliklari 20-40 sm dan iborat 5 ta madaniy qatlamlar aniqlangan. Bu 5 ta madaniy qatlamlarning har biri bironta ham arxeologok topilmaga ega bo`lmagan toza tabiiy qatlamlar bilan ajratilgan holda saqlangan.

Bu tabiiy qatlamlarning qalinligi 30 sm dan 1 metrgacha bo`lib, o`rtacha qalinligi 60-70 smni tashkil qiladi. Demak mazkur g`ordan ajdodlarimiz o`z makonlarini 5 marotaba uzoq vaqt mobaynida tark etib yashaganlar. Bunday

fikrni to'g'ri ekanligini g'ordagi 5 ta madaniy qatlam bilan birga 5 ta tabiiy qatlamlarning mavjudligi o'z-o'zidan tasdiqlaydi. Bu madaniy qatlamlardan topilgan toshdan yasalgan mehnat qurollari: qo'l chopqisi, to'mtoq boltalar, pichoqsimon qurollar, ko'plab tishli qurollar, qush tumshug'iga o'xshash qurollar qazib olindi.

Bularning barchasi tabiiy jins parchalari va siniqlardan tayyorlanganliklari aniqlandi. Selungo'ring 5 - qatlamida topilgan o'sha zamon hayvonlarining suyak qoldiklarini ayniqsa odam arxantrop qoldiqlarining byuoy kolleksiyasini topilishi bu yodgorlikning yanada qimmatini oshirdi.

Chunki bunday holat O'rta Osiyo hududida kuzatilmagan yangiliklardan biri hisoblanadi. Selungo'ring 5 - qatlamida topilgan qo'l chopqisi, boshqalari orasida o'ziga xos xususiyatlari, yani aynan Ashell qo'l chopqilarini yorqin ifodalovchi tomonlari bilan ajralib turadi. Bu qo'l chopqisi qizil yashma toshidan tayyorlangan bo'lib, uning yon tomonlaridan otboy-niklar yordamida bir necha uchirindilarni urib uchirib ishlov byerilgan. Natijada bu mehnat quroli o'zining yon tomonlarida nisbatan yirik uchirindilarni uchirib olinganligidan dalolat byeruvchi izlarni qoldirgan.

Mayda uchirindilarni izlari ko'rinmaydi. Bu xildagi qo'l chopqilarni tashqi ko'rinishidagi o'ziga xos xususiyatlari shundaki, ularga har ikkala yuzasi tomonidan ishlov byerilmay balki, faqat bir tomondan shshyuv byerilgan. Bu xiddagi qo'l chopqilari har ikki tomonidan ishlov byerilgan. Qo'l chopqilariga nisbatan, ancha qadimiy hisoblanadi. Shuni aytish kerakki, bu xildagi mehnat qurollarini 1960-1970 yillarigaqadar Shell davrining qo'l chopqrshari, ikki tomonlamaishlov byerilib ancha ixchamlashganlarini esa Ashell davrining qo'l chopqilari deyilar edi. So'nggi yillarda Olduvay davri yodgorliklarining ko'plab topilganligi natijasida arxeolog olimlar ularni Shell va Ashell davrlariga ajratmay, endi Olduvay va Ashell davriga ajratadigan bo'ddilar. Selungo'ring 5 ta qatlamidan topilgan, bu qo'l chopqisi Ashell davriga mansub bo'lib uning shakli nayzasimondir.

Bu mehnat quroli O'rta Osiyo hududida topilgan birinchi va eng qadimiy ilk ajdodlarimizning ilk bor ishlatgan haqiqiy qo'l chopqisidir.

Arxeologiya fani uchun juda noyob bo'lgan boshqa bir tosh qurol Selungo'ning 4 qatlamidan topilgan og'ir va to'mtoq tosh boltadir. Uning yasash texnikasi ancha primitiv bo'lishiga qaramayunga ishlov byerilishi niyahoyasiga etgan mehnat qurollaridan hisoblanadi. Unga otboynik yordamida ishlov byerilgan ishchi qismida uchirindilardan qolgan izlar yaqqol ko'zga tashlanib turadi. Bu mehnat qurolining pastki qismiga ishlov byerilmagan bo'lsada, uning bir qancha kemtiklari bo'lib bu uning ajdodlarimiz tomonidan uzoq vaqt mobaynida ishlatilganidan dalolat byeradi. Shunday qilib, Selung'ur g'or manzilgohini tosh qurollari haqida xulosa qilib, pguni aytish kerakki, bu yodgorlikning madaniy qatlamlarida qo'l chopqilari, qadimiy tosh teshalar hamda qayroq toshlardan bir tomoni urib uchirilib maxsus yasalgan va ishlatilgan choppyerlar birgalikda uchraydi. Demak bularning barchasi bir vaqtda o'zida ya'ni parallel ravishda ishlatilganlar.

Taniqli Frantsuz arxeolog olimi F.Bordning fikricha, hind subkontinenti hamda Yaqin Sharqda tarqalgan janubiy Ashell qadimiy arxeologik poleolit madaniyatidir.

Shuni aytish joizki, shu vaqtga qadar Markaziy Osiyo hududida Ashellning faqat shimoliy turlarigina uchrab kelgan

Selung'urning topilmalari esa, Ashellning janubiy turiga mansub bo'lgan ilk yodgorliklar turiga kiradi. Shuning uchun ham Selung'ur noyob yodgorliklar qatoridan joy oladi. G'arbiy Gyermaniyaning Keln shahrida yashovchi arxeolog olim, professor Basinskiyning fikricha Selung'ur tipidagi arxeologik yodgorliklarining yoshi Gyermaniyada 800 ming yil bilan belgilanadi. Selung'ur g'oridagi madaniy qatlamlardan jami 5 mingdan ziyod suyak qoldiqlari topilgan. eng muhimi ikkinchi madaniy qatlamdan odam bosh suyagi engak qismini bir bo'lagi hamda to'rtta tishi topilgan. Uchinchi madaniy qatlamdan esa, yakka holda 10 ta tish va odam elka suyagining bir bo'lagi

topilgan. Atropolog olimlarimizni bu qadimiy odam suyaklarini o'rganilipsh, bularni barchasini arxantropplarga ya'ni, ashell odamlariga tegishli ekanligini ko'rsatadi. Bu suyak qoddliqlarini engak bo'lagi hamda bosh suyagi kosasining bo'laklari hozirgi kungacha o'rganilib kelinmoqda. Hozirgacha bular haqida oxirgi xulosalarga kelingani yo'q. Uylaymizki, bu topilmalarni antropologlarimiz tomonidan hozirgi fan yutuqlari asosida o'rganilishining yakuni bu arxantropplarni taraqqiyot bosqichida qanday o'rin tutilishi haqida oxirgi fikrni aytilishiga imkon byeradi. Bu yerda topilgan tishlar to'rtta shaxsga mansubligi aniqlangan. SHulardan biri pastki tish bo'lib, 40 yoshlardagi ayolniki bo'lgan degan fikrga kelinmoqtsa. Uchta pastki tish uchinchi shaxsga tegishlidir. Haraktyerlisi shundaki, topilgan mazkur tishlarning birontasida (karies) tishni chirish ham alomatlari bo'lmagan. Kezi kelganda Shuni alohida ta'kidlash joizki. boshqa fanlar qatori antropologiya fani ham shu darajada rivojlanish cho'qqisiga ko'tarilganki, hozirgi antropologlar eng qadimgi odamlarning suyak qoldiqlariga qarab u yoki bu suyak qoldig'ini egasi necha yoshda bo'lganligi, jinsi ayol bo'lsa faqat uning bo'yi - basti haqida emas balki uning nechta tuqqanpigigacha ma'lumot byera oladi.

Tishlar tuzilishining tahlili Selung'ur topilmalarining boshqa qazilma odamlari bilan munosabatlarining aniq hamda ishonchli bo'lgan manzarasini namoyish etadi.

Selung'ur topilmasini qadimgi odam turi vakillari bilan qiyoslash natijasida shu narsa ma'lum bo'ldiki, Selung'urdagi topilma poleantrop hamda arxantropplar o'rtasidagi oraliq holatini egallab, bundan taraqqiyotning umumiy yo'nalishidan ancha chetga chiqqan. Olimlarning fikrlariga ko'ra bu arxaik tuzilishning saqlanishi Selung'urliklarni dag'al o'simlik ozuqasiga tor miqyosida odatlanganliklari bilan bog'liqligidir.

Selung'ur odamining o'zigaxos holati antropolog A. Zubovning fikricha, oraliq holati bo'lib, u arxantropdan hozirgi odamgacha bo'lgan tadrijiy taraqqiyot yo'lida turmay chamasi arxantropning ixtisoslashgan mahalliy

turidirki, u bir tomondan g'oyat ko'hna xususiyatlarini, ikkinchi tomondan esa o'ziga xos tarixiy rivojlanish yo'lidan birmuncha ilgariylan. Mavjudlarning ayrim xususiyatlarini o'zida saqlab qolgan Selung'ur topilmalari arxantrolarning tarqalish ko'lami nechog'lik kengligini va uning mahalliy turlari naqadar ko'pligini yana bir bor namoyish etadi. Selung'ur topilmalari asosida vujudga keladigan yana bir muhim xulosa shuki, arxantrolar (g'arbiy va sharqiy) shoxobchalarning tarqalish makonlari o'rtasidagi geografik uzilish avval taxmin qilinganidek yetarli katta emas ekan.

Biroq, arxeologik ashyolar tahlilidan kelib chikib Shuni aytish mumkinki, poleotrolarning bu turi osiyolik Xomo Sapines hozirgi aqli odamning ajdodlaridan biri bo'lishi mumkin deyishga imkon byeradi. Selung'urdan topilgan odam sujarining qoldiqlaridan biri 10 yashar bolaga taallukli bo'lib, uni har tomonlama o'rganilishi va Teshiktosh g'orini 8 yashar neondyertal bolaning suyak qoldiqlari bilan qiyoslanishi Selung'ur bolasining suyak qoldiqlari anchagina kadimiy ekanligini ko'rsatdi.

Hozirgi qadar Selung'ur g'orining madaniy qatlamlaridan 32 turida sut emizuvchi hayvonlarga taalluqli 5 mingdan ortiqroq suyak qoldiqlari aniqlanib tadqiq etildi. Hayvonot qoldiqlarini ilmiy tadqiq etilishi asosida Selung'ur hayvonot kompleksini ajratishga muvaffaq bo'lindi. Bu kompleks morfologik belgilari hamda arxaikligi (moddiy va qadimiyligi) bo'yicha ilk pleystotsen davri oxirlariga mansub degan fikrdamiz. Selung'ur kompleksini ilk pleystotsenning birinchi yarmiga mansub bo'lgan Qozog'istondagi Qo'shqo'rg'on kompleksi bilan qiyoslash mumkin. Ana shu hayvonot qoldiqlari orasida yirtqich tuyoqli va kemiruvchi hayvonlarning turlari ustunlik qiladi. Bulardan dasht va ochiq landshaftli yerlaridagi turlari ko'pchilikni tashkil qiladi. G'or ayig'i, bo'ri, g'or arsloni, g'yonasi, karkidoni, bug'ilari, otlari, pleystotsen eshagi, to'ng'iz har turli ke-miruvchilarning qoldiqlarini mavjudligi issiq va quruq iqlim bo'lganligidan dalolat byeradi. Binobarin dasht, chala dasht mavjud bo'lgan qadimiy daryolar o'zani hamda tog' yonbag'irlari bo'ylab buta va

o'rmon o'simliklari barq urib o'sgan. Yo`qoridagilardan bayon qilinganligidan ko`rinib turibdiki, Selung`ur manzilgohining hayvon suyaklari xronologik jihatdan ilk pleystotsen davriga to`g`ri keladi. Selung`ur g`oridan topilgan barcha topilmalarni mukammal o`rganish maqsadida imkonimiz qadar barcha mutaxassisliklarni jalb qilishga harakat qildik. Bu borada tuproqshunoslik va agroxiimiya institutining xodimlari organik moddalarni tadqiq qilish asosida qilingan xulosalari ham katta ahamiyatga ega bo`ldi. Ularning Selungo`rning beshta madaniy qatlamini o`rganishlarining natijalari ham bu qatlamni yoshini bir million yil bilan belgilashga olib keldi.

Shuni aytish joizki, Selung`ur matyeriallarini nafaqat arxeologik jihatdan balki, foydasi tegishi mumkin bo`lgan, barcha sohadagi mutaxassis olimlarimizni o`rganishga jalb qilmoqdamiz. Natijada qo`limizda ancha qimmatli xulosalar to`plandi. Ammo shunga qaramay, bu yodgorliklarni nafaqat bizning O`zbekistonimiz, balki O`rta Osiyodagi barcha xamdo`stlik mamlakatlari uchun ham nihoyatda noyobligini hisobga olib, uning boy materiallarini analizlari o`zimizdan tashqari chet el laboratoriyalarida ham rivojlantirganmiz. Bunday ishlar hozir ham olib borilmoqda. Yaqinda Pekin dorilfununining professori Chen Tilek bizga maktab yo`llab Selung`ur matyeriallarini o`rganishda hamkorlik qilish istagini bildirdi. Selung`ur matyeriallarini tadqiqot natijalarini olganimizdan so`nggina biz yodgorlikning mutloq yoshi haqida o`z fikrimizni qat`iy tarzda aytishimiz mumkin bo`ladi.

Hozirgi kunda faqat shunday fikr yuritish joizki, O`rta Osiyo terrytoriyasi ilk plestsen davrida ibtidoiy odamlar tomonidan o`zlashtirilgan. Agar buni raqamlarga aylantiradigan bo`lsak bu bizni ajdodlarimiz tarixini bir million yil bilan belgilaydi.

Amerikalik mashhur mutaxassis Richard Devis Samarqandda Selung`ur kolleksiyalari bilan tanipshb chiqib, mazkur yodgorlik sanasi haqida u ham shunday xulosaga keldi. Hozirgi davrga kelib, Janubiy Farg`ona vohasi uchun katta miqdorda poleobotanika sohasidagi matyeriallarning analizi yetarli

darajada to'planib, ular ilk antropogen haqida mukammal ma'lumot-larni byermoqda. Masalan: tarixiy geografik geologiya tarixi, landshaftlarni o'zgarish jarayonlari va tarixiy davrlashni shu yig'ilgan matyeriallar asosida tadqiqot qilib, butun tarixiy jarayon yoritib byermoqda. Sslungur manzilgohidagi kompleks tadqiqotlar pgu yodgorlikdagi qatlamlarda o'simliklarni uchlamchi florini Turgay tipiga oidligini isbotladi. Bu esa o'z navbatida manzilgohning madaniy qatlamlari qadimda paydo bo'lib, bundan 1 million 200 ming yil avvalgi davr bilan bel-gilanadi degan ma'lumotni byeradi.

Bundan tashqari, xronologik belgilarni aniqlash maqsa-dida polezoologik izlanishlar natijasi asos qilib olindi. Selung`ur manzilgohidan topilgan hayvon suyaklarini tadqiqoti natijasida 31 Oloy treokompleksi turlari bslgilandi. Natijada bu hayvonlar turlari pliotssntdan plsystotsenga o'tish davridagi hayvon turlari bo'lib chiqdi.

Shu tadqiqot natijasida qadimgi davr tabiiy sharoitini, obi-havosini xronologik davrini aniqlashgayerishildi.

Bu xronologik davrlashishga geologik tadqiqot ham juda zarur edi. Shuning uchun ham bor qatlamlar tarkibini qanday paydo bo'lganini, tektonik strukturasini o'rganib qator kimyoviy analizlar o'tkazdik.

Ular geoximik, gronulomotrik, pidologik analizlar bo'lib, Selung`ur manzilgohi Yo`qorida pliotssent davriga oidligini isbot qilib byerdi. SHu qilingan tadqiqotlar natijasi o'laroq va topilgan tosh qurollar bilan taqqoslash nati-jasida Selung`ur manzilgohini yoshi 1 million 200 ming yil bilan belgilashga asosimiz bor deyish imkoniga ega bo'ldik.

Yo`qorida bayon qilingan ma'lumotlarimiz asosida quyidagi xulosalarga keldik:

1. Nafaqat bizning O'zbekistonimiz, balki butun O`rta Osiyodagi ajdodlarimizning ilk tarixi 1938 yilda A.P.Okladnikov tomonidan topilgan, neondyertal odamlarning makoni bo'lgan Teshiktosh g`oridan, ya`ni muste davridan boshlanmaydi, balki Farg`ona vodiysida joylashgan va quyi poleolit

davriga mansub bo'lgan Fyergantrolarning makoni Selung'ur g'oridan boshlanadi. Demak, ilk tariximizni tamal toshlari ilk bor ajdodlarimiz tomonidan Selung'ur g'orida qo'yilgan bo'lib uning yoshi XX asrning birinchi yarmida aytilganidek 80-100 ming yil bilan emas, balki, 10 karradan aniqrog'i 1 million 200 ming yil bilan belgilanadi. YAnada aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, bizning ilk tariximiz poleantrolar davrida emas balki, ilk bor Selung'ur g'orida paydo bo'lgan arxantrolardan boshlanadi.

2. Hozirgi O'rta Osiyo xalqlarining ajdodlari Old Osiyodan kelib o'rnamshib qolganlar va so'ng muste davri madaniyatini yaratganlar degan ayrim odamlarning fikrlari mutlaqo noto'gri, g'ayri ilmiydir. O'rta Osiy xalqlarining ajdodlari, ilk bor Farg'ona vodiysida paydo bo'lgan va azaldan ular-ning avlodlari uzluksiz ravishda yashab kelmoqda. Bu borada boshqacha fikrning bo'lishi mumkin emas. Chunki Yo`qorida bayon qilganimizdek, Selung'ur, Teshiktosh, Samarqand makoni kabi yodgorliklarni rad etib bo'lmas darajada byergan ma`lumotlari bizning fikrimizni to'la tasdiqlaydi.

Ma`lumki, hozirgacha ibtidoiy davr tarixi sohasida gominidlarning paydo bo'lishi va shakllanishi borasida ikki xil ilmiy qarash mavjud. Ularni monotsentrik va paleotsentrik nazariyalarga ajratish mumkin. Monotsentrizm nazariyasi asoschilari dastlabki odam ajdodlari Afrika qit`asida paydo bo'lgan va keyinchalik dunyoning boshqa hududlariga tarqalgan, degan fikrni ilgari suradi. Bu nazariya fanda "Nuh kemasi" nomi bilan mashhurdir va ushbu fikr tarafdorlari ko'hna qit`adan topilgan va topilayotgan hamda boshqa hududlarda uchramaydigan gominidlarning eng qadimgi tiplari (avstrolopiteklar, xomo xabilislar) qoldiqlariga asoslanadilar. Hozirda bu nazariya jahon arxeologiya fanida hukmron g'oya hisoblanadi. Paleotsentristlar esa, Evroosiyo hududlaridan topilgan ilk paleolit davri yodgorliklarining bir bosqichdan ikkinchisiga "uzluksiz" ravishda taraqqiy qilib borishiga asoslanadilar. Bu nazariya fanda "kandelyabr" yoki "chilchiroq" g'oyasi nomi bilan shuhrat qozongan. Shuni ta`kidlash joizki,

ko'hna qit'a ya'ni, "Nuh kemasi" yoki monotsentrik nazariya keyingi topilmalar bilan yanada mustahkam ildiz otib bormoqda. So'nggi yillarda paleoantropologiyadagi kashfiyotlar, ya'ni Markaziy Afrikadan (CHad) topilgan, arxaiik tipdagi 200 ming yillar bilan sanalangan zamonaviy odam qoldiqlari nafaqat eng qadimgi, balki zamonaviy odamlarning ilk shakllari ham shu ko'hna zaminda paydo bo'lganligini ko'rsatmoqda⁴¹. Ibtidoiy odamning eng qadimgi tiplari xomo xabilislar Evroosiyo matyerigidan hali topilganicha yo'q, biroq xomo zotining keyingi tiplari xomo yergastyerlar hamda yerekteslar bu qit'ani to'la egallaganlar. Evroosiyoning boshqa ko'p hududlari singari O'zbekiston zamini ham ilk paleolit davrining boshlarida xomo yerektuslar tomonidan o'zlashtirilganligi yurtimizdagi arxeologik yodgorliklar matyeriallari asosida o'z isbotini topmoqda.

O'zbekiston hududi yer shari miqyosida insoniyat dastlab shakillangan mintaqalar sirrasiga kiradi va madaniyat markazlaridan biri xisoblanadi. Evroosiyo hududlarida bo'lgani singari yurtimiz tarixi ham paleolit yoki qadimgi tosh davridan boshlanadi. Mamlakatimizda shu davrga oid qator makonlar qayd etilganva o'rganilgan. Ular qatoriga Farg'ona vodiysidagi Selung'ur, Chashma, Toshkent viloyatidagi Ohangaron daryosi vodiysidagi Ko'lbuloq va Qizilolma yodgorliklarining quyi qatlamlari, Jarsoy topilmalari hamda Qizilqum hududlaridagi Bo'kantog' kabi yodgorliklarni kiritish mumkin. SHulardan eng ahamiyatlisi Selung'ur g'ori hisoblanadi.

Selung'ur g'ori So'x daryosi vodiysida, Qirg'izistonning O'zbekiston bilan chegaradosh bo'lgan Haydarkon qishlog'i chekkasida dengiz sathidan 2000 m balandlikda joylashgan (2 rasm). G'orning kirish qismi So'x vodiysi tubidan 50 m Yo`qorida, Qatrantov tizmasining quyi qismidan o'rin olgan. G'orning eni kirish qismida 34 m, balandligi 25 m va chuqurligi 120 m ga etadi. Yodgorlikda dastlabki qazish ishlari A.P. Okladnikov va P.T. Konoplyalar tomonidan 1955- yilda amalga oshirilgan. 1964 -yili M. R.

⁴¹ Coppens Y. The human revolution. -Edinburgh: Edinburgh University Press, 1989. - 800 -P. 7.

Qosimov eski qazishma devorini tozalash natijasida 110 sm chuqurlikdan jigarrang kremniylashgan jinsdan ishlangan tosh buyumlarni topgan⁴². A. P. Okladnikov bilan M. R. Qosimovlar ishlari oralig'ida g'orni A. Poshka tadqiq etgan. Uning xabar berishicha, 1,5 m chuqurlikdan gulxan, bir nechta kvartsit buyumlar, suyak teshgich va bigiz qoldiqlari topilgan. A. Poshkaning ta'kidlashicha, "keng, quruq va yetarlicha yorug' g'or, qulay kirish qismiga ega bo'lib, unda yozda ham va qishda ham qulay harorat hukm surganligi eng qadimgi davr odamlarining diqqatini tortmasligi_mumkin emas edi"⁴³. Bu fikr, 1980 -yillarda boshlangan statsionar qazish ishlari natijasida o'z tasdiqini topdi.

G'orning kirish qismida olib borilgan qazish ishlari natijasida paleolit davriga oid beshta madaniy qatlam aniqlangan, keyinchalik uchinchi madaniy qatlam yana uchta mikroqatlamga ajratilgan. Madaniy qatlamlarning qalinligi 20 sm. dan 40 sm. gacha oralig'ida va ular 0,3 m. dan 1 m. gacha qalinlikdagi sof qatlamlar bilan ajralib turadi. G'orning yotqiziqlari tuflar, alevritlar, tosh siniqlarini o'z ichiga olgan qumoq tuproqdan iborat bo'lib, 8,5 m. gacha chuqurlikda qazilgan. Paleolit davri matyeriallari esa, 2,5 m. dan 6,5 m. gacha chuqurliklardan joy olgan. Ularning eng ko'p to'plangan joyi qazilgan joyning janubiy qismi bo'lib, shimol tomonga qarab madaniy qatlamlar nurab boradi. Biroq, qazishmalar plani hanuzgacha chop etilmagan.⁴⁴ Ma'lum qilinishicha, 1981 -yilda 64 kv. m. joy ochib o'rganilgan. G'orning kesmalari asosida geologik tadqiqot olib borgan M.X. Godin uni ikkita ritmoqalinlikka ajratadi: ularning quyisi 5 va 4 madaniy qatlamlarni o'z ichiga olib, asosan loyli alevritli qatlamlardan iborat; yo'qorigisi esa, g'or tomidan qulab tushgan shag'alli valunli matyeriallar orasida ohak loyli va tufli mayda qatlamlardan

⁴² Касымов М.Р. Новые исследования по палеолиту Ферганской долины в 1964 г. ИМКУ. Вып. 7. 1966. -С. 7-13.

⁴³ Пошка А. Пещера Сел-Ун-Хур ВА вып. 2. 1960, -С. 38.

⁴⁴ Исламов У.И. Первая нинепалеолитическая пещерная стоянка в Ферганской долине ОНУ. №8. 1984. -С. 4; исследования древнепалеолитической пещерной стоянки Сель-Унгур Раннепалеолитические комплексы Евразии. Новосибирск. 1992. -С. 50-51.

tarkib topgan. Yo`qori ritmo qalinlik 4 marta yuvilgan, unga 3, 2 va 1 madaniy qatlamlar kiradi. Ushbu qatlamlarning barchasi buzilmagan va ular geologik jihatdan ancha sokin davrda paydo bo`lgan. Selung`ur makoni tadqiqoti jarayonida 5000 ga Yaqin tosh buyumlar qo`lga kiritildi. Yodgorlikda tosh buyumlarni yasashda sariq, jigarrangli yashma, kulrang yashil gilli slanets hamda to`q kulrangli vulqon jinslaridan foydalanilgan. Xom-ashyo yodgorlikning pastidagi daryo o`zanidan galka shaklida olib kelingan va bu tabiiyki, Selung`ur industriyasining umumiy ko`rinishiga o`z ta`sirini o`tkazgan. Yodgorlik tosh buyumlari to`plamidagi uchirindilari orasida yirik va qo`pol, zarb maydonchalari keng va zarb burchagi katta bo`lganlari ko`pchilikni tashkil qiladi (3, 4 rasm). Odatda ular kalta o`lchamli, plastinalar deyarli uchramaydi. Levallua tipidagi uchirindilar ham juda kamyob. Aniqlanishi qiyin bo`lgan tosh bo`laklari, fragmentlari va chiqindilar ko`p uchraydi (6 rasm). Nukleuslar to`plamda ko`p emas, ular asosan haddan tashqari ishlov byerilgan tashlandiq ko`rinishlarga ega⁴⁵ (7, 8 rasm).

Ikkilamchi ishlov byerilgan tosh buyumlar foizi yodgorlikdagi umumiy toshlarning o`ndan birini tashkil qiladi. Tosh qurollar orasida choppyerlar, to`g`ri yoki bo`rtib chiqqan qirrali qirg`ichlar, o`yib-kyertib ishlangan qurollar, retushlangan tosh bo`laklar va uchirindilar mavjud. Bundan tashqari, to`plamda klivyerlar (tosh bolta), qo`l cho`qmorlari, paykonlar va limaslar (ikki uchli paykonlar) uchraydi (5, 9, 10-21).

Selung`ur g`ori matyeriallari madaniy jihatdan Osiyocha ashel madaniyatiga kiritilgan. Ma`lumki, ashel ilk paleolitning Evropaga xos madaniyatlaridan biri bo`lib, ular asosan bifaslar ishlab chiqarilishi bilan xarakterlanadi. Osiyocha ashel esa undan biroz farq qilib, bifaslar, ya`ni qo`l cho`qmorlari bilan birga klivyerlarni ham uchrashi bilan ajralib turadi.

⁴⁵ Исламов У.И., Крахмаль К.А. Комплексные исследования древнепалеолитической пещерной стоянки Сель-Унгур Раннепалеолитические комплексы Евразии. Новосибирск. 1992. - С.143-163;

Yodgorlik matyeriallari Old Osiyodagi ilk paleolit davriga oid Ubaydiya makoni matyeriallari bilan o'xshash ekanligi aniqlangan⁴⁶.

Ilk paleolit davriga oid stratigrafiyalashgan yodgorliklardan tashqari Selung`urga Yaqin bo'lgan Chashma qishlog'idagi So'x daryosi tyerrassasidan ayrim yig'ma matyeriallar ham topilgan⁴⁷. Bu yerdan juda kam matyeriallar yig'ilganligi sababli⁴⁸, ularni ilk paleolitga oid deyish qiyin. Bunga o'xshash matyeriallar Farg'ona depretsiasining bir qator joylaridan topilgan. Bunga A.P. Okladnikov tomonidan 1954 -yili Qayrag'och qishlog'idagi Xoja Baqirg'on daryosi kesmalaridan topilgan choppyerni ham misol sifatida keltirish mumkin⁴⁹.

Ilk paleolit davriga oid yana bir yodgorlik Ko'lbuloqning quyi (1- 22) qatlamlaridir⁵⁰. Yodgorlik 1962 -yili O. M. Rostovtsev tomonidan ochilgan va 1963 -yildan 1990 -yillargacha M. R. Qosimov tomonidan o'rganilgan. Ko'lbuloq Angren shahridan 6 km g'arbroqda, Chotqol tizmasining janubi-sharqiy etaklarida, Qizilolmasoy hamda Jarsoy oralig'ida dengiz satxidan 1000 m baladlikda joylashgan. SHurflar va qazishmalar asosan shu nomli buloqning atrofida o'tkazilgan.

Ushbu 22 ta qatlamlardan 4000 ga Yaqin tosh buyumlar yig'ib olingan bo'lib, ular orasida o'yib-kyertib ishlangan, tishsimon qurollar, qirg'ichlar, qo'pol va yirik nukleuslar hamda mikok tipidagi qo'l cho'qmorlari aniqlangan. Ularni tayyorlashda malla va kulrang kremniydan, yashma, kremniylashgan ohaktosh, kvarts kabi qator tosh jinslaridan foydalanilgan hamda ular sarg'ish patinalarga ega. Biroq bu qatlamlar juda kam maydonda (9 m²) aniqlangan. Qazishmaning chuqurligi 19 m. gacha etadi (3 - sonli

⁴⁶ Исламов У.И. Первая нижнепалеолитическая пещерная стоянка в Ферганской долине \ ОНУ. №8. 1984. - С. 4.

⁴⁷ Исламов У.И., Крахмаль К.А. Дрекепалеолитические орудия труда из Ферганской долины \ ОНУ. № 4. 1987. -С. 6.

⁴⁸ Ўша ерда. -Б. 7.

⁴⁹ Вишняцкий Л.Б. Палеолит Средней Азии и Казахстана. Санкт-Петербург. 1996. -С. 107.

⁵⁰ Окладников А.П. Исследования памятников каменного века Таджикистана \ МИА. № 66. 1958 а. - С. 68;

qazishma).Ko'lbuloqning ilk paleolit davriga oid quyi qatlamlari tipologik jihatdan 550 000 yillar bilan sanalangan, madaniy jihatdan esa yodgorlik matyeriallari O'rta Osiyo va Qozog'istonda yagona bo'lgan Ko'lbuloq madaniyatiga ajratilgan⁵¹.

Ko'lbuloqdan 1 km. shimoliy-g'arbda Qizilolmasoy 2 topilma joyining g'arbiy chekkasidan N. K. Anisyutkin tomonidan yana bir ilk paleolitga oid qatlam aniqlangan⁵². Bu yerdan neogen yotqiziqlarining bevosita ustki qismidan 20 sm. qalinlikdagi qatlamdan 214 ta tosh buyum yig'ib olingan. Ular orasida Ko'lbuloqning quyi qatlamlaridagiga o'xshash bifas limand topilgan. Bu holat Qizilolmadan ma'lum vaqt mobaynida ko'lbuloqliklar ustaxona sifatida foydalanganliklaridan dalolat byeradi. Yodgorlik keyingi tadqiqotlar uchun keng istiqbollarni ochib byerishi mumkin.

Ohangaron vodiysidagi ilk paleolit davriga oid topilmajoylardan yana biri Ko'lbuloqdan 1 km. shimoliy- sharqda Qizilolma bilan bir xil balandlikdagi ohaktosh qoyalar etagida joylashgan Jarsoy 2 topilma joyi hisoblanadi. Bu yerdan ikkita qo'pol ishlangan bifas va atipik klivyerlarni eslatuvchi tosh qurollar topilgan. To'planning artefaktlari orasida levallua texnikasining foizi juda yo'qori bo'lib, bunday industriya O'zbekistonning boshqa hududlarida uchramaydi.

Ilk paleolit davriga oid ayrim yig'ma matyeriallar Qizilqum hududlaridan ham topilgan. Bunga 2000 yili M. Xo'janazarov tomonidan Bo'kantog' etaklaridan topilgan bir dona kremniylashgan ohaktoshdan ishlangan bifas yorqin misol bo'la oladi. Qizilqumdagi ilk paleolit matyeriallari hanuzgacha chop etilmagan. Ilgari ilk paleolitga oid deb topilgan hamda chop etilgan Qizilqumdagi Esen 2, Qoraquduq, SHaxpaxti, Ko'kayoz 1, 2 va 3 yodgorliklari keyingi olib borilgan tadqiqotlar natijasida so'ngi paleolitga

⁵¹ Касымов М.Р. Проблемы палеолита Средней Азии и Южного Казахстана \\\ Автореферат док. Дисс. Новосибирск. 1990. -С. 40.

⁵² Анисюткин Н.К., Исламов У.И., Крахмаль К.А., Сайфуллаев Б.К., Хушвактов Н.О. Новые исследования палеолита в Ахангаране (Узбекистан). Санкт-Петербург. 1995. -С. 12-27.

o'tish davriga xos deb topilgan⁵³. O'zbekiston paleolit davrining turli-tuman va ilmiy jihatdan qiziqarli arxeologiya yodgorliklariga boy bo'lishi bilan birga, bu davr tarixi, yodgorliklarning talqini borasida bir qator munozarali muammolar echilmagan masalalar ham mavjuddir. Quyida ushbu muammolar to'g'risida baholi qudrat fikr yuritamiz.

Qadimgi tosh asri nafaqat O'zbekiston, balki butun O'rta Osiyoda shakllangan kishilik jamiyatining eng ko'hna qiziqarli va muhim ahamiyatga molik tarixiy davridir. Ushbu davr yodgorliklaridan biri Farg'ona vodiysidagi Selung'ur manzilgohidir. U texnik-tipologik, paleontologik, ximik (uran-ion uslubi asosida sanalash), palinologik, geologik, paleoantropologik va boshqa uslublar bilan anchayin yaxshi o'rganilishiga qaramasdan, yodgorlik matyeriallarining tahlili atrofida bir qator munozaralar mavjud bo'lib, dastlabki va asosiysi Selung'ur sanasi masalasidagi munozarali fikrlardir. Yodgorlikni bevosita o'rgangan tadqiqotchilar⁵⁴ manzilgohning sanasi 1,5 million yillar bilan belgilashgan. Biroq, qator chet el adabiyotlarida uning anchayin yoshartirilgan xronologik__davrlarga xosligi to'g'risida fikrlar mavjud⁵⁵. Tilga olingan xorijiy mualliflar Selung'ir qatlamlarining sanasini 300-250 ming yillar bilan davrlaganlar. Yodgorlikdan topilgan antropologik matyeriallarning o'rganilishi ham munozaralarga sabab bo'lishi mumkin. Negaki, bu topilmalar arxantrop'larga xos deb talqin qilingan. Biroq, arxantrop tyermini o'tgan asrning 50 -yillarida qabul qilingan bo'lib, ular qatoriga gibbonlar ham kiritilgan. Keyingi yarim asrdan ziyodroq vaqt mobaynida qilingan kashfiyotlar gominidlarning nisbatan aniqroq fizik tiplarini belgilash imkonini byerdi va arxantrop tyermini ilmiy muomiladan chiqarib tashlandi. Bu narsa paleantrop va neantrop tyerminlariga ham taalluqlidir. Ushbu ilmiy yangiliklarga ko'ra, hozirda arxantrop tyermini odam ajdodlarining fizik tipini

⁵³ Сайфуллаев Б.К., Курбонбоев И.М. Қизилқумдаги палеолит даври устахоналарини ўрганишга доир (Есен 2, Қорақудуқ, Шахпахти, Қўқаёз 1, 2 ва 3 материаллари асосида). ИМКУ. № 36. 2008. -С. 12.

⁵⁴ Исламов У.И. Первая нинепалеолитическая пещерная стоянка в Ферганской долине ОНУ. №8. 1984, с. ;

belgilamaydi. Selung`ur tadqiqotchilari yodgorlikning barcha madaniy qatlamlarini ashel davriga oid deb hisoblaydilar<sup>56</sup>. Biroq, Selungo`rni bunday sanalash ayrim mutaxassislar tomonidan shubha ostiga olingan⁵⁷. “ Selung`ur industriyasini ashel deb, talqin qilish jiddiy shubha uyg`otadi: to`plamda haqiqiy qo`l cho`qmorlari bo`lmagan holatda ashel to`g`risida gapirish mumkinmi? Boshqa bir tomondan, xom -ashyoning xaraktyeri qayroqtosh (daryo galkasi), choppyerlarning mavjudligi, tipologik jihatdan aniq nukleuslarning yo`qligi, kalta va yirik yo`nilg`ilarning ko`pligi hamda plastinalar yoki ularga Yaqin yo`nilg`ilarning uchramasligi Selungo`rni O`rta Osiyoning, xususan Qoratorov va Laxuti yodgorliklari matyeriallari bilan Yaqinligini ko`rsatadi. Agar Selungo`rning barcha qatlamlari matyeriallarini umumlashgan holatda olinsa, bunday deyish, toki yodgorlikning har beshala qatlamlari matyeriallari qatlamma-qatlam sinchiklab o`rganilguniga qadar yagona to`g`ri xulosa bo`lib qoladi. Bu holda Janubiy Tojikiston matyeriallari bilan taqqoslanganda, Selung`urda ayrim mustega xos tosh buyumlar shakllari mavjud va hatto Selung`ur biroz arxaik ko`rinishga ega. Aftidan, Selungo`rni ilk paleolitga xos yodgorlik, deb hisoblash bilan birga, uni ashelga emas, qayroqtoshli madaniyatlar doirasiga kiritish to`g`ri bo`lur edi. Ammo, bunday xulosaga kelgan Yo`qoridagi mutaxassislar Selung`urda qo`l cho`qmorlarining syeriyalari mavjudligidan bexabar ko`rinadi.

Selung`ur qatlamlarining geologik qadimiyligi ham hozirda o`zining to`liq isbotini topgan emas. O`. I. Islomov va uning xodimlarining maqolalarida yodgorlik qatlamlarining ilk pleystotsenga oidligi ishonch bilan ta`kidlanadi. Biroq, buni isbotlovchi dalillar hali etardi emas⁵⁸. Palinologik va faunistik

⁵⁶ Исламов У.И., Крахмаль К.А. Комплексные исследования древнепалеолитической пещерной стоянки Сель-Унгур Раннепалеолитические комплексы Евразии. Новосибирск. 1992, с. 32;

⁵⁷ Ranov V. A., 1988, p. 1001; Dictionnaire de la Préhistoire. Universitaires de France, Paris, p. 1001.; Ranov V. A., 1993. Decouverte des civilisations d'Asie Centrale. Les dossiers d'Archeologie №185 Septembre 1993. Paris, p. 6.; Вишняцкий Л.Б. Палеолит Средней Азии и Казахстана. Санкт-Петербург. 1996, с. 107.; Исламов У.И., Зубов А.А., Харитонов В.М. Палеолитическая стоянка Сель-Унгур в Ферганской долине ВА. Вып. 80. 1988, с. 122;

⁵⁸ Вишняцкий Л.Б. Изучение палеолита Средней Азии (материалы, методы, концепции) СА. № 1. 1989а, с. 15;

matyeriallarning guvohlik byerishicha, yodgorlik matyeriallari o'rta pleystotsen davriga xosdir⁵⁹. Tosh buyumlarining texnik-tipologik tahlili esa, yodgorlikning absolyut sanasi haqida yetarli ma'lumotlarni byermaydi⁶⁰. Shunday bo'lsada, Selung'ur O'rta Osiyoda hozirda ma'lum bo'lgan yodgorliklar ichida eng qadimgilaridan biridir. Bu haqda antropologik, paleontologik va arxeologik matyeriallarning birgalikda topilishi hamda yo`qori madaniy qatlam ustidan olingan travyertin bo'lagi bo'yicha amalga oshirilgan uran-ion uslubi bilan sanalash natijalari:<sup>61</sup> 126 +/-5 ming yil (LU-936) shundan guvohlik byeradi<sup>62</sup>. Shunisi achinarliki, Yo`qorida keltirilgan ayrim munozarali fikrlar yodgorlik matyeriallarini yaxshi bilmaslik asosida kelib chiqadigan, tushunmovchiliklardan boshqa narsa emas. Shuning uchun, yodgorlik matyeriallari butun dunyo olimlarini qiziqtirib qolgan bir paytda uning haqida to'liq va aniq texnik-tipologik tip-varaqalari ishlab chiqilishi lozim.

Ayrim mutaxassislar O'zbekistondagi ilk paleolitga doir ikkinchi yodgorlik Ko'lbuloq topilmalari haqida arxeologik matyeriallar asosan aralashib ketgan, degan fikrga kelishgan.⁶³ Ularning fikricha, Ko'lbuloqdan topilgan matyeriallar yodgorlikning Yaqinida va yo`qoriroqda joylashgan Jarsoydan va boshqa soylardan sel oqimlari yordamida oqizib keltirilgan. Shuningdek, M.R. Qosimov va u bilan birga ish olib borgan mutaxassislar Ko'lbuloqning yo`qori qatlamlari sel oqizidlari tufayli biroz aralashib ketganligini tan oladilar⁶⁴. M.R. Qosimovning fikricha, Ko'lbuloq ashel (49-27), o'rta (28- 4) va so'nggi

⁵⁹ Ранов В.А. О восточной границе мустьерской культуры Хроностратиграфия палеолита Северной, Центральной и Восточной Азии и Америки. Новосибирск. 1990, с. 264:

⁶⁰ Ранов В. А., 1993. Decouverte des civilisations d'Asie Centrale. Les dossiers d'Archeologie №185 /Septembre 1993. Paris, p. 6.

⁶¹ Вишняцкий Л.Б. Палеолит Средней Азии и Казахстана. Санкт-Петербург. 1996, с. 107; Величко А.А., Арсланов Х.А., Герасимова С.А., Исламов У.И., Кременецкий К.В., Маркова А. К., Ударцев В.П., Чиколени Н.И. (Советская Средня Азия) Хроностратиграфия палеолита Северной, Центральной и Восточной Азии и Америки. Новосибирск. 1990, с. 78-79.

⁶² Ранов В.А., Додонов А.Е. О периодизации и стратиграфии нижнепалеолитических стоянок Средней Азии Проблемы взаимосвязи природы в каменном веке Средней Азии. Ташкент. 1988, с. 71-72.

⁶⁴ Медведов Г.И., Несмеянов С.А. Типизация "культурных отложений" и местонахождений каменного века Методические проблемы археологии Сибири. Новосибирск. 1988, с. 139.

paleolit (3-1) davrlariga oid 49 ta madaniy qatlamlardan iborat hamda ular 10-20 sm. dan to 2 m. gacha etadigan oraliq sof qatlamlar bilan ajratilgan. Demak, M. R. Qosimovning talqinicha⁶⁵ yodgorlik 49 marta ibtidoiy odamlar tomonidan makon tutilgan va shuncha bor tashlab ketilgan. Ammo, bunday deyish uchun yetarli asos yo'q, Chunki, bu qatlamlarning ko'pchiligida 20-30 dona ba`zan undan ham kamroq tosh bu yumlar topilgan. Bundan tashqari artefaktlar bilan tosh buyumlar nisbatlari mos kelmaydi. Qatlamlarning boshqa belgilari, masalan, kul qoldiqlarining to'planishi, qatlamdagi aralash jinslarining intensiv holatda rangdorligi va makonni tashkillashtirish elementlari ayrim holatlardagina uchraydi yoki butunlay uchramaydi. Shuningdek, Ko'lbuloq qazishmalarining palinologik kesmasi to'liq namoyon qilingan emas. Undan olingan tahlillarning katta qismi (80% ga Yaqini) hech qanday natija byermagan, qolganlarida esa 20-30 ta boshoqli ekinlar qoldiqlari aniqlangan.

Ko'lbuloqda fauna qoldiqlari ham juda kamchilikni tashkil qiladi. Bu yerda ko'proq bug'u, ibtidoiy tur, quyon, ot, sibir tog' echkisi, cho'chqa, g'or shoqoli kabi hayvon suyaklari qoldiqlari uchraydi. Biroq tabiiy fanlar byergan natijalar yodgorlik qatlamlarining yoshini aniqlash uchun yetarli emas. M.R. Qosimov va M.X. Godinlarning yozishicha, yodgorlikning quyi qatlamlari ilk pleystotsen davriga oid, ammo bunday talqin qilish uchun yetarlicha ilmiy asoslar yo'q⁶⁶.

Shuningdek, O'zbekistonning ilk paleolit davriga oid Qizilolmasoy 2, Jarsoy 2 hamda Bo'kantog' topilmajoylari hali to'liq o'rganilmagan.

Ilgari ilk paleolitga oid deb topilgan hamda chop etilgan Qizilqumdagagi Esen 2 (11 rasm), Qoraquduq, SHaxpaxti, Ko'kayoz 1, 2 va 3 yodgorliklari dastlab paleolitning turli bosqichlariga, keyinchalik olib borilgan tadqiqotlar natijasida

⁶⁵ Касымов М.Р. Результаты работ Ахангаранского палеолитического отряда по данным раскопок 1975 г. ИМКУ. Вып. 14. 1978, с. 7.

⁶⁶ Ранов В.А., Додонов А.Е. О периодизации и стратиграфии нижнепалеолитических стоянок Средней Азии Проблемы взаимосвязи природы в каменном веке Средней Азии. Ташкент. 1988, с. 72;

ularning barchasi so'ngi paleolitga o'tish davriga xos deb topilgan⁶⁷ va bu to'la asoslanmagan. Umuman, Markaziy Osiyo ilk paleolit davrining tabiiy jug'rofik muhiti geolog olimlarning xulosalariga ko'ra, bu hududlar tabiatining yozi issiq va quruq, kishi sovuk, yog'ingarchilikning nisbatan kamchil bo'lganligi bilan e'tirof qilinadi. Xuddi, ana shu davrda Markaziy Osiyoning hozirgi cho'l va dashtlari yer usti tuzilishi (landshafta) shakillangan va shu landshafga xos hayvonot va o'simliklar dunyosi tashkil topadi. Ashel davrining so'ngi vaqtlariga kelib esa tabiiy sharoit keskin soviy boshlagan. Ayniqsa, Ovropaning shimoliy mintaqalarini qalin muzliklar qoplab olgan edi. Markaziy Osiyoda esa, asosan uning tog'lik mintaqalarida muzliklar hosil bo'lib, mul suv oqimlari oqibati sababli daryolar va ular bilan bog'liq vohalar vujudga kelib, yer ustining shakillanishiga sabab bo'lgan. Markaziy Osiyo muzliklari asosan tog'lik hududlarda bo'lib, vohalarda ham ularning oqibatlari kuchlik bo'lgan. Bu muzliklarning izlari baland tog'larda uzoq saqlangan va hozirgi vaqtda ham mavjud. Markaziy Osiyoning vohalarga aylangan tumanlarida hamda ular bilan bog'lik past tekisliklarda esa uzliksiz yogingarchiliklar tufayli iqlimining gox sovushi, gox isishi xollari sodir bo'lgan. Demakki, bu tabiat o'zgarishlari bilan bog'liq o'simliklar hamda hayvonot dunyosi tarkibida ham ma'lum o'zgarishlar yuz bergan. Xullas, tig'is o'rmonlar o'rmini cho'l, dasht mintaqalariga xos o'simliklar dunyosi egallaydi. Markaziy Osiyoning ana shunday tabiiy iqlim, ekologik sharoitida vujudga kelgan o'zgarishlar tufayli bu keng mintaqaning ayrim hududlarida eng qadimgi ajdodlarimizning makon topishiga imkoniyat tug'ildi va bu ajdodlarimizning turmush zaruriyatidan kelib chiqib, o'z mehnat qurollarini har doim takomillashtirishda bo'ldilar. O'rta Osiyo, xususan, Farg'ona vodisining Sux tumanida o'rganilgan Selengur g'or makoni, Toshkent viloyati, Oxangaron voxasida o'rganilgan ko'p ma'dan qatlamlarga Ko'lbuloq, Tojikistondagi Laxutiy makonlarining manbalari bu fikrimizdan dalolat beradi.

⁶⁷ Сайфуллаев Б.К., Курбонбоев И.М. Қизилқумдаги палеолит даври устахоналарини ўрганишга доир (Есен 2, Қорақудук, Шахпахти, Кўкаёз 1, 2 ва 3 материаллари асосида). ИМКУ. № 36. 2008, с. 35;

Olimlarning xulosasiga ko'ra, Seleng'ur g'or makonida yashagan ilk ajdodlarimiz sinantropplarga zamondosh ekanligi va O'rta Osiyo hududi, ilk bor odamlar paydo bo'lgan mintaqalar qatoriga kirishi haqidagi fikrlar maqullanmoqda. Ayni vaqtda, tadqiqot ishlarini olib borayotgan O'zbekiston olimlari Ko'lbuloq makonining ilk qatlamlari bergan mehnat qurollari ham zikr etilgan davr kishilari madaniyatidan iboratligi e'tirof qilinmoqda.

Fanimizning ushbu o'qigan ma'ruzalar matniga xulosa tarzida Shuni takidlashga asos borki, O'rta Osiyo va Qozogiston insoniyat olamida juda qadimdan madaniyati rivojlangan, tarixi boy mintaqalardan biri ekan. Yo`qoridagi zikr etilgan manbalar bu fikrni tasdiqlaydi. Endilikda bu hududlar jahonda odamzodning ilk ajdodlari, makon topgan mintaqaga kiradi. Bu kashfiyotlar esa arxeolog olimlarimizning jahon tarixiga qo'shgan munosib xissasidir.

Olimlarning ko'p yillik tadqiqotlari shu jarayonni ko'rsatdiki, odamzodning paysdo bo'lgandan to hozirgi davrga qadar bo'lib o'tgan tarixi bir tekisda rivojlanishda bo'lmagan. Odamzod tabiatdagi boshqa zotlar kabi ibtidoiylikdan asta-sekin murakkablikka rivojlanib borgan. Ularning mehnat vositalari va shu bilan bog'lik bo'lgan faoliyati, inson ongi, tabiat xodisalarini tuShunish qobilyatlari o'zgarib takomillashib borgan. Masalan, agar inson o'zining ilk taraqqiyot bosqichida tabiatdagi tayyor maxsulotlar bilan tirikchilik kechirgan bo'lsa, keyinroq, asta-sekin, tabiat sirlarini o'rgandi yo'l-yo'riqlarini bilib oldi va nixoyat, u hozirgi zamon holatiga, jamiyatning yuksak rivojlanishi darajasiga yerishdi.

Sizning e'tiboringizga xavola qilingan ilk paleolit davri ijtimoiy nuqtai nazardan qaralganda bu taraqqiyot bosqichi "ibtidoiy to'da" davri hisoblanadi. Odamzod tarixning ilk bosqichidagi ajdodlar to'dasi avvalgi darsliklarda "poda", ibtidoiy jamoaning dastlabki bosqichi esa "kommuna" deb atalishi mazmun jihatdan hato edi. "Darxaqiqat, ibtidoiy to'da davri dastlabki kishilik jamoasining hayvonat olamidan insoniyat olamiga o'tish davri edi"). Urug'chilik

davri esa kishilik jamiyatining birinchi kO`rtagi edi. Kishilikning ibtidoiy to`da bosqichi bilan ibtidoiy urug`chilik bosqichlari o`rtasida chuqur sifat chegarasi mavjud. Bu sifat chegarasi eng qadimgi ajdodlarimizning hayvonat dunyosiga xos olamdan chiqib, ongli, aqlli zot dunyosiga o`tishi bilan tavsiflanadi

Kishilar ibtidoiy to`da davrida turli yirtqich xayvonlardan qo`rqqanidan gala-gala, to`da-to`da bo`lib yashagan. Kiyinchilik vaqtlarda, xususan, ov xarakatida ular yolg`iz hayvonga ko`pchilik bo`lib hujum qilishganlar. Keyinchalik bu harakatlar tokomillashib, ov qilishning turli sirlarini bilib olishganlar. Ularning asosiy qurollari esa toshdan, yog`och va balki suyakdan iborat bo`lgan. Bu davrda odamlar o`rtasida jismoniy aloqalar chegaralanmagan, aniq tartibga tushgan emas edi. Ilk paleolit davrida O`rta Osiyo va Qozogistonda pitekantrop, sinantrop, fergantrop singari eng qadimgi odamlar yashagan bo`lib, ularni fanda umumiy tushunchada arxantroplar deb yuritiladi. Uzliksiz mehnat jarayonida rivojlanib, qadimgi odamlar neandertallarning shakillanishi uchun zamin hozirlaganlar. Yukorida bildirilgan arxeologik manbalar hamda Seleng`ur g`oridan topilgan qadimgi odam qoldiqlari O`rta Osiyoni antropogenez jarayoni sodir bo`lgan mintaqalarga qo`shish imkoniyatini berdi. Vatanimiz, O`zbekiston diyori Markaziy Osiyoda arxeologik jixatdan bir muncha mukammal o`rganilgan mamlakatlar qatoriga kiritish mumkin. Bu erda paleolit davrining barcha taraqqiyot bosqichlarini ifodalovchi serob yodgorliklar topilib o`rganilgan va ular haqida qator kitoblar, ilmiy maqolalar e`lon qilingan. O`zbekiston ilk paleolit davri yodgorliklari Zarafshon havzasida, Toshkent viloyatining Oxangaron vodiysida bir muncha yaxshi taqdim qilingan. Bundan tashqari, mamlakatimizning boshqa hududlaridan ham bu davr mehnat qurollari alohida tarzda taqdim qilingan bo`lib, bu manbalar hozircha ilmiy va o`quv vositalari orqali jamoatchilikka tuda etkazilgan emas. Ana shu manbalarning dastlabki o`rganilishi xulosalariga qaraganda mamlakatimiz hududlarida inson guruhlari kamida ashel davridan e`tiboran yashab kelgan bo`lib, ularni sanalash tufayli aytilganda bu jarayon qariyb 800 ming yillikdan 400-300 ming yillarni

o'z ichiga oladi. Demakki, bu hududlar juda qadimiy zamonlardan inson jamoalarining yashashi, rivojlanishi, madaniyat yaratishi uchun qulay tabiiy, iqlim va ekologik shart-sharoitlarga ega bo'lgan desak, hato emas. To'g'ri, hozircha ilk paleolit yodgorliklari O'zbekistonda sanoqli taqdim qilingan. Birok, ayni kunlarda qator arxeologik guruhlar maxsuli tadqiqot ishlari olib borishib, yangi-yangi makonlarni topishmoqdalar. Jumladan, 1998- yilda Qizilqum saxrolaridan qiziqarli ilk paleolit makonlarining topilishi fikrimizdan guvohlik beradi. Navbatdagi satrlarda Vatanimiz hududida o'rganilgan ilk paleolit tarixi haqida qisqacha ma'lumot berish ko'zda tutilgan.

Kulbuloq makoni, - Toshkent viloyatining Oxangaron voxasidagi Qizilolma soy yoqasidagi chashma atrofida joylashgan. Yodgorlik ko'p yillar davomida iste'dodli paleolitshunos M.R.Kosimov tomonidan o'rganilgan va uning vafotidan so'ng, shogirdlaridan X.To'ychiev ishtirokida o'rganilmoqda. Bu ko'p ma'dan qatlamga ega va Markaziy Osiyodagi etalon yodgorliklaridan biri bo'lib, fanda 1963- yildan e'tiboran ma'lum. Tadqiqotchilarning ma'lumotlariga qaraganda yodgorlik 31 ma'dan qatlamidan iborat bo'lib, eng pastki qatlamlari esa, ilk paleolit davriga mansubdir. Makon o'rganilar ekan, uning manbalari asosida bu erda ma'daniyat tariximizning uzliksiz rivojini, ya'ni ilk paleolitdan so'ngi paleolit davrlari taraqqiyot bosqichlarini kuzatish imkoniyatlariga ega bo'lindi. Makonni o'rganish natijasida juda boy arxeologik, jumladan, chakmok-toshdan yasalgan mexnat vositalari, bu davr kishilari bilan zamondosh xayvonot dunyosi qoldiqlari topildi.

Makonning ilk (pastki) qatlamlaridan qo'lga kiritilgan mexnat vositalari orasida yirik tarzda taqdim kilingan qurollar, turli kesuvchi va chopuvchi, narsalarni qirish uchun qo'llanilgan asboblari, qo'l chopkilari alohida guruhlarini tashkil kiladi. Qiziqarlisi ham shundaki, bu qurollarning ishlab chiqish texnikasi uziga xosligi bilan ajralib turadi. Ashel qatlamidan qo'l, ko'mir qoldiqlarining topilishi ham qiziqarlidir. Sababi, fanda olovning sun'iy ixtiro qilinishini o'rta paleolit davriga hos deb ma'lumot berilgan. Tabiiy olovdan foydalanish azaldan

mavjudligini hisobga oladigan bo'lsak-da, ammo olovni suniy usulda kashf qilish ashel davridayoq ma'lum bo'lganligini e'tirof qilish haqiqatga Yaqindir. Olov (gulxan) odamlar uchun har doim hayot-mamot tizimlaridan muhimi xisoblanib kelgan. Arxeologik manbalarga qaraganda Kulbuloqliklarning asosiy turmish tarzi turli oziqa bop narsalarga termachilik va ovchilikdan iborat bo'lgan. Kul buloq makoni ochiq tabiatda joylashgan makonlardan biri bo'lib, u o'zining kup ma'dan qatlamiga, xilma-xil mexnat qurollarga boyligi tufayli Markaziy Osiyodagi eng noyob yodgorliklardandir. Kulbuloq makonini o'rganish ishlari davom ettirilmoqda.

Kulbuloq makoni haqida paleolitshunos olimlar orasida turli mulohazali fikrlar ham mavjud. Hususan, Tojikistonlik arxeolog professor V.A.Ranov yodgorlikning ilk (pastki) ma'dan qatlamlaridan topilgan ashyolarning yoshi haqida fikr bildirib, ashel davrining so'ngi boskichlari bilan bog'lash taraddusida ekanligini bildirgan (Ranov, 1992, 91-92). Bu olimning asosiy e'tirozlaridan biri-yodgorlikning pastki qatlamlari manbalarining hozirgi zamon tabiiy fanlari yutuqlari bilan taxlillanmaganligidandir. Bu masalalar yuzasidan O'zbekiston mutaxasislari, ayni vaqtda, zarur tadqiqot ishlarini bajarmoqdalar.

Janubiy Farg'onaning bir necha joylaridan alohida tarzda ilk paleolit mehnat qurollari topilgan. Farg'ona vodiysida turli yillarda arxeologik qidiruv ishi olib borgan P.T.Konoplya, M.R.Qosimov, Yu.A.Zadnenrovskiy, U.I.Islomov, A.P.Okladnikov-lar tomonlaridan ko'pgina joylardan tosh asri ashyolari topilib, bu joylar mukammal o'rganilishi kuzda tutilgan. Qiziqarlisi shundaki, topilmalar orasida ashel davri mehnat qurollari mavjud. Bu esa, hududda ilk paleolit yodgorliklarini izlab topish dastlabki «axborotlar» bo'lib, bu zaminda keng-kulamda arxeologik ishlar olib borishni taqoza kiladi. Bunday joylar Toshkent viloyatidagi Boltag'or makonlari, Samarqand viloyatining Urgut tog'idagi Gurdara g'ori kabilardan ashel davri mehnat qurollari topilgan. Ayniqsa, Selengur g'or makonining o'rganilishi manbalari arxeologiyada katta shov-shuvlarga sabab bo'ldi. Makon O'zbekiston arxeologlari tomonidan o'rganilgan

bo'lib, aslida bu yodgorlik Qirg'iziston respublikasi hududida joylashganligi tufayli bu hakida Yo`qorida alohida satrlar ajratilganligini e'trof qilish kifoyadir.

Zarafshon havzasi arxeologik jihatdan turli davr yodgorliklarga nixoyatda serob maskanlardandir. Xususan, bu hududda ibtidoiy davrning barcha taraqqiyot bosqichlariga doir makon-u manzilgoxlar taqdim qilingan. Shulardan ayrimlari haqida qisqacha tuxtalib o'tamiz.

Uchtut-Ijont-Vaush makonlari qiziqarli manbalar berdi. Bu o'lkalarda atoqli olim Ya.G.Gulomov rahbarligidagi arxeologik guruh 60-yillarda katta qidiruv ishlarini bajargan. Uchtut-Ijont-Vaush makonlarida Utkazilgan tadqiqotlarda U.I.Islomov, M.R.Kosimov, T.Mirsoatovlar katta tadqiqot ishlarini amalga oshirdilar. Ish jarayonida Sang-Peterburgdan bilimdon mutaxassislar prof. S.A.Semenov, G.F.Korobkovalar hamkorlikka kelishdilar va bu yodgorliklar hakida qator asarlar e'lon qilingan (Kosimov, 1972, Mirsoatov,1979). Zikr etilgan mazkur yodgorliklar Navoiy viloyati, Navoiy shaxriga Yaqin, Koratovning janubiy qiyaligi bag'irlarida joylashgan, Hozirgi Uchtut, Kavobi qishloqlari Yaqin atrofida ochiq maydonda ibtidoiy jamoalarning manzilgoxlari bo'lishi bilan bir vaqtda bu yerda sifatli chakmoktosh konlari (shaxtalari) ham mavjud bo'lgan, va kishilar turmushida muhim ahamiyat kasb etgan. Bu makonlarning pastki madan qatlamlarida topilgan mexnat qurollari, xususan, yirik shakldagi tosh uzaklari, ulardan olingan uchirmalar, yasalgan mexnat qurollari ashel davri buyumlarini eslatadi. Bu makonlardan topilgan tosh ashyolar ashel, muster, so'nggi paleolit va mezo-neolit davrlariga ham hosdir. Demakki, bu makonlarda, hamda atrofda inson jamoalari uzluksiz, uzoq tarixni o'z ichiga oluvchi davrlarda yashab kelishgan ekanlar.

Yo`qorida aytilganidek, Uchtut ya'ni Kavobi qishlog'i atrofida chaqmoqtoshni yer qatlamidan qazib olish, undan turli qurollar, xususan, mehnat qurollari yasash uchun ularni moslashtirish ustaxonasi mavjud bo'lgan ekan. Bu jamoalar o'z konlaridan qazib olingan chaqmoqtosh jinslarini qo'shni va tutash hududlarda yashovchi jamoalarga ayribosh ham qilganligi aniqlandi. Hususan,

Zarafshon havzasidagi Qo'tirbulok, Zirabuloq must'ye yodgorliklarida, Samarqand so'nggi paleolit makonida hamda ko'pgina mezo-neolit manzilgohlarida qurol uchun foydalanilgan xom ashyoning aksariyati Uchtut chaqmoqtoshidan ishlanganligi qiziqarli jarayondan guvohlik beradi.

Zarafshon havzasining pastki oqim cho'kmalaridan ham qiziqarli joy makonlar topilib o'rganilmoqda, shular jumlasidan Yaqinda taqdim qilingan Qizilqum ilk paleolit makonlari hisoblanadi.

Ko'kayoz makonlari, - Qizilqumning shimoliy sharqiy hududlarini qamrab olgan Ko'kayoz chukmasi va u bilan bog'liq qirg'oklar, hususan, xozirgi vaqtda qo'rib qolgan Ko'kayoz daryochasining o'zan qayirlarining bir necha joylaridan paleolit davri ashyolari topilgan. Bu yodgorliklarni o'rgangan M.Xujanazarov, B.Sayfullaevlarning fikriga qaraganda Ko'kayoz 1, ashel va ilk mustye davriga, Ko'kayoz 2 mustye davriga va Ko'kayoz 3 so'ngi mustye davriga mansubdir(Xujanazarov, Sayfullaev, 1999, 26-28). Bu makonlar aslida mehnat kurollari yasash ustaxonasi ham bo'lgan ekan. Ilk paleolit ya'ni ashel davri yodg'orligi bo'lgan Ko'kayoz 1 dan topilgan ashyolar 20 dan ziyod tosh buyumlarini o'z ichiga olib, tarkibida yirik tosh o'zaklari, bifas turidagi chopqich cho'qmorlar, yirik va dag'al ishlangan qirg'ich kabilar taqdim qilingan bo'lib, ular ko'k va qora tusdagi chaqmoqtoshdan yasalgan. Demakki, so'ngi ming yilliklarda cho'lu-saxroga aylanib qolgan bu keng doiradagi hududlarda ashell davrida inson jamoalari yashashi va madaniyat yaratishi uchun tabiiy va ekologik jihatlardan qulay.

III-Bob.Obirahmat makonining o`rganilishi tarixi va O`zbekiston arxeologiyasining o`rganilishdagi o`rni.

Nazariy jihatdan o`rta paleolit bundan 100 000 yillar avval boshlanib, to 36000 yillargacha davom etgan. Biroq, bunday sanalash Evropa arxeologiya yodgorliklari matyeriallari asosida amalga oshirilgan bo`lib, O`rta Osiyo uchun o`rta paleolitning mahalliy xronologik shkalasi ishlab chiqilmaganligi uchun qabul qilingan. O`zbekiston hududlari paleolitning o`rta bosqichiga oid yodgorliklarga boy hisoblanadi. Ularga Toshkent vohasida Obirahmat, Paltov, Bo`zsuv g`ori, G`ishtsoy ustaxonalari, Zarafshon vodiysidagi Qo`tirbuloq, Zirabuloq, Omonqo`ton, Takalisoy, Olmabuloq yodgorliklari, Uchtut ustaxonasi, o`rta paleolitning so`nggi bosqichiga oid Qizilqumdagi Esen 2, Qoraquduq, Shaxpaxti, Ko`kayoz 1. 2 va 3 yodgorliklari, Surxondaryodagi Teshik-Tosh, Amir-Temur g`orlari, Ko`lbuloqning o`rta qatlamlari (28-4), Qizilolma 1, 2, Jarsoy, To`palang suv ombori topilmalari hamda yurtimizning turli hududlaridan yer sathidan yig`ib olingan aniqlangan o`nlab alohida topilmalarni misol sifatida keltirish mumkin.

Toshkent vohasidagi Obirahmat va Ko`lbuloqning o`rta paleolitga xos madaniy qatlamlari mazkur davrga oid makonlarga nisbatan yaxshi o`rganilgan hisoblanadi. Bo`zsuv atrofidan bu davrga oid ashyolar topilgan lekin xanuzgacha matyeriallari chop etilmagan, Paltov g`oridagi tadqiqotlarda kam artefaktlar qo`lga kiritilgan. Ohangaron vodiysidagi Qizilolma 1, 2, Jarsoy 1 va G`ishtsoydan topilgan ashyolar to`lalgicha hali o`rganilmagan.

Obirahmat g`or manzilgohi<sup>68</sup> Toshkent shahridan 100 km shimoli-sharqda, Chotqol va Pskom daryolari quyilishiga Yaqin joyda joylashgan. Yodgorlikning dengiz sathidan balandligi 1250 m. G`or janub tomonga qaragan bo`lib kirish qismi eni 20 m., chuqurligi 9 m. va balandligi esa 11,8 m. ni

⁶⁸ Насриддинов Х.К. Грот Оби Рахмат \\\ ИМКУ. Вып. 5. 1964. -С.; Сулайманов Р.Х. Статистическое изучение культуры грота Оби-Рахмат. Ташкент. 1972. -С.; Ранов В.А., Несмеянов С.А. Палеолит и стратиграфия антропогена Средней Азии \\\ Душанбе. 1973. -С. 13;

tashkil qiladi. Manzilgoh 1962 -yili A.R. Muhammadjonov tomonidan kashf etilgan. Yodgorlikda qazish ishlarini dastlab X.K. Nasriddinov, boshlab byergan 1964-1965 yillar mobaynida R. X. Sulaymonov tomonidan qazib o'rganilgan. O'sha paytlardagi qazishmalarning umumiy maydoni 60 m² bo'lib, madaniy yotqiziqlarning qalinligi 2 m. gacha etadi. O'tgan asrning 90 -yillarida yodgorlikda O'zbekiston-Rossiya arxeologiya ekspeditsiyasi qazish ishlarini boshladi. Natijada, Obirahmatning tosh industriyasi o'rta paleolitning oxiri hamda so'nggi paleolitning boshlanishi davriga oid deb topildi va Markaziy Osiyo paleolitshunosligida birinchi marta "ilk so'nggi paleolit" iborasi fanga kiritildi. Ma'lumki, fanda xomo sapiens sapiens, ya'ni zamonaviy odamning paydo bo'lishi hamda Shuning bilan birga so'nggi_paleolit davrining genezisi masalalari hozirgacha katta muammo bo'lib qolmoqda. Shuning uchun mutaxassislar tomonidan so'nggi paleolit odami va davrining paydo bo'lishi ildizlarini izlash tabiiy hol va juda dolzarb masaladir⁶⁹.

Zamonaviy odamlarga jismoniy tipi jihatidan eng Yaqin gominidlar, ya'ni xomo sapiens arxaiklar bundan 200 000 yillar muqaddam Markaziy Afrikada (Chad) paydo bo'lgani hamda bundan 100 000 yillar muqaddam bu odamlar Yaqin Sharq hududiga tarqalganligi fanda ma'lum⁷⁰. Biroq ushbu gominidlar zvenosining keyingi taqdiri fanda aniqlangani yo'q. SHu tufayli, Obirahmat g'ori matyeriallari birinchidan, Yaqin Sharqdagi (xomo sapiens arxaiklarning) Kafzex, Kebara va Sxul yodgorliklari matyeriallariga o'xshashligi, ikkinchidan, xronologik jihatdan ulardan yoshroq bo'lganligi va uchinchidan, geografik jihatdan Evropa so'nggi paleolit davri yodgorliklari hamda Yaqin Sharq manzilgohlari oralig'ida joylashganligi sababli so'nggi paleolitning boshlanish davriga oid deb topildi. Go'yoki, fandagi Evropa bilan Yaqin Sharq oralig'idagi bo'shliq to'ldirildi. Biroq, 2003- yilgi qazish ishlari natijasida,

⁶⁹ Деревянко А.П., Исламов У.И., Петрин В.Т., Сулейманов Р.Х., Алимов К., Кривошапкин А.И., Аношкин А.А., Милютин К.И., Сайфуллаев Б.К. Исследования грота Оби Рахмат (Республика Узбекистан) в 1999 г.

Obirahmatning 16 -madaniy qatlamidan 1, 3 va 10 yoshli bolalarning suyak qoldiqlari aniqlandi va ular antropologik jihatdan neandertal tipidagi gominidlarga xos ekanligi qayd etildi. Oqibatda, Obirahmat matyeriallari o'rta paleolitning oxirlariga oid yodgorlik ekanligi yana bir bor o'z isbotini topdi va unga nisbatan "ilk so'nggi paleolit" iborasining qo'llanilishi asossiz ekanligi ma'lum bo'lib qoldi.

Toshkent vohasidagi o'rta paleolit davriga oid moddiy manblar Ko'lbuloqning o'rta (23-4) qatlamlaridan olindi. Yodgorlikning o'rta paleolitga oid qatlamlari 1,3 m qalinlikdagi sel oqiziqlari bilan bog'liq tosh siniqlari yotqiziqlarida, yer sathidan 90 sm chuqurlikda joylashgan. M. R. Qosimovning ma'lum qilishicha, bu qatlamlardan 8300 ta tosh buyum topilgan⁷¹. Uning industriyasiga ensiz proportsiyali va turli shakllardagi yirik uchirindilar xarakterlidir. Levallua texnikasida ishlangan yo'nilg'ilar ko'p emas. Nukleuslar orasida ba'zan haddan tashqari ishlov byerilgan kichik hajmli gardishsimon o'zaklar ko'pchilikni tashkil etadi. To'plamning tosh qurollari orasida qirg'ichsimonlar mavjud va yirik retushli tishsimon hamda o'yib-kyertib ishlangan qurollar ko'p uchraydi. Qirg'ichlarning uzunasiga, ko'ndalangiga ishlangan va boshqa shakllari bor. Shuningdek, ushbu qatlamlarda muste (o'rta paleolit) tipidagi paykonlar, kompozit qurollar, yo'nilg'ilar uchki qismlarida ishlangan qirg'ichchalar, kesgichlar va qo'l cho'qmorlari mavjud. Umuman, Ko'lbuloqning boshqa qatlamlari kabi o'rta paleolitga oid madaniy yotqiziqlari ham O'rta Osiyoda o'xshashi yo'q industriyaga ega bo'lib, ular tishsimon muste madaniyatiga xos deb topilgan⁷².

⁷¹ Касымов М.Р., Годин М.Х., Худайбердиев Т.Н. Домустьерские культуры на территории Узбекистана Хроностратиграфия палеолита Северной, Центральной и Восточной Азии и Америки. Новосибирск. 1992 -С. 38-49.

⁷² Касымов М.Р., Годин М.Х., Худайбердиев Т.Н. Домустьерские культуры на территории Узбекистана Хроностратиграфия палеолита Северной, Центральной и Восточной Азии и Америки. Новосибирск. 1992 - С. 38-49.

O'rta paleolit davriga oid yodgorliklar Zarafshon daryosi vodiysida ham mavjud bo'lib, ularga Omonqo'ton, Takalisoy, Ko'tirbuloq, Zirabuloq, Olmabuloq, kabi yodgorliklarni kiritish mumkin.

Zarafshon daryosi baland Tyanshan tog'laridan boshlanib, uzunligi 781 km ga teng. Hidrografik hamda gipsometrik jihatdan Zarafshon uch qismga ajraladi: Zarafshonning tog'li qismi (daryoning boshlanishidan to Panjikentgacha), Samarqand pasttekisligi (daryoning o'rta oqimi) va quyi qismi (kontinental delta). Hozirgacha ma'lum bo'lgan paleolit davriga oid barcha yodgorliklar Zarafshonning o'rta oqimida, ya'ni Samarqand pasttekisligida va uni o'rab turgan tog' va tog'oldi xududlarida joylashgan. (Zarafshon va Turkiston tog' tizmalari).

Samarqand pasttekisligining paleoekologik landshafti ibtidoiy odamlar yashashi va taraqqiy qilishlari uchun juda qulay bo'lganligini bu yerdan topilgan ko'plab paleolit davri yodgorliklari tasdiqlaydi. Bu hudud o'rta paleolitning so'nggi davridan qadimgi odamlarning neandertal tiplari tomonidan bundan 50-60 ming yillar muqaddam o'zlashtirilgan. Samarqand pasttekisligidagi bu davrga oid yodgorliklarni ochiq tipdagi va g'or tipidagi manzilgohlariga ajratish mumkin.

Omonqo'ton g'ori Samarqand shahridan 45 km. janubroqda CHakululqalion tog'larida, dengiz sathidan 1300 m balandlikda joylashgan. G'or karstli va yo'lakli tipda. Unga kirish qismining eni 1,5 m. va balandligi 0,9 m. Madaniy qatlamlar g'orning kirish joyida to'plangan. Tadqiqotchilar tomonidan bu yerda gulxan va o'choqlarning izlari aniqlanib, faunistik matyeriallarning boy kolleksiyasi hamda tosh qurollar topilgan.. Aniqlash mumkin bo'lgan suyak qoldiqlarining 60% muflonga tegishli⁷³. Qo'ng'ir ayiq va morol suyaklari qoldiqlari mavjud. Bundan tashqari, bu joyda sibir bug'usi, sibir tog' echkisi, g'or shoqoli, tulki, qulon va yana bir yarim mingga Yaqin sut

⁷³ Лев Д.Н. Древний палеолит в Аман-Кутане. (предварительное сообщение). Самарканд. 1949, с. 12; Лев Д.Н. Древний палеолит в Аман-Кутане. (Исследования 1953-1954 гг.) \ Труды Узбекского гос. Ун-та. Нов. серия. Вып. 61. 1956. С-45.

emizuvchilarning suyak qoldiqlari topilgan. G'or qatlamlaridan olingan faunistik qoldiqlar tarkibida qushlarning ikki turi va cho'l toshbaqasi suyak qoldiqlari qayd etilgan. Paleozoologik matyeriallarga asoslanib, bu yerda o'sha davrda daraxtzorlar va butazorlarga tutash ochiq o'tloqzor bo'lgan deb aytish mumkin.⁷⁴

Ta'kidlash joizki, yodgorlikda har bitta tosh qurolga 80 ta hayvon suyaklari qoldiqlari to'g'ri keladi. Bu esa Omon-qo'ton g'ori ovchilarning vaqtinchalik boshpanasi vazifasini o'tagan, deb faraz qilishga asos bo'ladi. G'orning kichik hajmdaligi ham yodgorlikning ana shunday funktsional ahamiyatga ega ekanligidan dalolat byeradi.

Takalisoy g'ori N. X. Toshkanboev tomonidan ochib o'rganilgan bo'lib, u Samarqand shahridan 50 km janubiy-sharqda dengiz sathidan 2000 m balandlikda joylashgan. G'or karstli bo'lib, marmarlashgan ohaktosh massivida hosil bo'lgan. Topilmalar g'orning ichidagi lessimon loydan topilgan. Bu joydan ko'mir qoldiqlari bilan birga 3 ta uchirindi olingan.

Go'rdara g'ori Zarafshon tizmasining shimoliy etaklarida, Samarqand shahridan 75 km janubiy-sharqda joylashgan. Bu joydan hayvon suyaklari qoldiqlari bilan birga 4 ta chaqmoqtoshdan ishlangan qurollar topilgan. Yodgorlikning madaniy-xronologik talqini Takalisoy⁷⁵ g'oridagi kabi juda murakkabdir, Chunki har ikkala yodgorliklardan ham matyeriallar juda kam topilgan.

Samarqand pasttekisligidagi ochiq tipdagi o'rta paleolit davri yodg'orligi bu Qo'tirbuloq bo'lib, u Samarqand shahridan 100 km shimoliy-g'arbda, CHarxin qishlog'i Yaqinida joylashgan. Qo'tirbuloq manzilgohi Zarafshon daryosi o'rta oqimining tor tog' oldi vodiysida, Zirabuloq tog'lari etaklaridagi buloq atrofida joylashadi.

⁷⁴ Бибикова В.И. Некоторые замечания по фауне из мустьерской пещеры Аман-Кутан \СА. № 3. 1958. С-12.

⁷⁵ Ташкенбаев Н.Х. Новые памятники древнекаменного века в Самаркандской области \ОНУ. № 11. 1971, -С-16.

Qo'tirbuloq qatlamlaridan minglab tosh buyumlar bilan birga faunistik qoldiqlar ham topilgan, ularning deyarli yarmi (49,3%) otlarga tegishlidir. Shuningdek, bu yerda tur-ho'kiz, qulon va bug'ularning ham suyak qoldiqlari aniqlangan. Shunisi qiziqarliki, Qo'tirbuloq qatlamlaridan filning jag' suyagi bo'laklari aniqlangan va bu dastavval trogontyeriy fili deb nomlangan va bu faunistik topilmayodgorlikning ilk pleystotsen davriga oidligidan dalolat byerar edi. Hozirgi kunda topilma yodgorlikdan ancha qadimiy va u Qo'tirbuloq madaniy qatlamlariga tasodifan tushib qolgan yoki u ilk pleystotsen davri trogontyeriy filining to'g'ridan to'g'ri avlodi hisoblangan xazar tipidagi mamontga tegishli deb xulosa qilingan⁷⁶.

O'rta paleolitga oid yodgorliklar Surxondaryoning Boysuntog' hududlaridan ham topilgan. Ular orasida eng mashhuri Teshik-Tosh g'ori bo'lib, u Boysun shahridan 18 km shimolda, Machaydaryoning chap qirg'og'idagi Zavtaloshsoyning o'rta oqimida joylashgan. Machaydaryo Boysuntog'ning shimoliy- g'arbiy etaklaridan oqib o'tadi va u Amudaryoga quyiladigan SHyeroboddaryoning chap irmog'i hisoblanadi. G'or kelloveysford tipidagi ohaktoshda hosil bo'lgan va hozirgi Machaydaryodan 500 m. chamasi yo`qoriroqda joylashgan. Yodgorlikning dengiz sathidan balandligi 1800 m. ni tashkil qiladi. G'orning kirish qismidagi balandligi 7 m., eni esa 20 m. dan iborat⁷⁷.

Teshik-Tosh g'ori 1938-1939 yillarda A. P. Okladnikov tomonidan o'rganilgan va ikki yil davomida uning madaniy qoldiqlardan iborat bo'lgan 137 m² barcha maydon satxi to'liq ochib o'rganilgan⁷. Yodgorlikda A. P. Okladnikov tomonidan sof yotqiziqlar bilan ajratilgan 5 ta madaniy qatlam aniqlangan. Bu qatlamlarning umumiy qalinligi 1,5 m madaniy qatlamlarning eng qalin joyi 40 sm. gacha etadi. Tadqiqotchining fikriga ko'ra, yodgorlikning

⁷⁶ Ташкенбаев Н.Х. Новые памятники древнекаменного века в Самаркандской области \ ОНУ. № 11. 1971,

⁷⁷ Окладников А.П. Мустьерская стоянка в гроте Тешик-Таш в Узбекистане \ КСИИМК. Вып. 2. 1939, с. 36;

deyarli yarmi g'orga sizib tushgan qor-yomg'ir suvlari yordamida yuvib ketilgan. 50 kv. m maydonni egallagan 1-madaniy qatlamdan taxminan 1 diametrlik gulxan aniqlanib, A. P. Okladnikovning ta'kidlashicha, olov bu yerda uzoq yonmagan, negaki, gulxan osti tuproqlari unchalik kuymagan. Neandertal bolaning qabri ham aftidan, 1-madaniy qatlam bilan bog'liq. Ikkinchi madaniy qatlamdan (maydoni 12 kv. m.) uzun tuxumsimon shakldagi (hajmi 1,6x0,6 m.) o'choq va uncha katta bo'lmagan gulxan topilgan. 3-madaniy qatlam ham 50 kv. m. maydonni egallaydi, biroq u g'orning kirish qismiga qarab cho'zilgan. Bu qatlamdan uchta o'choq topilgan bo'lib, ularning hajmi 0,4x0,4; 1,5x0,8 va 1x0,4 m. ni tashkil qiladi. 4-madaniy qatlamning (uning maydoni 30 kv. m) katta qismi ko'mir bo'laklari bilan quyo`q qoplangan, 3x3 m.lik yumaloq maydonchaga ega. Bu maydonchanning markazida katta o'choq (2x1,3 m) joylashgan. Ikkinchi o'choqning diametri 0,5 m. bo'lib, birinchisidan 3 m masofada joylashadi. Quyi 5-madaniy qatlamdan (maydoni 15 kv. m) ikkita o'choq izlari aniqlangan. Yodgorlikning barcha qatlamlaridan olingan topilmalar: tosh buyumlar va faunistik qoldiqlar ana shu o'choqlar atrofida joylashgan.

Teshik-Tosh O'rta Osiyoning faunistik matyeriallar saqlanib qolgan noyob yodgorliklaridan biridir⁷⁸. Bu yerda sibir tog' echkisi suyak qoldiqlari ko'pchilikni tashkil qiladi (83%). Shuningdek, ot, qo'ng'ir ayiq, qoplon va taxminan, g'or shoqolining qoldiqlari aniqlangan. Kemiruvchilardan quyon, kurka, sug'ur, ko'rsichqon, dala sichqon, turkiston kalamushi suyak qoldiqlari ham topilgan. Qatlamlar faunasi orasida deyarli farq sezilmaydi⁷⁹. Bundan tashqari, Teshik-Tosh qatlamlaridan 20 ga Yaqin qushlarning suyak qoldiqlari aniqlangan⁸⁰. Teshik-Toshning madaniy qatlamlaridan 2228 ta tosh buyumlar

⁷⁸ Громова В.И. Плейстоценовая фауна млекопитающих из грота Тешик-Таш, Южный Узбекистан \\
Тешик-Таш. Палеолитический человек. М. 1949, р. 44;

⁷⁹ Окладников А.П. Исследование мустьерской стоянки и погребения неандертальца в гроте Тешик-Таш, Южный Узбекистан (Средняя Азия) \\
Тешик-Таш. Палеолитический человек. М. 1949 а. -С. 67.

⁸⁰ Суслова В.П. Плейстоценовая орнитофауна из грота Тешик-Таш, Южный Узбекистан \\
Тешик-Таш. Палеолитический человек. М. 1949. с.34;

topib o'rganilgan. Ular asosan chaqmoqtoshlashgan ohaktoshdan ishlangan bo'lib, tarkibida nukleuslar, qirg'ichlar, paykonlar, kesgichlar, retushlangan uchirindilar va plastinalar mavjud. Umuman, har beshala qatlamning industriyasi bir xil va o'zgarishsiz taraqqiy etgan.

Boysuntog'dagi o'rta paleolit davriga oid ikkinchi yodgorlik bu Amir Temur g'oridir⁸¹. U uncha katta bo'lmagan shu nomli soyda, Teshik-Toshdan 1,5 km. shimolroqda joylashgan. Yodgorlik V. F. Lomaev tomonidan ochilgan va 1938-1939-yillarda A. P. Okladnikov tomonidan o'rganilgan. G'orda uchta madaniy qatlam aniqlangan bo'lib, chuqurligi 1 m. gacha etadigan 3-qatlamdan kam sonli tosh buyumlar yig'ib olingan. Ular orasida prizmasimon nukleus va yirik qirg'ich mavjud. Ushbu qatlamdan archaga taalluqli ko'mir qoldiqlari topilgan. A.P. Okladnikovning fikricha, Amir-Temir g'orining 3-qatlami Teshiktoshning ayrim qatlamlari bilan tengdoshdir. Biroq bunday deyish uchun asosli isbotlar yo'q.

O'rta paleolitga oid deb topilgan Boysuntog'dagi yana bir yodgorlik Kattaqo'rg'on bo'lib, u Teshiktoshning qarama-qarshisida, Machaydaryoning o'ng qirg'og'ida joylashgan. Bu yerda dastlabki qazishmalar 1930 -yillarda G.V. Parfyonov tomonidan amalga oshirilgan. Qazishmadan olingan matyeriallar bilan tanishib chiqqan A.P. Okladnikov, ularni Teshik-toshdagi matyeriallarga o'xshash, deb topgan⁸². Muzeydagi yodgorlik matyeriallari bilan tanishib chiqqan V.A. Ranov esa, qarama-qarshi fikrga keladi va u ushbu tosh ayvonda o'rta paleolitga oid qatlamlar yo'q, deb hisoblaydi⁸³.

O'rta paleolitga xos ko'plab matyeriallar Qizilqum hududlaridan ham topilgan. Biroq bular yig'ma matyeriallar bo'lib, madaniy qatlamlar

⁸¹ Okladnikov A.P. Amir-Temir новый памятник каменного века в горах Байсун-Тау (Узбекистан) \\\ КСИИМК. Вып. 28. 1940 в. -С. 67.; Okladnikov A.P. Amir-Temir новый памятник каменного века в горах Байсун-Тау (Узбекистан) \\\ КСИИМК. Вып. 28. 1940 в. -С. 68.

⁸² Береговая Н.А. Палеолитические местонахождения СССР. МИА. № 81. 1960. -С. 42.; Okladnikov A.P. Исследование мустьерской стоянки и погребения неандертальца в гроте Тешик-Таш, Южный Узбекистан (Средняя Азия) \\\ Тешик-Таш. Палеолитический человек. М. 1949 а. -С. 70.

⁸³ Ранов В.А., Несмеянов С.А. Палеолит и стратиграфия антропогена Средней Азии \\\ Душанбе. 1973. -С. 64-66.

saqlanmagan. Bundan tashqari, Qizilqumda o'rta paleolitga oid Ko'kcha⁸⁴ nomli toshga ishlov byerish ustaxonasini ham shu davrga oidligi aniqlangan. Ushbu davr muammolariga to'xtalib o'tadigon bo'lsak, avvalo, paleolitning boshqa bosqichlarida bo'lgani kabi bu davrning ham aniq xronologik shkalasi ishlab chiqilmagan. Hatto dunyoga mashhur Teshik-Tosh g'orining ham aniq va tan olingan sanasi yo'q. Ma'lumki, Evropada o'rta paleolit bundan 100 ming yillar burun boshlanib, 35 ming yillargacha, ya'ni zamonaviy tipdagi odam paydo bo'lgunga qadar davom etgan va bu davrda u yerda faqat neandertal tipdagi odamlar yashagan. Ammo, O'rta Osiyo hududi neandertal odami tomonidan bundan 50-60 ming yillar muqaddam o'zlashtirilgan, degan fikrlar ham mavjud⁸⁵. Ayrim yodgorliklarning sanasi borasida turlicha talqinlar bor. Masalan, Qo'tirbuloq yodg'orligi tadqiqotchilar tomonidan 60-70 ming yillar bilan davrlangan bo'lsa⁸⁶, 1990-yillarda amalga oshirilgan radiokarbon tahlillar uning sanasini 32 ming yillar bilan belgiladi⁸⁷. Shuningdek, Zirabuloq topilmajoyi uni bevosita o'rgangan tadqiqotchilar tomonidan o'rta paleolit davri bilan belgilansa⁸⁸, keyingi tadqiqotchilar uning so'nggi paleolitga taalluqligini qayd etmoqda⁸⁹. Bundan tashqari, yurtimizdagi ochiq tipdagi yodgorliklardan Qo'tirbuloq, Ko'lbuloq va boshqa manzilgohlarning geologik holatlari haqida ham turli talqinlar mavjud. Ularni bevosita o'rgangan tadqiqotchilar⁹⁰ madaniy qatlamlarni aralashmagan desalar, boshqalar⁹¹ ularni aralashib ketgan holatda yotadi, degan fikrlarni bildiradilar.

⁸⁴ Брунет Ф., Хужаназаров М.М., Сайфуллаев Б.К. Среднепалеолитическая мастерская Кукча в Кызылкумах \\\ Научный отчет о работе Франко-Узбекской археологической экспедиции в 2005 г в Акчадарье. Самарканд, 2006, с. 41-65.

⁸⁶ Ташкенбаев Н.Х., Сулейманов Р.Х. Культура древнекаменного века долины Зарафшана. Ташкент. 1980, с.16;

⁸⁸ Ташкенбаев Н.Х., Сулейманов Р.Х. Культура древнекаменного века долины Зарафшана. Ташкент. 1980, с. 171;

⁸⁹ Сайфуллаев Б.К. Палеолит долины реки Зарафшана и Северо-Восточных Кызылкумов. Автореф. Канд. Дисс. Самарканд. 2003, с. 17.

⁹⁰ Касымов М.Р. Проблемы палеолита Средней Азии и Южного Казахстана. Автореферат докт. Дисс. Новосибирск. 1990, с. 13; Ранов В.А., Несмеянов С.А. Палеолит и стратиграфия антропогена Средней Азии \\\ Душанбе. 1973, с. 94.

O'zbekiston hududlarida o'tgan asr 60-70 yillariga qadar, so'nggi paleolit davriga oid yodgorliklar sanoqligina edi. Biroq keyingi yillarda olib borilgan tadqiqotlar ular sonining anchayin salmoqli ekanligini ko'rsatmoqda⁹². So'nggi paleolit davri yodgorliklari asosan Toshkent, Zarafshon vohalari miqyosida yaxshi tadqiq etilgan.

Toshkent vohasi misolida Ko'lbuloq makonining yo'qori (I-III), madaniy qatlamlari so'nggi paleolit davri jamoalari moddiy madaniyatiga tegishlidir. Xususan bevosita yodgorlik joylashgan Ohangaron vodiysi qadimdan o'z tabiati ekalogik muxiti bo'lgan iptidoi jamoalar yashash uchun qulay maskan bo'lgan. Ko'lbuloqning so'nggi paleolitga oid madaniy qatlamini o'rganish tarixi ikki bosqichdan iborat:

Birinchi bosqich M.R. Qosimov nomi bilan bog'liq bo'lib⁹³, bu yodgorlikning ochilishidan to 1990 -yilgacha bo'lgan davrni qamrab oladi. Olingan natijalar esa qator ilmiy maqolalarda va M.R. Qosimovning doktorlik dissyertatsiyasida o'z ifodasini topgan⁹⁴. Bu davrda olib borilgan qazish ishlari natijasida Ko'lbuloqda 600 m² maydon satxi ochib o'rganilgan va №3 shurf 19 m chuqurlikgacha qazilib, 49 ta madaniy qatlam aniqlangan. Bu qatlamlar ashel (22), muste (24) va so'nggi paleolitga (3) oidligi aniqlangan hamda katta hajmda o'yib-kyertib ishlangan va teyyak tipidagi tosh qurollar topilgankim, ular O'rta Osiyoda yagona bo'lgan alohida madaniyat deb ilmiy talqin qilishga asos bo'lgan⁹⁵.

⁹¹ Ташкенбаев Н.Х., Сулейманов Р.Х. Культура древнекаменного века долины Зарафшана. Ташкент. 1980, с. 14;

⁹² Ташкенбаев Н.Х., Сулейманов Р.Х. Древнекаменный век долины реки Зарафшана. Ташкент. 1980, с. 76-97.; Ранов В.А., Несмеянов С.А. Палеолит и стратиграфия антропогена Средней Азии \ Душанбе. 1973, с. 68; Джуракулов М.Д. Самаркандская стоянка и проблемы верхнего палеолита в Средней Азии. Ташкент. 1987, с. 1-128.

⁹³ Касымов М.Р., Годин М.Х. Важнейшие результаты исследований многослойной стоянки Кульбулак \ ИМКУ. Вып. 19. 1984, с. 46-48.; Касымов М.Р., Годин М.Х., Худайбердыев Т.Н. Домустьерские культуры на территории Узбекистана \ Хроностратиграфия палеолита Северной, Центральной и Восточной Азии и Америки. Новосибирск. 1992, с. 18-20.

M.R. Qosimovning fikricha, Ko'lbuloq makonining ahamiyatli tomoni shundaki, unda ashel, muste hamda so'nggi paleolitga oid madaniy qatlamlar ketma-ket joylashgan va uzviy ravishda asheldan mustega va mustedan so'nggi paleolitga o'tish davri jarayonini ifodalangan⁹⁶.

Ko'lbuloq va uning atrofidagi yodgorliklarni o'rganishning ikkinchi bosqichi 1994-yildan boshlanadi. Bu tadqiqotlarga O'.I. Islomov rahbarlik qildi va tadqiqot jarayonida Sankt-Petyerburglik arxeolog N. K. Anisyutkin ishtirok etadi. Bu bosqich tadqiqotlari natijalari «Predvaritelnie issledovaniya dolini reki Axangaran za 1994 g.»⁹⁷ nomli kitobda o'z aksini topgan. 1994-1995-yillardagi qazishmalar avval ochilgan J2-R2-40, 41, 49-53 kvadratlarining janubiy maydon satxida amalga oshirildi qismida (30 m² ga Yaqin) olib borildi. Tadqiqotlar natijada quyidagi xulosalar olindi:

1) Yodgorlik ko'p qatlamli bo'lib, bu "madaniy qatlamlar" avvalgi qazishmalar bilan taqqoslanganda soni va namoyon bo'lishi jihatidan turlicha bo'lib chiqdi;

2) So'nggi paleolitga oid chaqmoqtosh qurollar orasida o'yib-kyertish usulida ishlov byerilganlari ko'pchilikni tashkil qiladi va bu M.R. Qosimovning O'zbekiston hududida ko'plab o'yib-kyertib ishlangan tosh buyumlarni o'z ichiga olgan alohida industriya mavjudligi haqidagi xulosalariga qisman mos keladi. Lekin M.R. Qosimov talqiqotlarida mustaqil «Ko'lbuloq madaniyati»ning ajratilishi yetarlicha ilmiy asoslanmagan;

3) Aksincha, 3- va 4-qatlam matyeriallarining katta qismi tipik mustega xos tosh buyumlar – qirg'ichlar va paykonlardan iborat bo'lib, o'yib-kyertib ishlangan qurollar faqat 4-qatlamdagina ko'pchilikni tashkil etadi. Bu esa inson faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan bo'lishi ham mumkin⁹⁸.

⁹⁶ Касымов М.Р., Дуке Х., Гречкина Т.Ю. О новых данных по каменному веку Туябугуза \ИМКУ. Вып. 15. 1979, с. 11- 15.

⁹⁷ Анисюткин Н.К., Исламов У.И., Крахмаль К.А., Хушвактов Н.О. Предварительные исследования долины реки Ахангаран за 1995 г. ИИМК. Санкт-Петербург.1995, с. 72.

⁹⁸ Анисюткин Н.К., Исламов У.И., Крахмаль К.А., Сайфуллаев Б.К., Хушвактов Н.О. Предварительные исследования долины реки Ахангаран за 1994 г. ИИМК. Санкт-Петербург. 1995, с. 16-18.

V.A. Ranov va S.A. Nesmeyanovlar Ko'lbuloqda madaniy qatlamlarning mavjudligini shubha ostiga qo'yadilar. «Bu shubha yodgorlikda turli xildagi (davriy va patina jihatidan) arxeologik matyeriallarning aralashib yotganligi bilan isbotlanadi. Chunki, qatlamlarda muste davriga oid tosh buyumlar bilan birga so'nggi paleolitga oid mayda tosh buyumlar qorishib yotadi. Bundan tashqari, bu yerdagi muste davri matyeriallari ko'proq patinizatsiyalashgan va ba'zan, emirilgan. Aftidan, qatlamlardagi muste va so'nggi paleolit davri matyeriallarining ko'milib qolishi har xil davrlarda sodir bo'lgan. Bunday turli xil tosh buyumlarning bir davrda yasalganligi shubhalidir. Shuning uchun, aytish mumkinki, Ko'lbuloqning yo'qori qatlamlaridagi (I-III) faqat so'nggi paleolitga xos buyumlar mahalliy kelib chiqish xarakteriga ega bo'lib, mustega xos matyeriallar esa boshqa joydan kelib qolgan. Ularning qanday kelib qolganligi noma'lum. ehtimol, arxeologik matyeriallarning ko'pchiligi Ko'lbuloqdan yo'qoriroqda joylashgan soylardan oqizib keltirilgan. Ularning bu yerda to'planishi Ko'lbuloqning geomorfologik holati bilan bog'liq. Gap shundaki, Yo'qoridagi Jarsoy Ko'lbuloqqa kelib, keskin past qiyalik hosil qiladi va ehtimol, Shuning uchun bu yerga sel oqiziqlari yotqizilgan bo'lishi mumkin. Ko'lbuloqdagi qalin tosh g'o'lalaridan iborat qatlamlari ham ana shunday sel oqiziqlari bilan bog'liq bo'lishi mumkin»⁹⁹.

Ko'lbuloqning yo'qori qatlamlari matyeriallari, xususida «Paleolit SSSR» kitobida Z.A. Abramova tomonidan mahalliy tishsimon mustedan o'sib chiqqanligi haqidagi fikrlari muxum hisoblanadi.¹⁰⁰

So'nggi paleolit davriga oid Toshkent vohasidagi yana bir yodgorlik Chirchiq daryosi tyerrassalaridan topilgan Dodekadim topilmajoyidir. Bu joyda 2005-yili O'zbek-Rossiya qo'shma ekspeditsiyasi xodimlari tomonidan amalga oshirilgan so'nggi paleolit davrining oxirgibosqichlariga oid tosh qurollar

⁹⁹ Ранов В.А., Несмеянов С.А. Палеолит и стратиграфия антропогена Средней Азии // Душанбе. 1973, с. 94.

¹⁰⁰ Абрамова З.А. Ранний палеолит Азиатской части СССР // Палеолит СССР. М. 1984, с. 308.

topilgan¹⁰¹.

Yurtimizda so'nggi paleolit yodgorliklariga eng boy hudud bu Zarafshon daryosi vodiysi hisoblanadi. Hududning asosiy yodgorliklaridan biri Samarqand makonidir. U CHashmasiyobning o'ng qirg'og'ida, bevosita Samarqand shahri hududida, hozirgi akvapark o'rnida joylashgan bo'lgan. Yodgorlik 1939 -yili N .G. Xarlamov tomonidan ochilgan va shu yilda uning tomonidan shurf qazilgan. Makonni o'rganish ishining ikkinchi bosqichi D.N. Lev nomi bilan bog'liq uning rahbarligida qazish ishlari 1958 -yildan 1967-yilgacha olib borilgan. 1970-1973-yillarda Samarqand makonini o'rganish ishlari M.J. Jo'raqulov va E.N. Amartsevalar tomonidan davom ettirildi. Turli yillarda yodgorlikni qazish ishlarida V.V. SHumov, A.A. YUrev, G.F. Tetyuxin va S.A. Nesmeyanov kabi geologlar ham ishtirok etgan. Yodgorlikda jami 1000 m² joy ochib o'rganilgan. Qazishmalardan boy faunistik matyeriallar olingan. eng ko'pchilikni tashkil etgan suyak qoldiqlari bu otlarga taalluqli bo'lib, ular barcha aniqlangan suyak qoldiqlarining yarmini tashkil qiladi. Keyingi pozitsiyalarni pleystotsen eshagi va ibtidoiy tur egallaydi. Bundan tashqari, qatlamlardan kamroq knobloxa tuyasi, buxoro bug'usi va cho'l qo'yi hamda nisbatan kam miqdorda jayron, to'ng'iz, bo'ri va qulon qoldiqlari topilgan. Shuningdek, aniqlash qiyin bo'lgan fil yoki karkidonlarning naysimon suyaklari hamda kamroq qushlar va toshbaqalarning kam sonli suyak qoldiqlari aniqlangan. Samarqand manzilgohidan topilgan fauna qoldiqlariga ko'ra, uning atrofidagi daryo vodiylarida to'qayzor o'simliklar maydonlariga ega bo'lgan cho'l va yarimcho'l landshaftdan iborat bo'lgan¹⁰². Samarqand makonidan minglab tosh buyumlar topilgan bo'lib, ular orasida nukleuslar, uchirindilar, plastinalar, qirg'ichlar, ponasimon qurollar, teshgichlar, kesgichlar, qirg'ichchalar, retushlangan plastinalar hamda galkadan ishlangan qurollar mavjud. Samarqand makonida 7 ta madaniy qatlam aniqlanib, ulardan

¹⁰¹ Деревянко А.П., Исламов У.И., Кривошапкин А.И. и др., 2007. С. 156;

¹⁰² Лев Д.Н. Самаркандская палеолитическая стоянка \ИМКУ. Вып. 6. 1965,

minglab tosh buyumlar, boy fauna bilan birgalikda o'choq qoldiqlari, odam suyagining bo'laklari hamda oxra qoldiqlari topilgan.

Samarqand pasttekisligida bir-biridan qiziqarli yana qator so'nggi paleolit davri yodgorliklari ochib o'rganilgan, ularga Siyobcha (Samarqandning shimoliy chekkasida), Zirabuloq (Zirabuloq tog'lari hududida) va Samarqanddan 70 km janubi-sharqiy tomonida, Turkiston tog' tizmasi etaklarida joylashgan Xo'jamazgil makonlarini kiritish mumkin. Ushbu topilmajoylarning matyeriallari Samarqand makoninikiga juda o'xshash bo'lganligi uchun bu yerda Samarqand so'nggi paleolit davri madaniyatiga tegishli jamoalar yashagan deb xulosa chiqarish mumkin¹⁰³.

Yo'qorida tilga olingan yodgorliklardan tashqari, so'nggi paleolitga oid buyumlar Samarqand va uning atrofidagi qator punktlardan aniqlangan. Bular jumlasiga Afrosiyob shahar xarobasidan 1,5-2 km shimolroqdan¹⁰⁴, Shuningdek, Samarqanddan 50 km sharqda joylashgan Ravotxo'ja qishlog'idan, G'ishali va Kattaqishloqdan topilgan matyeriallarni misol sifatida keltirish mumkin.

So'nggi paleolitga oid yana bir yodgorlik sifatida Qashqadaryo viloyatining Kitob tumanidagi tog'li hududdan topilgan Angillak g'or makoni xisoblanadi. G'or so'nggi paleolit davri ovchilari uchun vaqtinchalik boshpana vazifasini o'tagan. Bu yerdan mingga Yaqin tosh buyumlar bilan birgalikda asosan toshbaqaning ko'plab suyak qoldiqlari topilgan¹⁰⁵.

Yo'qorida ta'kidlanganidek, tadqiqotlarida o'rta paleolitning oxirlariga tegishli bo'lgan Toshkent vohasidagi Obirahmat g'ori matyeriallari keyingi yillarda olib borilgan tadqiqotlar natijasida o'rta paleolitdan so'nggi paleolitga

¹⁰³ Ташкенбаев Н.Х. Некоторые данные по палеолиту Зарафшанской долины // ИМКУ. Вып. 21. 1987, с. ; Ташкенбаев Н.Х., Сулейманов Р.Х. Культура древнекаменного века долины Зарафшана. Ташкент, 1980, с. 86-91.

¹⁰⁴ Ташкенбаев Н.Х. Некоторые данные по палеолиту Зарафшанской долины // ИМКУ. Вып. 21. 1987, с.

¹⁰⁵ Ташкенбаев Н.Х., Сулейманов Р.Х. Культура древнекаменного века долины Зарафшана. Ташкент. 1980, с. 86-91.

o'tish, davrini aks ettirgan¹⁰⁶ va so'nggi paleolitning boshlanishiga xos yodgorlik deb belgilangan. Biroq, keyingi faktlar bunday deyish uchun yetarlicha asos yo'qligini ko'rsatmoqda. Birinchidan, g'orning madaniy qatlamlaridan olingan absolyut davriy sanalar 87-36 ming yillar oralig'i bilan belgilanadi; ikkinchidan, yodgorlikning 16-madaniy qatlamidan topilgan paleoantropologik topilmalar ko'proq neandertal tipidagi odamlarga xosdir. Shuning uchun, Obi Raxmat g'ori asosida "ilk so'nggi paleolit" iborasining qo'llanilishi yetarlicha dalillarga ega emas.

Keyingi tadqiqotlar natijasida yurtimizdagi so'nggi paleolit davrining klassik yodgorliklari - Samarqand makoni, Ko'lbuloqning yo'qori qatlamlari (I-III) qatoriga O'rta Zarafshon vodiysidagi Zirabuloq topilma joyi va Qashqadaryo viloyati, Kitob tumani hududidagi Angillak g'or makonlari kiritildi¹⁰⁷. Biroq, Angillak g'ori madaniy qatlamlarining 42-27 ming yillar bilan belgilangan absolyut davriy sanasi bo'lishiga qaramasdan, uning matyeriallarini o'rta paleolit davriga oid, degan fikrlar ham mavjud¹⁰⁸. Yodgorlik industriyasidagi qiyshiq kesib retushlangan plastinalar (2 ekz.) gravetti davri uchun tipik bo'lib, qatlamlarning absolyut sanasini tasdiqlaydi. Hozirgacha paleolit davrining boshqa bosqichlarida bo'lgani kabi ularning xronologik shkalasi ishlab chiqilmagan. Masalan, Samarqand makonining va Ko'lbuloqning yo'qori qatlamlari matyeriallarining ham sanasi masalasida turli fikrlar mavjud. Samarqand makoni sanasi dastavval 30-40 ming yillar bilan belgilangan bo'lsa¹⁰⁹, keyinchalik 15-20 ming yillar bilan belgilandi¹¹⁰. Ko'lbuloqning so'nggi paleolitga oid matyeriallari uni bevosita o'rgangan M.R.

¹⁰⁶ Деревянко А.П., Исламов У.И., Петрин В.Т., Сулейманов Р.Х., Алимов К., Кривошапкин А.И., Анойкин А.А., Милютин К.И., Сайфуллаев Б.К. Исследования грота Оби Рахмат (Республика Узбекистан) в 1999 г. Проблемы археологии, этнографии, антропологии Сибири и сопредельных территорий. Новосибирск: Изд-во ИАЭТ СО РАН, 1999.

¹⁰⁷ Сайфуллаев Б.К. Палеолит долины реки Зарафшана и Северо-Восточных Кызылкумов. Автореф. дисс. кандист. наук. Самарканд, 2003, с. 17; Сулейманов Р.Х., Гланц М. Грот Ангиллак в Китабском районе Кашкадарьинской области ОНУ, 2003, с. 33.

Qosimov tomonidan (1990) shu davrning boshlariga oid, deb topilgan bo'lsa, boshqa tadqiqotchilar uni so'nggi paleolitning oxirlariga xos, deb hisoblaydilar¹¹¹. Bundan tashqari, Ko'lbuloqning so'nggi paleolitga xos qatlamlarining geologik holati haqida ham-xilma xil qarama-qarshi fikrlar mavjud. Uni qazib o'rgangan mutaxassislar (M.R. Qosimov) madaniy qatlamlar stratigrafik jihatdan aralashmagan desalar, boshqa bir guruhlar ushbu qatlamlarni va Shuning bilan birga undagi matyeriallarni aralashib ketgan, deb hisoblaydilar¹¹². Bu masalaga hozirda endigina boshlangan O'zbek-Rossiya-Belgiya qo'shma ekspeditsiyasining Ko'lbuloqdagi tadqiqotlari yanada oydinlik kiritadi.

Shunday qilib, O'zbekistonning paleolit davri arxeologiyasi yurtimiz tarixining eng qiziqarli va munozaralarga boy ekanligini yana bir bor e'tirof qilishimiz mumkin. YUrtimiz hududlari ibtidoiy odamlarning shakllanishi va taraqqiy topishida muhim ahamiyatga molik maskanlardan biri ekanligi bu yerdagi mavjud arxeologik yodgorliklar misolida isbotlangan. Bundan 1,5 mln. yillar muqaddam xomo yerektuslar Afrika va Evrosiyoda keng tarqalgan. Evrosiyoda ularning eng qadimgi qoldiqlari 1 mln. yillar atrofida sanalanib, to 100 000 yillargacha yashab kelgan¹¹³. Xomo yerektuslar qoldiqlarining fanda

¹¹¹ Сайфуллаев Б.К., Хушвақтов Н.О., Қурбонбоев И.М. О позднем палеолите Узбекистана (по материалам новых техника-типологических исследований каменной индустрии верхних (I-III) слоев Кульбулака. ИМКУ. Вып. 35. 2006, с. 26;

¹¹² Ранов В.А., Несмеянов С.А. Палеолит и стратиграфия антропогена Средней Азии \ Душанбе. 1973, с. 94.

¹¹³ Vandermeersch B., 1988. Dictionnaire de la Préhistoire. Universitaires de France, Paris, p. 61 et 516.

XULOSA

Insoniyat tarixining eng muhim, shuning bilan birga eng uzoq davom etgan bosqichi tosh asri hisoblanadi. Monotsentristik nazariyaga ko`ra dastavval Afrika qit'asida paydo bo`lgan eng qadimgi gominidar – xomo xabilislar bundan 2 mln. yillar muqaddam Evrosiyo materigiga tarqaldilar. O`tmishdoshlarimizning keyingi fizik tiplari xomo yerektuslar, neandertallar hamda zamonaviy odamlarning (xomo sapiens sapienslar) paydo bo`lishi va taraqqiyotida Evrosiyo hududlari muhim rol o`ynadi. Shu ma'noda rang-barang tosh asri yodgorliklariga boy O`zbekiston hududi insoniyat shakllanishi taraqqiyotiga bebaho ulush qo`shgan maskanlardan biridir.

Ilk paleolit davri arxeologik materiallarining guvoxlik berishicha, O`zbekiston Evrosiyaning eng qadimgi antropogen jarayonlari sodir bo`lgan hududlaridan biri hisoblanadi. Yurtimizdagi Selung`ur kabi 1,5 mln. yillar bilan sanalanadigan yodgorliklar bu mintaqada barmoq bilan sanalarli darajada kamyob va noyobdir. Unga tengdosh yodgorliklar Yaqin Sharqda (Ubaydiya) Frantsiya (Voloney), Italiya (Izerniya), Ispaniya (Atapurka), va Gruziya (Dmanissi) hududlaridagina yakka tartibda mavjud xolos.

Ilk paleolitning boshlarida O`zbekiston hududlarida dastlabki xomo yerektuslar paydo bo`ldi va qulay tabiiy iqlim sharoitlari va shunga mos fauna hamda flora ularning muvaffaqiyat bilan rivojlanishi uchun asosiy omil vazifasini o`tadi. Arxeologik, paleontologik, palinologik, paleoantropologik va boshqa ma'lumotlarga ko`ra, yurtimizda yashagan yerektuslar bir necha yuz ming yillar davomida muvaffaqiyat bilan taraqqiy etganlar, mislsiz moddiy-madaniy yutuqlarga erishganlar.

Selung`ur g`ori tosh industriyasining texnik-tipologik tasnifi shuni ko`rsatdiki, bundan 1,5 mln yillar muqaddam yashagan ajdodlarimiz avval boshdan evropalik tengdoshlaridan farq qiladigan, o`ziga xos Osiyocha

xarakterdagi taraqqiyot yo`liga ega bo`lganlar. Bu davr aholisining asosiy mashg`uloti ovchilik va atrofdagi mavjud bo`lgan, yeyishga yaroqli o`simliklar mevalarini termachiligi bo`lgan.

Biroq, Selung`ur g`or makonining madaniy-davriy interpretatsiyasi bo`yicha xorijiy adabiyotlarda yo`qorida ta'kidlanganidek, turlicha qarama-qarshi fikrlarning mavjudligini yaxshi xolat deb bo`lmaydi.

O`zbekistonning ilk paleolitida Selung`urdan keyingi o`rinlarni undan xronologik jihatdan 1 mln. yillarga yosh bo`lgan Ko`lbuloq, Qizilolma, Bo`kantoq kabi yodgorliklar egallaydi. Demak, yurtimizning paleolit davri tarixida hozirda qariyb 1 mln yillik bo`shliq mavjud va bu keyingi tadqiqotlar natijasida to`ldiriladi, deb umid qilish mumkin.

O`rta paleolit haqida gapirganda, hozircha faqat neandertallar to`g`risida fikr yuritishimiz mumkin. Bu davrga oid eng yaxshi o`rganilayotgan makon bu Toshkent vohasidagi Obirahmat g`oridir. Uning o`rtacha absolyut sanasi 60-50 ming yillar bilan belgilangan. Shu davrga oid Teshiktosh, Qo`turbuloq, Omonqo`ton va boshqa yodgorliklar ham yosh jihatidan Obiraxmatdan unchalik katta emas. Negaki, agar yurtimizdagi barcha o`rta paleolit davri yodgorliklari neandertallarga tegishli ekan, bu tipdagi gominidlarning Osiyo erlariga bundan uzog`i bilan 50-60 ming yillar burun kirib kelganligini ko`rsatuvchi dalillarni hisobga olsak, bu fikrni to`g`ri deb hisoblash mumkin. Darhaqiqat, bundan 100000 yillar muqaddam G`arbiy Evropada paydo bo`lgan neandertallar O`rta Yyer dengizi bo`ylab asta sekinlik bilan sharqqa qarab siljiganlar. Orada 30000-40000 yil vaqt o`tganidan keyin ular O`rta Osiyo xuddudlariga kirib kelishgan. Aytish mumkinki, yurtimiz hududlari so`nggi neandertallar tomonidan o`zlashtirilgan va ko`plab arxeologik materiallarning guvohlik berishicha, bu davrga kelib ularning industriyasi zamonaviy odamlarning tosh sanoatiga juda o`xshash bo`lgan. Obiraxmat g`ori materiallari buning yorqin misolidir.

O`zbekistonning so`nggi paleoliti haqida gapirganda, avvalo shuni ta'kidlash joizki, ushbu davrda paydo bo`lgan zamonaviy tipdagi odamlar ko`ra

yurtimizga so`nggi paleolitning o`rtalarida kirib kelganlar va uning ikkinchi yarmida keng tarqalishib, keyingi o`rta tosh madaniyatlarining shakllanishiga zamin hozirlaganlar. O`zbekistonda so`nggi paleolit davriga oid eng qadimgi yodgorlik bu Qashqadaryo viloyati, Kitob tumani tog`larida joylashgan Angillak makonidir. Uning absolyut sanasi 42000-27000 yillar bilan belgilangan. Bu davrga oid boshqa yodgorliklarning (Ko`lbuloqning yo`qori qatlamlari, Samarqand madaniyati yodgorliklari, Dodekatim va boshqalar) yoshi 28-20 ming yildan oshmaydi. Lekin ana shu so`nggi paleolitning o`rtalaridan boshlab, keyingi mezolit va neolit davrlaridagi madaniyatlar uzluksiz taraqqiy etgan va mahalliy ildizlarga bo`lgan.

Malumki, so`ngi paleolitning boshlanishi hamma joyda zamonaviy tipdagi odamning (xomo sapiens) paydo bo`lishi bilan xarakterlanadi. Xozircha yer yuzida topilgan zamonaviy odamlarning eng qadimgisi Fransiyaning Kramanon g`oridan topilgan shu nom bilan ataladigan paleoantropologik topilma hisoblanadi. Biroq, ushbu tipdagi odamlarning genezisi masalasi hozirda jumboqligicha qolmoqda. Jismoniy jihatdan zamonaviy odamlarga eng Yaqin gominidlar tipi – arxaik ko`rinishga ega bo`lgan xomo sapiens arxaiklardir. Monotsentrik nazariyaga ko`ra xomo sapiens arxaiklar bundan 200 -150 mingyillar muqaddam Markaziy Afrikada paydo bo`lganlar (Sahroyi - Kabir hudularidan topilgan paleoantropologik topilma misolida). So`ngra ushbu tipdagi gominidlar bundan 100-80 ming yillar burun Yaqin Sharqqa ko`chib keladilar. Ammo shu erda arxaik xomo sapienslarning izlari yo`qolib, ularning keyingi taqdirlari hozircha fanda noma'lum.

Hozirgi vaqtda yurtimizdagi Obiraxmat g`oridan topilgan paleoantropologik topilmalar xususida qator fikrlar bildirilmoqda. Adabiyotlarda ushbu topilmaning neandertal odami bilan zamonaviy odamning chatishuvi natijasida dunyoga kelgan gibridligi yoki bo`lmasa, neandertal odamlarining zamonaviy odamlarga aylanishi jarayonidagi bir bo`g`in bo`lganligi haqida fikrlar bildirilmoqda. Biroq, paleoantropologik va paleogenetik mutaxassislar

ushbu topilmaning qaysi individga xosligi haqida aniq va dadil fikr aytishdan hozircha o`zlarini tiyishmoqda. Bundan tashqari, xozirgi kunda ushbu paleoantropologik topilmaning DNK tahlillari amalga oshirilganicha yo`q. Obiraxmat odami haqidagi bugungi ma'lumotlar odamning paydo bo`lishi borasida nazariy qarashlarga asos bo`lish uchun yetarli emas, deb hisoblaymiz. Bundan tashqari, hali umum e'tirofga sazovor bo`lmagan yo`qoridagi ma'lumotlar paleoantropologiya fanining ikki asrlik ilmiy tajribasini yo`qqa chiqara olmaydi.

O`rta tosh asrida O`zbekistonda Markaziy Farg`ona, Sazag`on va Qizilqum kabi mustaqil madaniyatlar shakllangan va tariximizning keyingi neolit davri madaniyatlarining shakllanishini ta'minlaganlar. Mezolit davri yodgoriklarimiz toshga ishlov berish texnikasining eng yo`qori cho`qqisi hisoblangan mikrolit qurollar yasashning nihoyat darajada ravnaq topganligi bilan xarakterlanadi. Bu davrda o`q-yoy, ayrim yovvoyi hayvonlarni xonakilashtirish bilan birga, tasviriy san'at paydo bo`ldi. Zarautsoy, Sarmishsoy, Morguzar kabi tog`lar qoya toshlaridagi suratlar o`sha davr aholisining xo`jaligi va madaniy hayoti, urf-odatlar, dunyoqarashi, mehnat faoliyatlari va boshqa ko`plab muhim ma'lumotlarni beradi.

Yangi tosh davriga kelib O`zbekiston hududlarida Kaltaminor, Sazag`on va Markaziy Farg`ona kabi mustaqil madaniyatlar shakllanadi. Shu davrdan sopol ishlab chiqarish boshlanadi. Bundan tashqari, ularga nashlar yordamida zeb berish paydo bo`ldi. Yashash uchun ixtisoslashgan imoratlarda isitish tizimiga ega markaziy olovli va ma'lum bir konstruksiyali uy joylarning qurila boshlanishi bu davrda me'morchilikning paydo bo`lganligidan dalolat beradi (Jonbos 4). Ta'kidlash joizki, Yaqin kunlargacha Kaltaminor madaniyati janubdagi sinxron, lekin o`troqlashgan yodgorliklar bilan taqqoslanib, unga nisbatan "primitiv neolit" va ba'zan taraqqiyotdan ortda qolgan neolit, iborasi qo`llanilib kelindi. Biroq keyingi tadqiqotlar Kaltaminorliklarni nafaqat ovchi va baliqchilar, balki chorvadorlar ham bo`lganliklarini ko`rsatmoqda (Oyoqqagitma

materiallari). Aytish mumkinki, janubning o'troq va primitiv dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi qabilalari bilan doimiy madaniy aloqada bo'lgan Kaltaminorliklar moxir chorvadorlar va baliqchilar bo'lishganlar. Ilk golotsen davridagi qulay iqlim sharoitlariga ega "ming ko'llar mamlakati" bo'lgan Qizilqum hududlari neolit davri jamoalarini ana shunday hayot tarzi yuritishlariga asos bo'lgan va bu o'sha davr aholisining kundalik turmush tarzi talablariga to'la mos kelgan.

O'zbekistonda tosh asri yodgorliklari qator o'ziga xosliklari bilan qo'shni hududlar materiallaridan ajralib turadi. Bu narsa avvalo, ularning xronologiyasida namoyon bo'ladi. Dunyoning boshqa qit'alari uchun qabul qilingan xronologik ishlanmalar yurtimiz yodgorliklariga mos kelmaydi. Yo'qorida ta'kidlaganimizdek, O'zbekiston o'rta paleoliti uchun Evropada qabul qilingan va bizda hozirga qadar shablon sifatida qo'llanilib kelinayotgan jadval o'zini oxshamayapdi. Hozirgacha qo'limizdagi faktik materiallar asosida bu davr bizda bundan 60-50 ming yillar muqaddam boshlangan deyish mumkin. Demak, yurtimizda o'rta paleolitning boshlanishi shu davrning o'rtalariga to'g'ri keladi. So'nggi paleolit davri materiallari haqida ham xuddi shunday fikrni aytish mumkin. Hozirgacha bizga ma'lum so'nggi paleolit davri yodgorliklarining eng qadimiysi 27 ming yillar bilan belgilangan. Qolgan yodgorliklar sanasi esa, yo'qorida ta'kidlaganimizdek, davrning ikkinchi yarmiga to'g'ri keladi. Mezolit davri boshqa hududlarda yer. av. 12 ming yillikdan boshlansa, O'zbekistonda bu davr yodgorliklarining eng qadimiylari yer . av. 11 ming yilliklar bilan belgilanadi va bu ham ko'pchilik mutaxassislar tomonidan shubha ostiga olinganligini yo'qoridagi boblarda ko'rib o'tdik.

O'zbekistonda tosh asri yodgorliklaridan topilgan moddiy manbalar ham o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Masalan, paleolit davrida yashagan gominidlar tosh qurollar yasash uchun xom-ashyoning nisbatan sifatsiz jinslaridan foydalanganlar. Bu hol ularning sifatli materiallarni bilmasliklaridan emas, balki sifatli tosh jinslar zaxiralarining tanqisligidan deb qabul qilishi lozim. Negaki,

yodgorliklarda kam miqdorda bo'lsada, ishlov berilgan sifatli xom-ashyo - kremniy na'munalari uchraydi. Biroq, ular haddan tashqari ishlangan kichik hajmlarga ega yoki ular haddan tashqari tejamkorlik bilan ishlatilgan. Bu narsa, yurtimizda paleolit davridanoq xom ashyoni tejash bilan bog'liq paleoekonomikaning kuchayishiga olib kelgan.

O'zbekistondagi o'rta va so'nggi paleolit davri yodgorliklari tosh buyumlari orasida avvalgi davrlarga xos bo'lganlari ko'p uchraydi. Yevropa hududlarida esa aksincha, ma'lum bir davrga xos buyumlar boshqa davrga kelganda butunlay muomaladan chiqariladi. Yodgorliklarimiz ana shunday an'anaviy xususiyatlariga ham ega bo'lib, bu ko'p hollarda ularga arxaiklik ko'rinishini beradi.

Yurtimiz hududlaridan tosh asriga oid antropologik materiallar juda kam. Ammo topilgan barcha topilmalar bu erda tosh asrida evropoid irqiga mansub aholi yashaganligini ko'rsatmoqda.

Shunday qilib, O'zbekiston hududlari tosh asri yodgorliklariga juda boy va ular insoniyat taraqqiyotiga bebaho hissa qo'shgan materiallarga ega. Bu yodgorliklar rang-barangligi, o'ta qiziqarliligi va o'ziga xosligi bilan ajralib turadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q. «Fan» T 1998.
2. Abramova Z.A. Ranniy paleolit Aziatskoy chasti SSSR Paleolit SSSR. M. 1984.
3. Abramova Z.A. Grot Teshik-Tash – pamyatnik mirovogo znacheniya \\\ Problemi vzaimosvyazi prirodi i obshestva v kamennom veke Sredney Azii. Tashkent. 1988.
4. Anisyutkin N.K., Islamov U.I., Kraxmal K.A., Xushvaktov N.O. Predvaritelnie issledovaniya dolini reki Axangaran za 1995 g. IIMK. Sankt-Petyerburg. 1995.
5. Anisyutkin N.K., Islamov U.I., Kraxmal K.A., Sayfullaev B.K., Xushvaktov N.O. Novie issledovaniya paleolita v Axangarane (Uzbekistan). Sankt-Petyergburg. 1995.
6. Askarov A.A., Lev D.N. Drevneyshie sledi prebivaniya cheloveka na tyerritorii Samarkanda Istoriya Samarkanda, t. 1. Tashkent. 1969.
7. Batirov B.X., Batirov A.R. Iskopaemie mlekopitayushie peshyeri Selungur Problemi vzaimosvyazi obshestva v kamennom veke Sredney Azii. Tashkent. 1988.
8. Byeregovaya N.A. Paleoliticheskie mestonaxojdeniya SSSR. MIA. № 81. 1960.
9. Bibikova V.I. Nekotorie zamechaniya po faune iz mustyerskoy peshyeri Aman-Kutan SA. № 3. 1958.
10. Bijanov E.B. Vyernepaleoliticheskie mestonaxojdeniya s Yugo-Vostrchnogo Ustyurta VKKFAN UzSSR. 4. 1980.
11. Brunet F., Xujanazarov M.M., Sayfullaev B.K. Srednepaleoliticheskaya mastyerskaya Kukcha v Kizilkumax Nauchniy otchet o rabote Franko - Uzbekskoy arxeologicheskoy ekspeditsii v 2005 g v Akchadare. Samarkand, 2006.

12. Vinogradov A.V. Oxotniki i ribolovi sredneaziatskogo mejdkrechya. M. 1981.
13. Vakturskaya N.N. O poezdke v Yujnie Kizilkumi v 1955 g. MXE, vip 1. 1959.
14. Vinogradov A.V. Rannekelteminarskaya stoyanka Kunyak 1. KSIE, vip. 30. 1958.
15. Vinogradov A.V. Novie neoliticheskie naxodki Xorezmskoy ekspeditsii AN SSSR v 1957 g. MXE, vip. 4, 1960.
16. Vinogradov A.V. Novie matyeriali dlya izucheniya kelteminarskoy kulturi. MXE, vip. 6. 1963.
17. Vinogradov A.V. K voprosu o yujnix svyazax kelteminarskoy kulturi. SE, № 1. 1957a.
18. Velichko A.A., Kremenetskiy K.V., Markova A. K., Udartsev V.P. Paleoekologiya ashelskoy stoyanki Selungur (predvaritelnoe soobshenie) Problemi vzaimosvyazi obshestva v kamennom veke Sredney Azii. Tashkent. 1988.
19. Velichko A.A., Arslanov X.A., Gerasimova S.A., Islamov U.I., Kremenetskiy K.V., Markova A. K., Udartsev V.P., Chikolini N.I. (Sovetskaya Srednyaya Aziya) Xronostratigrafiya paleolita Severnoy, Tsentralnoy i Vostochnoy Azii i Ameriki. Novosibirsk. 1990.
20. Vishnyatskiy L.B. Izuchenie paleolita Sredney Azii (matyeriali, metodi, kontseptsii) SA. № 1. 1989a.
21. Gamburg B.Z., G`orbunova N.G. Novie dannie kulturi epoxi bronzi v Fyerganskoy dolini. SA, № 3. 1958.
22. G`orbunova N.G., Oboldueva T.G. Raboti v zone stroitelstva Sentralnogo Fyerganskogo kanala. AO, 1967 g. M.: 1968.
23. G`orbunova N.G., Kulik T.I., Oboldueva T.G., Timofeev V.I. Raboti Fyerganskoy ekspeditsii. AO, 1970 g. M.: 1971.

24. Grig`orev G.P. Teshiktash i muste Sredney Azii 1988 Problemi vzaimosvyazi prirodi i obshestva v kamennom veke Sredney Azii. Tashkent. 1988.
25. Gromova V.I. Pleystotsenovaya fauna mlekoptyayushix iz grota Teshiktash, Yujniy Uzbekistan Teshiktash. Paleoliticheskiy chelovek. M. 1949.
26. Gryaznov M.P., Okladnikov A.P. Pyervobitnoobshinniyy stroy. V kn.: Istoriya Kirgizii, t. 1, gl. 1. Frunze. 1963.
27. Gulyamov YA.G. Arxeolgicheskie raboti k zapadu ot Buxarskogo oazisa. TIIA AN UzSSR. Vip. 8. 1956.
28. Dyerevyanko A.P., S.V. Markin, S.A. Vasilev. Paleolitovedenie: Vvedenie i Osnovi Izdvo "NAUKA" Novosibirsk, 1994.
29. Dyerevyanko A.P., A.I. Krivoschapkin, A.A. Anoykin, U.I. Islamov, Petrin V.T., Suleymanov R.X., Sayfullaev B.K. Ranniy vyerniy paleolit Uzbekistana: Industriya grota Obiraxmat (po matyerialam sloev 2-14) Arxeologiya, etnografiya i antropologiya Evrazii 4 (8). Novosibirsk, 2001.
30. Dyerevyanko A.P., Markin S.V., Vasilev S.A. Paleolitovedenie: vvedenie i osnovi. Novosibirsk, 1994.
31. Dyerevyanko A.P., Anoykin A.A., Krivoschapkin A.I., Milyutin K.I., Islamov U.I., Sayfullaev B.K. Novie dannie o paleoliticheskix industriyax peshyeri Paltau (Respublika Uzbekistan) Problemi kamennogo veka Sredney i Sentralnoy Azii. Izdvo Instituta arxeologii i etnografii SO RAN. Novosibirsk, 2002.
32. Dyerevyanko A.P., Islamov U.I., Petrin V.T., Suleymanov R.X., Alimov K., Krivoschapkin A.I., Anoykin A.A., Milyutin K.I., Sayfullaev B.K. Issledovaniya grota Obi Raxmat (Respublika Uzbekistan) v 1999 g. Problemi arxeologii, etnografii, antropologii Sibiri i sopredelnix tyerritoriy. Novosibirsk: Izdvo IAET SO RAN, 1999.

33. Dyerevyanko A.P, Krivoshapkin A.I, Anoykin A.A, Milyutin K.I., Islamov U.I, Sayfullaev B.K. Issledovanie grota Obiraxmat (Respublika Uzbekistan)
60. Djurakulov M.D. Samarkandskaya stoyanka i problemi vyernego paleolita v Sredney Azii. Tashkent. 1987.
61. Djurakulov M.D. Kamenniy vek basseyna Zarafshana. Avtorefyerat dok. Diss. Samarkand.1992.
62. Djurakulov M.D. Nekotore itogi issledovaniya neoliticheskoy stoyanki v selenii Sazagan ONU, № 6. Tashkent. 1983a.
63. Djurakulov M.J. Issledovanie arxeologicheskoy ekspeditsii SamGU neoliticheskoy stoyanki Sazagan 2 v 1981 g. Matyeriali nauchnoy kofyerentsii professorskogo - prepodovatelskogo sostava ist. Faka SamGU im. A. Navoi, posvyashennoy 60 letiyu obrazovaniya SSSR. Samarkand. 1992.
64. Djurakulov M.D., Xolyushkin YU.P. Topori i rubyashie orudiya Samarkandskoy vyernepaleoliticheskoy stoyanki Trudi SamGU. Nov. syeriya. Vip. 218. Samarkand, 1972.
65. Djurakulov M.D., Mamedov e.D. Geologiya arxeologicheskix pamyatnikov Zyeravshana. Tashkent, 1986.
66. Djurakulov M.D., Xolmatov N.U. Mezolit i neolit srednego Zarafshana. Tashkent. 1991.
67. Djurakulov M.D., Avanesova N.A. Raboti SamGU AO, 1986 g. M.: "Nauka". 1988.
68. Zadneprovskiy YU.A. Neolit TSentralnoy Fyergani KSIA. 132. 1966.
69. Ivanova N.G., Nesmeyanov S.A. Rezultati palinologicheskogo izucheniya Samarkandskoy vyernepaleoliticheskoy stoyanki Paleolit Sredney i Vostochnoy Azii. Novosibirsk. 1980.
70. Islamov U.I. Mezolit Sredney Azii Avtoref. Dok. Diss. Novosibirsk. 1977.
71. Islamov U.I. Obishirskaya kultura. Tashkent. 1980.

72. Islamov U.I. K voprosu o lokalnix variantax epoxi mezolita i neolita v Uzbekistane Kamenniy vek Sredney Azii i Kazaxstana. Tez. Dokladov. Tashkent. 1972.
73. Islamov U.I. Rezultati raskopok peshyernix stoyanok mezoliticheskogo vremeni v Uzbekistane USA. № 1. 1972v.
74. Islamov U.I. Mezoliticheskie pamyatniki Fyerganskoy dolini IMKU № 9. Tashkent. 1972a.
75. Islamov U.I. Mezolit Sredney Azii Avtoref. Dok. Diss. Novosibirsk. 1977.
76. Islamov U.I. Peshyera Machay. Tashkent. 1975a.
77. Islamov U.I. Pyervaya njnepaleoliticheskaya peshyernaya stoyanka v Fyerganskoy doline ONU. №8. 1984. Islamov U.I, Kraxmal K.A. Nekotorie problemi paleoekologicheskoy rekonstruktsii ashelskoy stoyanki Selungur ONU. № 12. 1990.
78. Islamov U.I. Itogi i pyerspekivi izucheniya peshyernoy stoyanki Selungur Problemi vzaimosvyazi obshestva v kamennom veke Sredney Azii. Tashkent. 1988.
79. Islamov U.I. K videlenie lokalnix variantov mezolita Uzbekistana IMKU. 12. 1975.
80. Islamov U.I. Mezoliticheskaya stoyanka Kushilish pod Tashkentom ONUz. № 7. 1970.
81. Islamov U.I. Stoyanka Kushilish U istokov drevney kulturi Tashenta. Tashkent. 1982.
82. Islamov U.I. K voprosu o lokalnix variantax epoxi mezolita i neolita Uzbekistana IMMKU 11. 1974a.
83. Islamov U.I. Kelteminarskaya kultura na Maxandare. Nauchn. Raboti i soobsheniya (AN UzSSR, otd. Obshestv. Nauk). Kn. 4. Tashkent. 1961a.
84. Islamov U.I. Otkritie neoliticheskoy kulturi na Maxandare. ONU, vip 1. 1961b.

85. Islamov G.F., Timofeev V.I. Kultura kamennogo veka TSentralnoy Azii. Tashkent. 1977.
86. Islamov U.I. Neoliticheskaya kultura v nizoviyax Zarafshana. Avtoref. Kand. Diss. L.: 1963.
87. Islamov U.I., Kraxmal K.A. Kompleksnie issledovaniya drevnepaleoliticheskoy peshyernoy stoyanki Sel-Ungur \ Rannepaleoliticheskie kompleksi Evrazii. Novosibirsk. 1992.
88. Islamov U.I., Kraxmal K.A. Drevnepaleoliticheskie orudiya truda iz Fyerganskoy dolini ONU. № 4. 1987.
89. Islamov U.I., Omanjulov T. Peshyernaya stoyanka Selungur IMKU. Vip. 19. 1984.
90. Islamov U.I., Zubov A.A., Xaritonov V.M. Paleoliticheskaya stoyanka Selungur v Fyerganskoy doline VA. Vip. 80. 1988.
91. Islamov U.I., Timofeev V.I. Stoyanki kamennogo veka yujnoy chasti TSentralnoy Fyergani. IMKU, vip. 13. Tashkent. 1977.
92. Itina M.A. Pamyatniki pyervobitnoy kulturi vyernego Uzboya TXAAEE, t. 2. 1958b.
93. Kabirov J. Ibtidoiy davr behzodlari. Fan va turmush. 1-son, 1970.
94. Kabirov Dj. Naskalnie izobrajeniya Karatau. AO, 1970 g. M.: izd-vo "Nauka". 1971.
95. Kabirov Dj. Naskalnie izobrajeniya Sarmichsaya. IMKU № 9. Tashkent. Izd-vo "FAN" 1972.
96. Kabirov Dj. K datirovke petroglifov Uzbekistana III-II tis. l. do n. e. TD sessii, posvyashennoy itogam polevix arxeologicheskix issledovaniy 1972 g. v SSSR. Tashkent. Izdvo "FAN" 1973.
97. Kabirov Dj. Issledovanie naskalnix izobrajeniy v Uzbekistane Avtoref. Diss. Kand. Ist. Nauk. Tashkent. 1974.
98. Kabirov Dj. Drevnie naskalnie izobrajeniya Karatau AO 1970 g. M.: izd-vo "Nauka", 1971.

99. Kabirov Dj. Drevneyshaya naskalnaya jivopis Zarautsaya Pyervobitnoe iskusstvo. Novosibirsk. 1976.
100. Kasimov M.R. Novie issledovaniya po paleolitu Fyerganskoy dolini v 1964 g. IMKU. Vip. 7. 1966.
101. Kasimov M.R. Mnogosloynaya paleoliticheskaya stoyanka Kulbulak v Uzbekistane MIA. № 185. 1972b.
102. Kasimov M.R. Rezultati rabot Axangaranskogo paleolitichnskogo otryada po dannim raskopok 1975 g. IMKU. № 14. 1978.
103. Kasimov M.R. Problemi paleolita Sredney Azii i Yujnogo Kazaxstana Avtorefyerat dok. Diss. Novosibirsk. 1990.
104. Kasimov M.R. Kremneobrabativayushie mastyerskie i shaxti kamennogo veka Sredney Azii. Tashkent. 1972.
105. Kasimov M.R. Kremnevaya mastyerskaya u kishlaka Uchtut v rayone g`ori Karatau Buxarskoy oblasti (po matyerialam arxeologicheskoy ekspeditsii). Nauchnie raboti i soobshenii AN RUz. Kn.: 6. 1963.
106. Kasimov M.R. Rezultati arxeologicheskix rabot v doline r. Sox v 1966-1967 g. IMKU. Vip. 9. 1972a.
107. Kasimov M.R., Godin M.X. O kompleksnom issledovanii paleoliticheskoy stoyanki Kulbulak IMKU. Vip. 17. 1982.
108. Kasimov M.R., Godin M.X. Vajneyshie rezultati issledovaniy mnogosloynoy stoyanki Kulbulak IMKU. Vip. 19. 1984.
109. Kasimov M.R., Tetyuxin G.F., Godin M.X., Xusanbaev D.I. K voprosu o kompleksnom issledovanii mnogosloynoy paleoliticheskoy stoyanki Kulbulak v Uzbekistane KSIA. Vip. 181. 1985.
110. Kasimov M.R., Korobkov I.I., Godin M.X. Stratigrafiya, litologiya i xarakteristika kamennoy industrii mnogosloynoy stoyanki Kulbulak \ Problemi vzaimosvyazi prirodi i obshestva v kamennom veke Sredney Azii. Tashkent. 1988.